

**X.T. UMAROV**



**LOTIN TILI VA  
TIBBIY-FARMATSEVTIK  
TERMINOLOGIYA ASOSLARI**

471(1)121  
U 470

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI


SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

X.T. UMAROV

**LOTIN TILI VA TIBBIY-  
FARMATSEVTIK  
TERMINOLOGIYA  
ASOSLARI**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi  
tomonidan tibbiyot oliy ta‘lim muassasalarining barcha ta‘lim  
yo‘nalishlari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

«Tamaddun»  
Toshkent  
2015



UDK: 616.89.053.2(075)

KBK 52.81ya2

U -47

**Umarov Xamdam Tirkashovich.**

**Lotin tili va tibbiy-farmatsevtik terminologiya asoslari:** O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi. – T: «Tamaddun», 2015. – 284 b.

UDK: 616.89.053.2(075)

KBK 52.81ya2

*Mazkur kitob Lotin tili va tibbiy terminologiyasi o'quv rejasiga mos ravishda yozilgan va I kurs talabalariga mo'ljallangan. Shu bilan bir qatorda, u an'anaviy yozilgan qo'llama va darsliklardan birmuncha farq qiladi. Unda lotin tili fanining asosini tashkil etuvchi fonetika, harf va tovushlar tasnifi, qisqacha grammatik materiallar, mustahkamlash va mustaqil ishlash uchun mashqlar, LM(leksik minimum) hamda odamning tashqi va ichki a'zolari, dori shakllari, dorivor o'simliklarning qismini bildiruvch so'zlar (rasmlar asosida) berilgan. Bunday yondashish talabalarni amaliy ko'nikmalarini mukammal egallash imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Bularning barchasi ilk bora tibbiyot sohasiga qadam qo'yayotgan bo'lg'usi shifokorlarning yaqin yordamchisiga aylanadi, deyishga asos bo'ladi.*

*Darslik Samarqand Davlat tibbiyot instituti ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2015-yil 2-fevraldagi 32-sonli buyrug'iga asosan tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining Davolash ishi (5510100), Pediatriya ishi (5510200), Kasbiy (davolash ishi-5510100) ta'lim(5111000), Stomatologiya ishi (5510400) yo'nalishlari uchun darslik sifatida tafsifiya qilingan.*

#### **Taqrizchilar:**

**N.Q.Turniyozov** – Samarqand Davlat chet tillar instituti tilshunoslik kafedrası professori, filologiya fanlari doktori.

**U.U.Usmonov** – Samarqand Davlat chet tillar instituti ingliz tili tarixi va grammatikasi kafedrası professori.

**F.S.Oripov** – Samarqand Davlat tibbiyot instituti odam anatomiyasi, gistologiyasi, sitologiyasi, embriologiyasi va OXTA kafedrası mudiri, tibbiyot fanlari nomzodi.

*Ushbu kitobga tegishli barcha huquqlar himoyalangan. X.T.Umarovning yozma ruxsatisiz darslikni chop etish yoki boshqa tilga tarjima qilish qat'iy man etiladi.*

ISBN 978-9943-4540-7-1

© X.T. Umarov, 2015

© «Tamaddun», 2015

## So‘z boshi

Mazkur “Lotin tili va tibbiy-farmatsevtik terminologiya asoslari” darsligi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan o‘quv dasturi asosida tuzilib, tibbiyot oliygohlari talabalariga mo‘ljallangan.

Darslikdan tibbiyot kollejlari o‘quvchilari, tibbiyot tayyorgarlik kurslarining o‘qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.

Darslikning maqsadi talabalarni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish, o‘qish va yozish malakalarini oshirishdan iborat.

Darslik faqat tibbiy soha, ya‘ni anatomiya, davolash va dorishunoslikka doir atamalar asosida tuzilgan va mavzular quyidagi tartibda berilgan:

**I. Anatomiya bo‘limi.** Bunda anatomik iboralarning yasalishi, moslashgan va moslashmagan aniqlovchilar, ot va sifat, sifat darajasi, son berilgan;

**II. Davolash (klinika) bo‘limi.** Darslikning bu bo‘limida tibbiyotning davolashga doir atamalarining yasalishi: lotincha va grekcha ma‘nodosh so‘zlar (rasmlar asosida) va ularning tibbiyotda qo‘llash uchun zarur bo‘lgan qoidalar va mashqlar berilgan;

**III. Dorishunoslik bo‘limi.** Bu qismda fe‘l so‘z turkumi, fe‘llarning mayl kategoriyalari, ularni retseptda qo‘llashga doir yo‘l-yo‘riqlar, dori shakllari, dorivor o‘simliklar (rasmlar asosida) nomlari hamda lotincha va o‘zbekcha retseptlar berilgan.

Har bir mavzudan keyin mashqlar hamda talabalarining dunyoqarashi va man‘aviy-ma‘rifiy bilimlarini oshirishga ko‘maklashuvchi lotincha maqollar va hikmatli so‘zlar berilgan.

Darslikdan yana tashqi va ichki a‘zolar (rasmlar asosida), mustaqil bajarish uchun mashqlar va test savollari o‘rin olgan.

Darslik haqida qimmatli fikr mulohazalarini bildirgan barcha o‘rtoqlarga muallif samimiy minnatdorchilik bildiradi.

# K I R I S H

## LOTIN TILINING QISQACHA TARIXI

Juda qadim zamonlarda hozirgi Italiya hududidagi Apenin yarim orolida Latsiya viloyati bo'lib, uning tili o'sha joyning nomi bilan lotin (**Lingua latina**) deb atalgan. Bu qabila bosqinchilik urushlari vaqtida butun Ovrupo, Afrikaning shimoliy qismi va O'rta yer dengizida yashovchi qabilalarga o'z hukmronligini o'tkazgan. Bizga ma'lumki, Rim davlati qariyb yetti asr mobaynida G'arbiy Yevropada (german qabilasidan tashqari) hukmron bo'lgan. Bosib olingan yerlarda yashovchi qabilalarga o'z tilini, ya'ni lotin tilini davlat tili deb qabul qilishga majbur qilgan. Lotin tili 7-asrga qadar Yevropada davlat tili hisoblanib, 18-asrgacha jahon tili, ilm fan tili sifatida keng qo'llanildi. Rim davlati Yunonistonni bosib olganda, bu yerda madaniyat yuksak darajada taraqqiy etgan bo'lib, u Rim davlati madaniyatida o'z aksini topgan. Shu sababli bo'lsa kerak, jahon ilmiy atamalarining ko'pgina qismi, fanlarning qaysi sohasida bo'lmasin, lotin tilidan olingan. Shu boisdan lotin tili barcha tillarga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Yevropa tillarida so'zlashuvchilar uchun lotin tili ilm-fan tili sifatida qabul qilingan. O'sha davr ba'zi taraqqiyparvar olim va ziyolilari o'z asarlarini lotin tilida e'lon qilganlar.

Yevropa tibbiyot "otasi" Suqrot (taxm. miloddan avvalgi 460-370- yillarda) yashagan, ijod qilgan. Uning asarlarida ilmiy tibbiy atamashunoslik boshlanishi aniqlangan. Suqrot o'z asarlarida qo'llagan atamalarning katta qismi xalqaro tibbiy lug'atga kiritilgan. Suqrot dan so'ng qadimgi yunon tilidagi tibbiy atamashunoslikni shakllanishida Aleksandriya tibbiyot maktabidan (qadimgi IV asr) Gerofil III (taxm. miloddan avvalgi 330- yilda tug'ilgan) Erosiztrat (taxm. miloddan avvalgi 330- 240- yillar), keyinroq Ruf Efesskiy (taxm. miloddan avvalgi I asr) va o'qimishli olim, faylasuf, vrach, anatom, farmatsevt Klavdiy Galen (taxm. miloddan avvalgi 129- yillar) eng ko'p hissa qo'shganlar. Ular Suqrot bilan birga bo'lg'usi ilmiy, tibbiy atamashunoslikka asos solganlar. Antik tibbiyotni asosan yunonlar shakllantirganlar. Rim bino



bo'lgandan buyon uning madaniy hayotida Yunonistonning tabiiy, ilmiy va tibbiy fanlari rol o'ynaydi. Juda ko'plab yunoncha va lotinlashgan so'zlar davrlar mobaynida lotin tiliga kirdi (aër- havo, philosophia-falsafa, historia- tarix, diaphragma- diagramma va boshqalar). Yunon yozuvi ta'sirida lotin alifbosi 2 harfga ko'paydi (Y-ipsilon va Z- zet).

Shu bilan birga madaniyat va fan sohasida lotin tilining roli oshib bordi. Rim olimlari va hakimlarning tabiiy va tibbiy fan masalalariga bag'ishlangan asarlari paydo bo'la boshladi. Miloddan avvalgi I asrda Korneliy Sels qomusnoma yaratgan, undan "De medicina"(Meditsina haqida) traktatning 8 kitobi bizgacha yetib kelgan.

Sels va undan keyin rim olim va hakimlari o'z asarlarida yunon tili-dan qabul qilingan atamalardan tez-tez foydalanib turganlar, ma'nodosh so'zlar sifatida yunoncha va lotincha so'zlarni teng qo'llab turganlar. Antik davr hakimlari yunon va lotin tillarini bilishi zarur edi.

Shunday qilib, antik davrdan boshlab atamashunoslik yunon-lotin tillari asosida shakllana boshladi. Bu ikki til tibbiy atamashunoslikning butun davrlari mobaynida an'anaviy tus oldi va hozirda ham davom etmoqda. Yunoncha – lotincha ikki tillilik shu narsada aniqroq ko'rinadiki, anatomik nomlar anatomik ro'yxatlarda lotincha, kasallik, uning kelib chiqishi yunoncha bo'lgan so'zlar bilan beriladi.

Masalan: lotincha ren- yunoncha nephros-buyrak -nephritis(buyrak yallig'lanishi), lotincha lien- yunoncha splen- taloq -splenitis (taloq yallig'lanishi)

Miloddan avvalgi IV asr oxirlarida Rim imperiyasining G'arbiy va Sharqiy (Vizantiyaning Konstantinopoldagi poytaxti bilan) qismlarga bo'linishi yunon tilining faoliyati kengayishiga, Vizantiyada va G'arbda yunon yozuvi va tilining asta-sekin o'z ro'lini yo'qotishiga olib keldi.

Miloddan avvalgi 476-yil G'arbiy Rim imperiyasi ag'darilgandan so'ng og'zaki lotin tili asta-sekin o'zining rasmiy ro'lini yo'qota boradi. Eski roman (lot. Romanus) tillari o'rtasidagi farq tobora kuchaya boshladi.

Roman tillarining (italiyan, ispan, portugal, fransuz, keyinroq yana bir qator boshqa tillar, masalan rumin, moldavan) keyingi rivojlanish davri IX asrga to'g'ri keladi.

Roman tillariga asos vazifasini og'zaki lotin tili bajaradi. Shu bilan

birga adabiy lotin tili kitobiy “ilm” tili sifatida sun’iy ravishda o‘rishni G‘arbiy Yevropada yana 100 yillar mobaynida o‘rta asrlar davrida – o‘rta asr lotini, yuksalish (XIV–XVI asrlar) davrida gumanitar lotin nomi bilan davom ettirildi. Lotin tilida o‘qitiladi, ilmiy asarlar yaratildi. Qadimgi yunon va arab hakimlari asarlari lotin tiliga o‘girildi. Abu Ali Ibn Sino (Avitsenna 980-1037) ning “Tib qonunlari” asari XII asrdayoq lotin tiliga o‘girilib, qariyb XVII asr oxirigacha Yevropada tibbiyotni o‘qitish uchun asosiy manba sifatida foydalanib kelindi.

Yuksalish davrining insonparvar olimlari lotin tilini soxtalashtirishga, dag‘allashtirishga qarshilik ko‘rsatib, klassik lotin tilini saqlab qolish uchun keskin kurashib kelganlar. Hozirda aytilishi va yozilishi lotin transkripsiyasida bo‘lgan yunoncha so‘zlar Erazm Rotterdamskiy (1469-1536) tomonidan ishlab chiqilgan. Yuksalish davrida lotin tili o‘z mavqeini egallab og‘zaki va yozma axborotlarda fanning hamma sohalarida olimlarning munozara va tortushuvlarida qo‘llana boshladi.

Xuddi shu davrda xalqaro tibbiy atamashunoslik lotin tili asosiga ko‘chadi. Yirik italyan anatomi, ilmiy odam anatomiyasi bunyodkori Andrey Vezaliy (1514-1564) anatomiya fani bo‘yicha dars bergan va lotin tilida o‘zining ”De humani corporis fabrica” (“Inson tanasining tuzulishi”) – nomli klassik asarini yozgan. Vezaliy lotincha anatomik atamashunoslikning takomillashishida Sels asarlariga asoslanib ko‘p xayrli, ibratli ishlarni amalga oshirgan. Uilyam Garvey (1578-1657) o‘zining ” Exercitatio anatomica de motu cordis et sanguinis in animalibus” (Hayvonlarda yurak va qon harakati borasida anatomik tadqiqot) asarini lotin tilida yozgan. Lotin tilida Yevropa mamlakatlarining atoqli mutaffakkirlari, faylasuflari, olimlari, shifokorlari: T. Moor, I. Nyuton. R. Dekart va boshqalar o‘z asarlarini yozib qoldirganlar.

Lotin tili so‘zlashuvdan qolgan “o‘lik til” sifatida qaralsada hozirgi kunda tibbiyot, huquqshunoslik, filologiya, tarix va biologiya fanlari sohasida undan keng foydalaniladi. Bu ko‘proq tibbiyotda aniq ko‘zga tashlangan, chunki anatomiya va davolashga oid atamalar hamda dori-larning nomi lotin tilidadir.

Retsept varaqasidagi dori nomlari va dorixona xodimiga shifokor tomonidan dori tayyorlash haqidagi ko‘rsatmalar ham lotin tilida yoziladi.








# I-BO'LIM.

## Anatomik-gistologik atamalar yasash.














### 1-DARS

#### 1-§. LOTIN TILI ALFAVITI.

Lotin tili alfavitida 25 ta harf bor. Ular qanday yozilgan bo'lsa shunday o'qiladi.

Bosma harf	Yozma harf	O'qilishi	Misollar	Misollar
A a	A a	a	auris	
B b	B b	be	bronchus	
C c	C c	k tse	coccyx cerebrum	 
D d	D d	de	dens	
E e	E e	e	ethmoidalis	
F f	F f	ef	flos	
G g	G g	ge	gaster	
H h	H h	ga	humerus	
I i	I i	i	ileum	



J j	J j	yot	jejunum	
K k	K k	ka	keras	
L l	L l	el	labium	
M m	M m	em	musculus	
N n	N n	en	nasus	
O o	O o	o	orbita	
P p	P p	pe	patella	
Q q	Q q	ku	quadratus	
R r	R r	re	ren	
S s	S s	es	scapula	
T t	T t	te	thorax	
U u	U u	u	unguis	
V v	V v	ve	vertebra	
X x	X x	iks	Larynx	



3. Dyspepsia, pyelitis, myelitis, myopia, myoma, Amygdala, Myrtillus, Nystatinum, hydrops, dystonia, pylorus, myocadium, symptomum, gyrus, systole, systema, tympanum, dactylos.

### 3-§. DIFTONGLAR

Diftong – ikkita turli unli harflarning bitta bo‘g‘in sifatida talaffuz etilishidir. Lotin tilida 4 ta diftong bor:

**au** diftongi [au] deb o‘qiladi: auris[auris] – quloq

**eu** diftongi [eu] deb o‘qiladi: pneumonia[pnevmoniya] – pnevmoniya

**ae** diftongi [e] deb o‘qiladi: gangraena [gangrena] – gangrena

**oe** diftongi [e] deb o‘qiladi: oedema [edema] – shish

Agar **ae** va **oe** diftonglaridagi «e» harfi ustiga ikki nuqta qo‘yilgan bo‘lsa, u holda harflar o‘zining alohida tovushini ifoda etadi:

**aë** [aë] deb o‘qiladi: aër [aer] – havo

**oë** [oë] deb o‘qiladi: Aloë [aloe] – alloy, sabur.

### O‘qish uchun mashq

Costae, venae, suturae, anaemia, aegar, praecordium, praemolaris, foetor, gangraena, dyspnoë, diaeta, aëronum, oedema, foeniculum, vertebrae, caecus, oesophagus, auris, haematopoëticus, neurocranium, pleura, auricularis, pseudomembrana.

### 4-§. UNDOSHLARNING O‘QILISHI

**Cc** –harfi ikki tovush [ts] va [k] ni ifoda etadi.

**C** – harfi **a**, **o**, **u** unilari va undosh harflar oldida yoki so‘z oxirida kelsa [k] deb o‘qiladi:

caput [kaput] – bosh

costa [kosta] – qovurg‘a

sulcus [sulkus] – egat

cranium [kranium] – kalla suyagi

lac [lyak] – sut

**C** – harfi **e**, **i**, **y** unililar oldida va **ae**, **oe** diftonglari oldida kelsa «ts» kabi o‘qiladi:

processus [protsessus] – o‘simta  
civitas [tsivitas] –shahar, davlat  
cyclus [tsiklyus] – sikl  
plicae [plitse] –burmalar  
coeruleus [tseruleus] – zangori, ko‘k

**Hh** harfi o‘zbekcha [g] kabi o‘qiladi:

hepar [gepar] – jigar  
humerus [gumerus] – yelka suyagi

**Kk** harfi lotin tiliga yunon va arab tiliaridan kirib kelgan so‘zlarda ishlatiladi:

kalium [kalium] – kaliy

keras [keras] – shoh

**Ll** harfi juda yumshoq talaffuz etiladi:

lac [lyak] – sut

alcohol [alkogol] – alkogol

Ss harfi ikkita tovush [s] va [z] ni ifoda etadi.

1. Agar s harfi ikki unli orasida yoki unli bilan **m** yoki **n** undosh harflari orasida kelsa [z] deb o‘qiladi:

nasus [nazus] – burun

organismus [organizmus] – a‘zo, organizm

ansa [anza] – qovuzloq

2. **S** – harfi so‘z boshida, so‘z oxirida, ikkilanib (**ss**) va undoshlar oldida kelsa [s] deb o‘qiladi:

sulcus [sulkus] – egat

sinus [sinus] – bo‘shliq

fossa [fossa] – chuqurlik

osseus [osseus] – suyakka tegishli

**Xx** harfi [ks] deb o‘qiladi:

radix [radiks] – ildiz

maxilla [maksillya] – yuqori jag‘

plexus [pleksus] – chigal

**Zz** harfi (yunon so‘zlarida) [z] deb o‘qiladi:

zygoma [zigoma] –yonoq

**Zz** harfi lotin so‘zlarida [ts]deb o‘qiladi:

Zincum [tsinkum] – rux  
influenza [inflyuensiya] – gripp.

### O‘qish uchun mashqlar

1. Canalis, capitulum, condylus, cavum, cranii, corona, corocoideus, fractura, sulcus. oculus, cubitus, capsula, lacrimalis, fructus, truncus, col- lum, bucca, siccus, costa, caput, corpus, crus.

2. Cella, ceilula, acetabulum, cerebrum, processus, facies, cervix, cervicis, medicina, superficialis, cytus, tunicae, cylindrus, sulci palatini, caecum, occiput, plicae.

3. Caecus, vaccae, cyclus, coccyx, caverna, carcinoma, colica, varicella, clinica, contractura, centum, cancer, cervicalis.

4. Hiatus, haema, habitus, hepaticus, hepar, hallex, hypoglossus, hilus, histos, horizontalis, hymen, hypogastricus, habitus, hamulus, humerus.

5. Kinesis, keratium, kalium, Kalendae, keratoma, kefir, kaolium.

6. Fossa, humerus, mesenterium, septum, processus hypoglossalis, ba- sis cranii, fissura, dens incisivus, platysma, mesogastrium, mucosus, pars petrosa, status, septum, internus, fissura, sacrum, scala, osteologia, ossa, ossiculum, sutura, scabies, scapula, sella, serratus, sinister, massa, spissus, musculosus, usus, ansa, plasma, paralysis, vesica, cavernosus, tuberositas, causa, crisis, orgaismus.

7. Axis, externus, maxillaris, fornix, index, larynx, dexter, plexus, maxilla, os coxae, zygomaticus, trapezius, zona orbicularis, vena azygos, vertex, radix, extensor, maximus, apex, apendix, extremitas, sextus, cortex, cervix, circomflexus, duplex, eczema, zoster, zoologia.

### 5-§. HARF BIRIKMALARI

**qu** – unlilar oldida [kv] kabi o‘qiladi:

**ngu** – unlilar oldida [ngv] kabi o‘qiladi:

undoshlar oldida [ngu] kabi o‘qiladi:

**ti** – unlilar oldida [tsi] kabi

o‘qiladi:

aqua [akva] – suv

lingua [lingva] – til

angulus [angulyus]

– burchak

articulatio

[artikulatsiyo] – bo‘g‘im



**x, s** harflaridan keyin [ti]  
kabi o'qiladi:

mixtio [mikstio] –  
aralashma

### O'qish uchun mashqlar

1. Aquaductus, quadratus, quintus, quadriceps, squama, quae, qui, squamosus, quoque, triquetrus, aquosus, liquor, obliquus, quantum, quies, aequalis, quartus.

2. Inguis, sanguis, sanguifer, lingua, sublingualis, anguis, inguis, inguen, unguentum, inguinalis, sublingualis, sanguineus, angulus, lingula.

3. Operatio, protuberantia, eminentia, spatia, intercostalia, vitium, auscultatio, pulpato, dens sapientiae., curatio, solutio, actio, punctio, iniectio, combustio.

### 6-§ DIGRAFLAR (grekcha harf birikmalari)

Digraf bu – bitta tovush beradigan ikkita undosh birikmasidir.

**ch** harf birikmasi [x] kabi talaffuz qilinadi: **chole** [xole] – o't

**sch** harf birikmasi [sx] kabi talaffuz qilinadi: **schema** [sxema] – sxema

**ph** harf birikmasi [f] kabi talaffuz qilinadi: **phosphorus** [fosforus]  
– fosfor

**rh** harf birikmasi [r] kabi talaffuz qilinadi: **rheum** [reum] – ravoch

**th** harf birikmasi [t] kabi talaffuz qilinadi: **thorax** [toraks]-ko'krak qafasi.

### O'qish uchun mashqlar

1. Cochlea, chiryrgus, concha, chondros, ischuria, splanchno, chondrosis, bronchus, nucha, trachea, trochanter, brachium, chylus, chiasma, scholasticus, splanchnologia, ischium, synchondrosis

2. Symphysis, hypophysis, phalanx, esophagus, encephalon, nephritis, pharynx, phagocytus, phren, philtrum, pharmacologia, phosphorus, phlegmone, physiologia.

3. Rhaphe, rhombus, rheumatismus, rhachitis, rhythmicus, rhinitis, rhinecephakon, Rheum, rhyzoma, rhomboideus, rhinorrhagia, Glycyrrhiza.

4. Thrombus, pathologia, asthma, arthron, Althaea, phthisis, phototherapia, thorax, ethmoidalis, lithiasis, thermotherapia, thyroideus, erythema, thymus, thalamus, thenar, theca.

## Mustaqil o‘qish uchun mashqlar

1. *In scapula spina scapulae, fossa supraspinata, fossa infraspinata, sunt. Linea mylohyoidea, in mandibula, est. Sunt costae verae et costae spuriae. Cellulae in tela sunt. Est tela chorioidea, conjunctiva, elastica, subcutanea, submucosa et subserosa. Fractura tibiae sen fibulae periculosa non est.*

2. *Thyphus exanthematicus, icterus, morbilli sunt morbi contagiosi. Pharyngorrhagia est signum malum morbi. Medicina est disciplina antiqua. In ossibus sunt substantia compacta et substantia spongiosa. Natura vitam quotannis renovat.*

3. *Bulbus oculi in orbita iacet: Hippocrates et Yalenus clari medici Graecorum sunt. Cibus per oesophagum in ventriculum intrat. Medici Graecorum ventriculum stomachum nominant. Scalpellum est culter acutus chirurgicus. Sceleton antebrachii ex radio et ulno.*

4. *Musculi organismi humani forma varii sunt, sunt musculi longi, lati, breves. Musculi fasiis, quasi, sacculis, elasticis, cinguntur. Fasciae in fascias proprias et fascias subcutaneas dividuntur. Fascia propria profundae tela fibrosa compacta constat.*

## 7-§. LEKSIK MINIMUM

### I turlanishdagi otlar

ala, ae, f qanot	crista, ae, f qirra
aorta, ae, f aorta	lamina, ae, f plastinka
arteria, ae, f arteriya	lingua, ae, f til
concha, ae, f chig‘anoq	mandibula, ae, f pastki jag‘
costa, ae, f qovurg‘a	maxilla, ae, f yuqori jag‘
orbita, ae, f ko‘z kosasi	patella, ae, f tizza qopqog‘i
scapula, ae, f kurak	sutura, ae, f chok
spina, ae, f o‘tkir qirra	tuba, ae, f, nay
vena, ae, f vena	vertebra, ae, f umurtqa

### Nota bene!

**In via est in medicina via sine lingua latina** – Lotin tilisiz tibbiyotga yo‘l yo‘q.

**Omne principium difficile est** – Har bir ish boshlanishidagina qiyin.

## II-DARS

### 8-§. CHO‘ZIQ VA QISQA BO‘G‘INLAR. URG‘U

Lotin tilida unli tovushlar cho‘ziq yoki qisqa bo‘lishi mumkin. Unli tovushning cho‘ziqligi harf ustiga chiziqcha, masalan: **ā, ō, ī** qisqaligi oy (yarim to‘garakcha), masalan: **ā̄, ō̄, ī̄** qo‘yib belgilanadi.

Lotin tilida urg‘u unli tovushlarning cho‘ziq yoki qisqaligiga bog‘liq. Tarixiy cho‘ziqlik va qisqalik mavjud. Bu holatlarda ikkinchi bo‘g‘in ustiga lug‘atlarda cho‘ziqlik yoki qisqalik belgisi qo‘yiladi:

**Me-dí -cus** – shifokor      **Me-di-cí-na** – meditsina

### 9-§. SO‘ZLARNI BO‘G‘INLARGA BO‘LISH QOIDALARI

Barcha so‘zlar bo‘g‘inlarga bo‘linadi. So‘zda qancha unli harf bo‘lsa, shuncha bo‘g‘in bo‘ladi:

1. Bitta unli harf mustaqil bo‘g‘in hosil qiladi. Undosh harf esa bo‘g‘in hosil qilmaydi.

2. Bo‘g‘in chegarasi unli va undosh o‘rtasida bo‘ladi.

**li-ne-a**-chiziq

**ar-ti-cu-la-ris** - bo‘g‘imga oid

**li-ga-men-tum**- bog‘lam

**os-se-us** - suyakka tegishli

3. Diftonglar bir bo‘g‘inni tashkil etadi.

**pae-di-a-ter**- bolalar shifokori

**ae-gro-tus** - kasal, bemor

4. **l** yoki **r** harflari bilan **b, s, d, g, t** undoshlari birikib kelsa, ular ajratilmaydi      **ver-te-b ra**- umurtqa      **an-hy-drus**- suvsiz

5. Lotin tilida bo‘g‘inlar so‘z oxiridan hisoblanadi.

**pte - ry -go -i -de -us**- qanotsimon

6   5   4   3   2   1

### 10-§. URG‘U

Lotin tilida urg‘u odatda so‘zning oxiridan ikkinchi bo‘lib joylashgan, cho‘ziq bo‘ginga qo‘yiladi. Agar so‘zning oxiridan ikkinchi bo‘g‘in qisqa bo‘lsa, bu holda urg‘u so‘zning oxiridan joylashgan uchinchi bo‘g‘inga qo‘yiladi.

**Ikkinchi bo‘g‘in cho‘ziq va urg‘uli, agar u:**

1. Diftong bo‘lsa:

Al – tháe – a      di – áe – ta  
3 2 1      3 2 1

2. Ikki undosh tovush oldida kelgan unli tovush:

Li –ga –mén-tum    pro- cēs- sus  
4 3 2 1      3 2 1

3. z va x undoshlaridan oldin kelsa:

Cir- cum- flé- xus    gly- cyr- rhí - za  
4 3 2 1      4 3 2 1

4. **ur, in** qo‘shimchalaridagi “**u**” va “**i**” tovushlari

Fis –sú-ra-      of – fi – cí – na  
3 2 1      4 3 2 1

5. - **át, -ár, -ál, -ós** sifat yasovchi suffiksalar:

Ar- ti- cu- lá- ris    spi- nó- sis    ha- má- tus    oc- ci- pi- tá- lis  
5 4 3 2 1    3 2 1 3 2 1    5 4 3 2 1

**Ikkinchi bo‘g‘in qisqa va urg‘usiz, agar u:**

1. Unli tovush oldida kelgan unli tovush:

tī – bī – a      o – lē – um  
3 2 1      3 2 1

2. Undosh **r, l** harflar bilan **b, s, d, g, t** birikmasi oldida kelgan unli tovush:

ver –tē –bra      an –hŷ –drus  
3 2 1      3 2 1

3. **ul, ol** suffiksi (qo‘shimchasi):

ca –pi –tū –lum    al –ve – ð – lus  
4 3 2 1      4 3 2 1

4. - **il, - it, - id, - ic** sifat yasovchi suffiksalar:

Com- po- sī- tus    tho- ra- cī- cus    so- lu- bī- lis    flu- ĩ - dus  
4 3 2 1    4 3 2 1    4 3 2 1    3 2 1

Ikki bo‘g‘inli so‘zlarda urg‘u hamisha ikkinchi bo‘g‘inga qo‘yiladi:

sūl – cus      cōs – ta  
2 1      2 1

## Mustaqil ishlash uchun mashqlar

### 1. Qaysi bo'g'in cho'ziqligini aniqlang va sababini ko'rsating:

*di-ae-ta, la-goe-na, pro-ces-sus, ab-sur-dus, pro-fun-dus, hy-po-glos-sus, pa-pil-la, com-pres-sor, di-a-phrag-ma, ap-pen-dix, me-dul-la, gar-ga-ris-ma, ex-ter-nus, si-nis-ter.*

### 2. Oxiridan oldingi bo'g'inning cho'ziq bo'lishini aniqlang va urg'u qaysi joyga qo'yiladi:

*palpebra, tenebrae, anhydrus, muliebris, quadruplex, cholodochus, monolithus.*

### 3. Bo'g'inga bo'ling, oxiridan oldingi bo'g'in cho'ziq bo'lishini tushuntiring, urg'u qo'ying:

*articulatio, linea, trochlea, arteria, neuralgia, memoria, facies, medius, symphysos, mixtura, cerebellum, nucleus, gangraena.*

### 4. mas-to-i-de-us ko'rinishi kabi bo'g'inlarga ajrating, oxiridan oldingi bo'g'inning cho'ziqligini aniqlang va urg'u qo'ying:

*sigmoideus, pterygoideus, coracoideus, styloideus, deltoideus, xiphoides, cricoideus.*

### 5. Oxiridan oldingi bo'g'inning cho'ziqlik yoki qisqalik belgisini belgilang va urg'u qo'ying:


*ileum, nucleus, pancreas, balneum, dysenteria, olfactus, arachnoidea, amorphus, elementum, papillia, metacarpus, dyspnoe, apertura, musculus, malleolus.*

### 6. Qaysi bo'g'in urg'u talab qilishini aniqlang, belgi qo'yib o'qing:

*membrana, vagina, tunica, occiput, ventriculus, acetabulum, tympanum, palatum, condylus, tuberositas, deltoidea, humeri, abdomen, abdominis, tempora, corpora, vulnera, caput, capitis, homo, hominis, thorax, thoracis, cervix, cervicis, radix, radices, cartilago, cartilaginis, oesophagus, Hypocrates.*

### 7. Ikki bo'g'inli so'zlarda urg'u qanday bo'g'inda bo'lishi kerak? O'qing:

*fossa, sulcus, morbus, apex, margo, cavum, septum, corpus, sanguis, arcus, tuber.*





## 11-§. LEKSIK MINIMUM

### II turlanishdagi otlar

angulus, i, m burchak	calcaneus, i, m tovon suyagi
brachium, i, n yelka	digitus, i, m barmoq
cavum, i, n bo'shliq	humerus, i, m yelka suyagi
manubrium, i, n dasta	radius, i, m bilak suyagi
musculus, i, m muskul	sternum, i, n to'sh suyagi
septum, i, n to'siq	tympanum, i, n nog'ora

### III turlanishdagi otlar

corpus, oris, n tana	crus, cruris, n oyoqcha
foramen, inis, n teshik	os, ossis, n suyak

### IV turlanishdagi otlar

arcus, us, m yoy	genu, us, n tizza
cornu, us, n shox	ductus, us, m oqim
meatus, us, m yo'l	processus, us, m o'simta
sinus, us, m sinus, bo'shliq	textus, us, m to'qima

### V turlanishdagi otlar

facies, ei, f yuza	dies, ei, f kun
--------------------	-----------------


**Nota bene!**

**Repetitio est mater studiorum** – Takrorlash bilimning onasi.

**Per aspera ad astra** – Qiyinchiliklarni yengib yulduzlarga.

**Non scholae, sed vitae discimus** – Biz maktab uchun emas, hayot uchun o'qiyviz.

## Organa hominis externa



- |                                |  |
|--------------------------------|--|
| 1. Caput, itis, n- bosh        | 16. carpus, i, m- oyoq kaft suyaklari        |
| 2. auris, is, f- quloq         | 17. tarsus, i, n- oyoq panja kaft usti suyak |
| 3. zygoma, atis, n- yanoq      | 18. unguis, is, m- tirnoq                    |
| 4. collum, i, n- bo'yin        | 19. frons, ntis, f- peshona                  |
| 5. larynx, yngis, m- hiqildoq  | 20. oculus, i, m- ko'z                       |
| 6. pectus, oris, n- ko'krak    | 21. nasus, i, m- burun                       |
| 7. mamma, ae, f- ayol ko'kragi | 22. os, oris, n- og'iz                       |
| 8. umbilicus, i, m- kindik     | 23. mandibula, ae, f- pastki jag'            |
| 9. abdomen, inis, n- qorin     | 24. brachium, i, n- yelka kamari, yelka      |
| 10. pubes, is, f- qovuq        | 25. manus, us, f- qo'l                       |
| 11. penis, is, m- olat         | 26. ulna, ae, f- tirsak                      |
| vagina, ae, f- qin             | 27. antebrachium, i, n- bilak                |
| 12. femur, oris n- son         | 28. carpus, i, m- kaft                       |
| 13. genu, us, n- tizza         | 29. metacarpus, i, m- qo'l kafti             |
| 14. crus, cruris, n- boldir.   | 30. digitus, i, m- barmoq                    |
| 15. pes, pedis, m- oyoq.       |  |

## Skeleton

1. *Ossa cranii* - kalla suyaklari
2. *Os claviculae* - o'mrov suyagi
3. *Os sterni* - to'sh suyagi
4. *Os scapulae* – kurak suyagi
5. *Os humeri* – yelka suyagi
6. *Ossa costalia* – qovurg'a suyaklar
7. *Columna vertebralis* – umurtqa pog'onasi
8. *Ulna (ae, f)* – tirsak suyagi
9. *Radius (i, m)* – bilak suyagi
10. *Carpi(us, i, m)* – kaft usti suyaklari
11. *Ossa metacarpalia* – qo'l kaft suyaklari
12. *Os sacrum* – dumg'aza suyagi
13. *Phalanges(nx, gis, f)* – barmoq suyaklari
14. *Os coxae* – chanoq suyagi
15. *Os femoris* – son suyagi
16. *Patella (ae, f)* – tizza qopqog'i
17. *Tibia (ae, f)* – katta boldir suyagi
18. *Fibula (ae, f)* – kichik boldir suyagi
19. *Tarsus (i, m)* – (oyoq panjasining) kaft usti qismi
20. *Ossa metatarsi (matatarsalia I-V)* – oyoq kaft suyaklari (I-V)
21. *Ossa hallucis* – oyoq barmoq'ining suyaklari



### 3-DARS

#### 12-§. OT (nomen substantivum)

Predmetning ma'nosini ifodalaydigan va grammatik son, egalik, rod, kelishik kategoriyalariga ega bo'lib, **kim? nima?** so'roqlariga javob beradigan so'z turkumiga ot deyiladi.

Lotin tilida otlar quyidagi grammatik kategoriyalarga ega:

1. Otlar lotin tilida uchta rodga ega:

Genus masculinum (m) - mujskoy rod (m. r)

Genus femininum (f) - jenskiy rod (j. r)

Genus neutrum (n)- sredniy rod (s. r)

2. Otlar lotin tilida ikkita songa ega:

Numerus singularis (sing)- birlik son (birl)

Numerus pluralis (plur)- ko'plik son(ko'pl)

3. Otlar lotin tilida beshta kelishikka ega:

Casus nominativus(nom)- bosh kelishigi, - kim? nima?

Casus genitivus (gen) - qaratqich kelishigi, -kimning? nimaning?

Casus dativus (dat) - jo'nalish kelishigi, - kimga? nimaga?

Casus accusativus (acc)- tushum kelishigi, - kimni? nimani?

Casus ablativus(abl)- birgalik kelishigi, - kimdan? nimadan?

Yana (**casus vocativus**) nomli kelishik borki u faqat muloqot qilishda qo'llaniladi. Tibbiyot so'zlarida qo'llanilmaydi va biz buni inobatga olmaymiz.

4. Lotin tilida otlar 5-ta turlanishga ega:ular qaratqich kelishigining birlik sonidagi qo'shimchasi yordamida aniqlanadi.

Turlanish	I	II	III	IV	V
Qo'shimcha	ae	i	is	us	ei

5. Otlarning negizini aniqlash uchun qaratqich kelishik birlik sonidagi shaklidan kelishik qo'shimchasini olib tashlash kerak, so'z o'zagiga barcha kelishik qo'shimchalarini qo'shish orqali turlanadi:

Nom	Gen	Rod	Turlanish	O'zak
morbis	morbi	M	II	morb
dies	diei	F	V	di

arcus	arcus	M	IV	arc
bursa	bursae	F	I	burs
corpus	corporis	N	III	corpor

6. Lotin tilida otlarning rodini bosh kelishik birlikdagi qo‘shimchasi orqali aniqlanadi. Bosh kelishik birlikda mujskoy rodida **-us, -er**, jenskiy rodida **-a, es**, sredniy rodida **-um, -on, -u** qo‘shimchalariga ega bo‘ladi.

7. Lotin tilida otlar lug‘at shaklida ko‘rsatiladi va faqat shu shaklda yodlanadi. Otlarning lug‘at shakli avvalo bosh kelishik birlikda to‘liq, so‘ngra qaratqich kelishigi birlikdagi qo‘shimchasi va rodi ko‘rsatiladi:

Nom. sing	Gen. sing	rod
vesica,	ae, f	- pufak
fundus,	i, m	- tub
dorsum,	i, n	- orqa
magister,	tri, m	- o‘qituvchi
corpus,	oris, n	- tana
homo,	inis, m	- odam
mater,	tris, f	- miya pardasi
arcus,	us, m	- yoy
genu,	us, n	- tizza
dies,	ei, f	- kun

Otlarning **I-turlanishiga** qaratqich kelishigi birlikda **-ae**, bosh kelishik birlikda **-a** qo‘shimchasiga ega bo‘lgan jenskiy roddagi otlar kiradi.

Nom.	Gen
fossa,	ae, f- chuqur
palma,	ae, f- kaft
planta,	ae, f- oyoq kafti
tunica,	ae, f- parda

#### Turlanish namunasi

	Sing	Plur
Nom.	fossa	fossae
Gen	fossae	fossarum
Dat	fossae	fossarum
Acc.	fossam	fossas
Abl	fossa	fossis



Otlarning **ikkinchi** turlanishiga qaratqich kelishigi birlikda **-i**, bosh kelishik birlikda mujskoy rodada **-us**, **-er** qo'shimchalari, sredniy rodada **-um**, **-on** qo'shimchalariga ega bo'lgan otlar kiradi.

Nom. sing	Gen. sing	
esophagus,	i,	m- qizilo'ngach
digutus,	i,	m- barmoq
liber,	bri,	m- kitob
uterus,	i,	m- bachadon
collum,	i,	n- bo'yin
rectum,	i,	n- to'g'ri ichak
colon,	i,	n- chambar ichak
olecranon,	i,	n- tirsak o'sig'i

**NB:** Barcha qo'shimchalarni ko'chirib oling va ularni yodlang.

### 5-turlanishning qo'shimchalar jadvali

Kelishik	turlanish	I	II	III	IV	V
nom. sing		f -a	m -us, -er, n -um, - on	m, f, n har xil	m -us n -u	f -es
gen. sing		-ae	-i	-is	-us	-ei
dat. sing		-ae	-o	-i	m-uj n-u	-ei
acc. sing		-am	m -um n -um, - on	m, f -em n-Nom. sing	m-um n-u	-em
abl. sing		-a	-o	-e (- i)	-u	-e
nom. plur		-ae	m -i, n - a	m, f -es n -a(-ia)	m -us n-ua	-es
gen. plur		-arum	-orum	-um(ium)	-uum	-erum
dat. plur		-is	-is	-ibus	-ibus	-ebus
acc. plur		-as	m -os n -a	m, f -es n -a(-ia)	m -us n -ua	-es
abl. plur		-is	-is	-ibus	-ibus	-ebus

## Turlanish namunasi

<b>Singularis</b>			
		<b>m</b>	<b>n</b>
nom	<b>digit-us</b>	<b>magist-er</b>	<b>coll-um</b>
<i>Gen</i>	<i>digit-i</i>	<i>magistr-i</i>	<i>coll-i</i>
<i>Dat</i>	<b>digit-o</b>	<b>magistr-o</b>	<b>coll-o</b>
Acc	<b>digit-um</b>	<b>magistr-um</b>	<b>coll-um</b>
Abl	<b>digit-o</b>	<b>magistr-o</b>	<b>coll-o</b>
<b>Pluralis</b>			
Nom	<b>digit-i</b>	<b>magistr-i</b>	<b>coll-a</b>
Gen	<b>digit-orum</b>	<b>magistr-orum</b>	<b>coll-orum</b>
Dat	<b>digit-is</b>	<b>magistr-is</b>	<b>coll-is</b>
Acc	<b>digit-os</b>	<b>magistr-os</b>	<b>coll-a</b>
Abl	<b>digit-is</b>	<b>magistr-is</b>	<b>coll-is</b>

### 13-§. Moslashmagan aniqlovchi

Moslashmagan aniqlovchi qaratqich kelishikdagi birlik yoki ko'plik sondagi otlar bilan ifoda qilinadi. Ular o'zgarmaydi, turlanmaydi, moslashmaydi. **Sulcus costae**- qovurg'aning egati

Ikki va undan ortiq otlarning birikuvidan tashkil topgan anatomik terminlar rus tiliga so'zma-so'z, o'zbek tilidan so'z oxiridan tarjima qilinadi. Lotin tilida birinchi bosh kelishikdagi **ot** so'ngra qaratqich kelishigidagi **ot** yoki **otlar** bo'ladi.

Qar. kel.	Bosh kel.	Им. п	Вн. п	Nom. Gen
Kurakning kesmasi		вырезка	лопатки -	incisura scapulae
Burunning devorchasi		прегоротка	носа -	septum nasi
Kalla suyagining choki		шов	черепы -	sutura cranii

## Mustaqil ishlash uchun mashqlar

### I. Otlarning turlanishini aniqlang va o'zagini toping:

*crista, ae, f; musculus, i, m; sinus, us, m; ganglion, i, n; caput, capitis, n; ruptura, ae, f; cerebellum, i, n; margo, marginis, m; digitus, i, m; collum, i, n; meatus, us, m; facies, ei, f; genu, us, n; femur, femoris, n; os, ossis, n; cornu, us, n.*

### II. O'zbek tiliga tarjima qiling

1. Sulcus costae. 2. Septum linguae. 3. Collum mandibulae. 4. Collum scapulae. 5. Angulus mandibulae. 6. Capitulum humeri. 7. Muculus linguae. 8. Vena colli. 9. Vena cerebri. 10. Sutura cranii. 11. Bursa scapulae. 12. Cancer esophagi. 13. Ramus oculi. 14. Ventriculus cerebri. 15. Nervus oculi. 16. Tuberculum costae. 17. Sulcus arteriae. 18. Fractura maxillae. 19. Ramus nervi. 20. Ligamentum tibiae.

### III. Lotin tiliga tarjima qiling:

1. Qovurg'aning bo'yni. 2. Umurtqaning venasi. 3. Qovurg'aning egati. 4. Ko'krakning qirrasi. 5. Pastki jag'ning kesmasi. 6. O'mrov suyaging sinishi. 7. Umurtqaning arteriyasi. 8. Qovurg'a bo'yning qirrasi. 9. Patki jag'ning sinishi. 10. Qovug'aning do'mboqchasi. 11. Tilning devorchasi. 12. Katta miyaning arteriyasi. 13. Burunnig orqasi. 14. Burunning devorchasi (to'sig'i). 15. Bo'yinning muskuli. 16. Tilning venasi. 17. O'mrov suyagining boylami. 18. Burunning bo'shlig'i. 19. Nervning egati. 20. Qizilo'ngachning kasalligi. 21. Ko'zning nervi. 22. Qizilo'ngachning o'smasi. 23. Katta miyaning bo'lagi. 24. Yuqorigi jag'ning shoxi. 25. Burun devorchasining sinishi. 26. Devorchaning arteriyasi.

## 14-§. LEKSIK MINIMUM

### II-turlanishli otlar

cancer, cri, m –rak, o'sma	paediater, tri, m-bolalar vrachi
esophagus, i, m –qizilo'ngach	lobus, i, m –bo'lak
morbus, i, m – kasallik	musculus, i m –muskul (mushak)
nasus, i, m – burun	nevrus, i, - nerv (asab)
oculus, i, m - ko'z	ramus, i, m –shox
sulcus, i, m-egat	ventriculus, i, m- qorincha
cerebrum, cerebri, n – bosh miya	collum, i, n – bo'yin
cranium, i, n-kalla suyagi	ligamentum, i, n - bog'lam
septum, i, n, - to'siq	tuberculum, i, n-do'mboqcha
colon, i, n- chamber ichak	encephalon, i, n-bosh miya
ganglion, ii, n- tugun (nerv)	nodus, i, m-tugun

### I-GRUPPA (I-II -TURLANISHLI) SIFATLAR

acusticus (m), acustica (f), acusticum (n) - eshituvga oid	
cardiacus, a, um - yurakka tegishli	cavus, a, um -bo'sh (kovak)
chronicus, a, um -surunkali	coccygeus, a, um -dum, quyruq
dexter, tra, trum -o'ng	externus, a, um -tashqi
fibrosus, a, um -tolali	hepaticus, a, um - jigarga tegishli
internus, a, um –ichki	ischadicus, a, um -quymichga tegishli
longus, a, um –uzun	medius, a, um -o'рта
latus, a, um -keng	obliquus, a, um -qiyshiq
opticus, a, um -ko'ruvga tegishli	osseus, a, um -suyakka tegishli
palatinus, a, um -tanglayga tegishli	profundus, a, um -chuqur
rectus, a, um -to'g'ri	sinister, tra, trum -chap
thoracicus, a, um - ko'krakka tegishli	transversus, a, um -ko'ndalang
zygomatikus, a, um - yanoqqa maxsus	

#### **Nota bene!**

**Scientia potentia est** – bilim kuchdir.

**Non progredi est regredi** – olg'a intilmaslik ortda qolmoq demakdir

**Alit laetio ingenium** – o'qish aqlni o'tkirlaydi.

## 4-DARS

### 15-§. SIFAT (VERBUM)

Predmetning belgisini bildirib **qanday? qanaqa?** so'roqlariga javob beradigan so'z turkumiga sifat deyiladi. Lotin tilida sifatlar otlar kabi rodlada, sonlarda va kelishiklarda turlanadi.

Lotin tilida sifatlar ikkita katta guruhga bo'linadi. Birinchi guruh sifatlariga I va II turlanishdagi sifatlar kiradi. **Ikkinchi** guruh sifatlariga **III** turlanishda tuslanadigan sifatlar kiradi. IV va V turlanishdagi sifatlar mavjud emas.

**I-guruh sifatleri – I va II turlanishdagi otlar kabi qo'shimchalarga ega:**

- **us, -er** – mujskoy rod –II turlanish

- **a –jenskiy rod** – I turlanish

- **um–sredniy rod** – II turlanish

Lug'atga I-guruh sifatleri mujskoy rod formasida to'liq yoziladi so'ngra jenskiy va sredniy rodlarning qo'shimchasi ko'rsatiladi. Shunday qilib otlardan farqi sifatlar rodlar bilan yoziladi

**latus, a, um-** keng **rectus, a, um-**to'g'ri **sinister, tra, trum-**chap

II guruhga 3 turlanishdagi mujskiy va jenskiy rodga –is, sredniy rodga –e qo'shimchasiga ega bo'lgan sifatlar kiradi;

**articularis-** m, f- bo'g'imga tegishli

**articulare-** n

**brevis, e** kalta, qisqa

**frontalis, e** peshonaga tegishli

**vertebralis, e** umurtqaga tegishli

Anatomiyada –**ior** –m, f; –**ius-** n qo'shimchalari bilan bir nechta sifatlar uchraydi

**anterior** – m, f- oldingi

**posterior, ius-** orqadagi

**anterius-** n

**superior, ius-** yuqoridagi

**inferior, ius-** pastki

**maior, ius-** katta

**minor, us-** kichik

## 16-§. Moslashgan aniqlovchi

Sifatlar, sifatdosh yoki tartib sonlar bilan ifodalangan aniqlovchi moslashgan aniqlovchidir. Moslashgan aniqlovchi (sifat, ravish, olmosh, son) otlar bilan rodada, sonda va kelishikda moslashadi va gapda aniqlanishdan (otdan) keyingi o'rinda keladi.

**Ramus dexter-** o'ng shox

**Vertebra septima** – yettinchi umurtqa

Moslashgan aniqlovchini tarjima qilish uchun oxirgi so'zdan boshlanadi:

Nervus caroticus internus – ichki uyqu nervi

Arteria iliaca externa- tashqi yonbosh arteriyasi

### Mustaqil ishlash uchun mashqlar

1. *Qavs ichidagi sifatlarni otlar bilan moslashtiring, terminni tarjima qiling*

- |                                   |                                     |
|-----------------------------------|-------------------------------------|
| 1. Sulcus (transversus, a, um)    | 2. Linea (obliquus, a, um)          |
| 3. Sutura (squamosus, a, um)      | 4. Humerus (dexter, tra, trum)      |
| 5. Musculus (rectus, a, um)       | 6. Intestinum (caecus, a, um)       |
| 7. Digitus (longus, a, um)        | 8. Morbus (chronicus, a, um)        |
| 9. Clavicula (zygomaticus, a, um) | 10. Tuberculum (zygomaticus, a, um) |
| 11. Ganglion (acusticus, a, um)   | 12. Fossa (medius, a, um)           |

2. *Nuqtalar o'rniga kerakli qo'shimchalarni qo'ying, moslashtiring, terminni tarjima qiling:*

- |                         |                                |
|-------------------------|--------------------------------|
| 1. vena cav...          | 2. aorta thoracic...           |
| 3. ventriculus dext...  | 4. vertebra coccyge...         |
| 5. nervus ischiadic.... | 6. morbus chronic....          |
| 7. incisura cardiac...  | 8. glandula thoracic...        |
| 9. musculus lat....     | 10. arteria gastric....        |
| 11. vena hepatic....    | 12. brachium dextr....         |
| 13. colon transvers.... | 14. diameter (f) transvers.... |
| 15. ganglion medi....   | 16. foramen caecum             |



### 3. Moslashtirib tarjima qiling

1. Ko'ndalang (egat, arteriya, boylam)
2. yuqori (kesma, shox, tugun)
3. chap (ko'z, kurak, devorcha)
4. chuqur (nerv, arteriya, vena)
5. tanglayga tegishli (egat, vena, bo'shliq)

### 4. Moslashtirib tarjima qiling

Ichki qiyshiq muskul, chuqur o'rta vena, uzun ko'ndalang boylam, tanglayga tegishli ko'ndalang choki, uzun to'g'ri muskul, keng qiyshiq boylama, ichki ko'krak arteriyasi, tashqi qiyshiq muskuli, chap jigarga oid venasi, o'ng ko'ngdalang egati.

### 5. Nom. Gen. Abl-sing ga qo'yning, tushang, tarjima qiling

Ko'krakga tegishli umurtqa, chuqur shox, o'ng ko'z, suyakga tegishli devorcha, yurakga tegishli tugun, chap oshqozoncha, ko'ruv nervi, ko'krakga tegishli ichki arteriya

### 6. Terminlarni moslashmagan aniqlovchi bilan tarjima qiling

1. *Crista colli costae*.
2. *Tuberculum colli costae*.
3. *Fractura septi nasi*.
4. *Fractura colli costae*.
5. *Incisura ligamenti costae*.
6. *Fovea septi linguae*.
7. *Fractura mandibulae et maxillae*.
8. *Sulcus linguae et palati*.
9. *Arteria cerebri et cranii*.
10. *Sutura cranii et scapulae*.
11. *Fractura dorsi nasi*.
12. *Fractura nasi*.
13. *Facies tuberculi costae*.
14. *Lamina arcus vertebrae*.
15. *Ligamentum tuberculi ossis*.
16. *Basis cranii*.
17. *Lobus cerebri*.
18. *Musculus dorsi*.
19. *Fossa fibulae*.
20. *Angulus sterni*.

## 17-§. LEKSIK MINIMUM

### I-turlanishdagi otlar

- clavicula, ae, f – o'mrov, o'mrov suyagi  
fascia, ae, f – mushakni o'rab turuvchi yupqa parda  
nucha, ae, f – ensa  
fibula, ae, f – kichik boldir suyagi  
tibia, ae, f – katta boldir suyagi  
squama, ae, f – tangacha  
tonsilla, ae, f – bodomcha  
ulna, ae, f – tirsak suyagi

## II-turlanishdagi otlar

nasus, i, m – burun	palatum, i, n – tanglay
vestibulum, i, n – dahliz	organum, i, n – organ, a'zo
porus, i, m - teshik	

## III-turlanishdagi otlar

caput, itis, n – bosh	os (or), oris, n – og'iz
-----------------------	--------------------------

## I-guruh sifatlar

1. pterygoideus, a, um – qanotsimon	thyr(e)oideus, a, um – qalqonsimon
venosus, a, um – vena qon tomiriga oid	albus, a, um – oq
asper, a, um – g'adir-budur	coronarius, a, um – tojsimon
iliacus, a, um – yonbosh ichakga oid	liber, era, erum – erkin, ozod
niger, gra, grum – qora	sacer, cra, crum – dumg'azaga oid
2. durus, a, um - qattiq	massetericus, a, um - chaynovga oid
mylohyoideus, a, um - jag' til ostiga tegishli	
palatoglossus, a, um - tanglay tilga oid	

## II-guruh sifatlari


1. alaris, e – qanotga oid	cerebralis, e – miyaga oid
cervicalis, e – bo'yinga oid	ethmoidalis, e – g'alvirsimon
frontalis, e – peshonaga oid	maxillaris, e – yuqori jag'ga oid
mandibularis, e – pastgi jag'ga oid	nasalis, e – burunga oid
occipitalis, e – ensaga oid	orbitalis, e – ko'z kosasiga oid
sphenoidalis, e – ponasimon	temporalis, e – chakkaga oid
vertebralis, e – umurtqaga oid	jugularis, e – bo'yinturuq
sacralis, e – dumg'azaga oid	
2. alveolaris, e - katakli, pufakli	buccalis, e- lunji(si)
dentalis, e – tishga oid	infraorbitalis, e – ko'z kosasi ostiga oid
mentalis, e -engakga oid	mollis, e – yumshoq

**Nota bene!**

**Aliis inserviando consumer** - O'zgalarga nur berib, o'zim ado bo'laman.

**Medicus curat, natura sanat morbus** - Tabiat sog'aytiradi, vrach davolaydi.

### **Cavitas oris- og'iz bo'shlig'i**



1. Labium, i, n- lab;
- Palatum, i, n- tanglay;
2. Palatum durum- qattiq tanglay;
3. Palatum molle-yumshoq tanglay;
4. Uvula, ae, f- tilcha;
5. Lingua, ae, f- til;

- Dens, dentis, m- tish;
6. Dentes incisivi- kesuvchi tish;
7. Dens caninus- qoziq tish;
8. Dentes premolaris- kichik oziq tish;
9. Dentes molaris- katta oziq tish;
10. Tonsilla, ae, f- bodomcha



### Apparatus digestorius

- 1) pharynx, yngis, m - tomoq-halqum.
- 2) parotitis, itidis, f - quloq oldi so'lak bezi.
- 3) oesophagus, i, m - qizilo'ngach.
- 4) gaster, tris, f - me'da.
- 5) duodenum, i, n - o'n ikki barmoqli ichak.
- 6) hepar, atis, n - jigar  
vesica fellea (biliaris) - o't pufagi.
- 7) pancreas, atis, n - me'da osti bezi.
- 8) jejunum, i, n - ingichka ichak.
- 9) caceum, i, n - ko'r ichak.
- 10) Processus vermiformis caeci - ko'r ichakning chuvalsimon o'simtasi.
- 11) crassum, i, n - yo'g'on ichak.
- 12) rectum, i, n - to'g'ri ichak.

## 5-DARS

### 18-§. Sifat darajalari.

Lotin tilida sifatlar 3 ta darajaga ega:

gradus positivus– oddiy daraja

gradus comparativus– qiyosiy daraja

gradus superlativus- ortirma daraja

Oddiy daraja bu – sifatlarning lugʻat formasidir:

longus, a, um – uzun      ruber, bra, brum – qizil

acer, acris, acre – oʻtkir      simplex, icis – oddiy

**QIYOSIY DARAJA:** Qiyosiy darajali sifatlarni hosil qilish uchun oddiy darajali sifatlarning negiziga mujskoy va jenskiy rodlar uchun – ior suffiksini, sredniy rod uchun –ius suffiksini qoʻshish kerak.

ODDIY DARAJA	NEGIZ	SUFFIKS	QIYOSIY DARAJA
Longus, a, um-uzun	Long	M, f –ior n-ius	Longior, longius- uzunroq
Ruber, bra, brum – qizil	Rubr	-	Rubrior, rubrius – qizilroq
Brevis, e-kalta	Brev	-	Brevior, brevis – kaltaroq
Simplex, icis–oddiy	simplic	-	Simplicior, simplicius- oddiyroq

Qiyosiy darajali sifatlar 3-turlanishli otlar kabi mujskoy va jenskiy rodlarda liquor; sredniy rodga esa corpus kabi turlanadi

	M, f	n
Nom	longior	longius
Gen	longioris	
Nom	simplicior	simplicius
Gen	simplicioris	

### Mustaqil ishlash uchun mashqlar

1. Sifatlardan qiyosiy darajali sifatlar hosil qiling.

*Chuqur, keng, o'tkir, yumshoq, yangi, uzun, kalta, oddiy.*

2. Lotin tiliga tarjima qiling va Nom, Gen, Abl. sing va plur ga qo'ying  
*Chuqurroq bo'shliq, uzunroq yuza, kaltaroq arteriya, oddiyroq bo'g'im, kengroq muskul, o'tkirroq qirra.*

### 19-§. Orttirma daraja.

Sifatlarning ko'pgina orttirma darajalari oddiy darajali sifatlar-ning asosiga –issim suffiksini va 1- gruppada sifatlarning qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi.

issim – us– mujskoy rod uchun

issim – a -jenskiy rod uchun

issim – um– sredniy rod uchun

ODDIY DARAJA	NEGIZ	SUFFIKS	ORTTIRMA DARAJA
Longus, a, um – uzun	long	- issim	Longissimus, a, um – eng uzun
Brevis, e–kalta	brev	-	Brevissimus, a, um – eng kalta
Simplex, icis- oddiy	simplic	-	Simplicissimus, a, um, -eng oddiy

b) er - qo'shimchasi bilan tugagan sifatlarning orttirma darajasi mujskoy rod formasiga –rim suffiksi va 1 -gruppada sifatlarning qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi.

rim- us – mujskoy rod uchun

rim-a– jenskiy rod uchun

rim -um- sredniy rod uchun

Oddiy daraja	Orttirma daraja
Ruber, bra, brum – qizil	Ruberrimus, a, um – eng qizil
Acer, acris, acre – o'tkir	Acrimus, a, um – eng o'tkir

Orttirma darajali sifatlar 1-2 turlanishli otlar kabi turlanadi.



## Mustaqil ishlash uchun mashqlar

1. Sifatlardan orttirma darajali sifatlar hosil qiling.

Chuqur, keng, yumshoq, qora, sog', qizil, oddiy, kalta.

2. Nom. Gen. Abl. Sing. va plur da tarjima qiling.

Eng chuqur bo'shliq, eng oddiy bo'g'im, eng keng muskul, eng qizil o'zak.

3. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. *Musculus longissimus dorsi*. 2. *Musculus longissimus cervicis*. 3. *Musculus longissimus thoracis*. 4. *Musculus longissimus capitis*. 5. *Os durius*. 6. *Substantia compactior*. 7. *Ligamentum latius*. 7. *Auditus acrior*.

4. Sifatlarni barcha darajalarga qo'ying va otlar bilan moslashtiring.

Chuqur (bo'shliq, asab, vena), kalta (qovurg'a, muskul, boylam), oddiy (bo'g'im, oyoqcha), qizil (o'zak, orqa miya).

5. O'qing va tarjima qiling.

*Prima costa amnium costarum latissima est phalanges hallicis crassiores sunt quam phalanges pollicis. Costa prima brevior reliques ac latior. Durieres osse dentes sunt. Omnium ossium sceleti hominis femur longissimum et crassum est. Os sacrum sceleti feminae latius et brevius est quam viri. Periodus incubationis typhi abdominalis longior est priodo typhi recurrentis periodus incubationis typhi exanthematici longissima est.*

*omnium* - barchadan

*reliquis* - qolgan

*vir* - erkak

*recerrens* - qaytaladigan, qaytarma

*exanthematicus* - kuchli

## 20-§. Leksik minimum

### I- turlanishli otlar

*fossa*, ae, f - chuqur

*fovea*, ae, f - chuqurcha

*membrana*, ae, f - parda

*palma*, ae, f - kaft

*planta*, ae, f - oyoq kafti

*plica*, ae, f - burma

*medula*, ae, f - miya

*m. ossium* - miya suyagi

### II- turlanishli otlar

*atrium*, i n - yurak oldi

*bronchus*, i, n - bronx

*lobus*, i, m - bo'lak

*retinaculum*, i, n - to'rcha

thalamus, i, m -ko'ruv do'mbog'i      thymus, i, m -tolali bez  
carpus, i, m -kaft usti                      lumbus, i, m - bel  
metacarpus, i, m- qo'l kafti                nodulus, i, m - tuguncha

### I-guruh sifatlari

arteriosus, a, um - arteriyaga oid      oblongatus, a, um - uzunasiga  
pyloricus, a, um - me'daning chiqish qismiga oid  
sanguineus, a, um- qonga oid            spurious, a, um - yolg'on

### II- guruh sifatlari

cerebellaris, e - miyachaga oid            generalis, e -umumiy  
analisis, e - orqa chiqaruv teshigiga oid      biliaris, e - o'tga oid

**Nota bene!**

**Dulce et decorum est, pro patri, mori** - Vatan uchun jon bermoq,  
baxt va sharaf erur!

**Ad cogitandum et agentum homo natus est**- Inson fikrlash va  
harakat qilish uchun yaratilgan

## 6-DARS

### 21-§. I. Noto'g'ri darajali sifatlar

Quyidagi sifatlarning darajalari turli asosdan hosil qilinadi, shuning uchun bunday sifatlarni noto'g'ri darajali sifatlar deyiladi.

Oddiy daraja	Qiyosiy daraja	Orttirma daraja
bonus, a, um – yaxshi	melior, melius-optimus, yaxshiroq	optimus, a, um– eng yaxshi
maius, a, um -yomon	peior, peius-yomonroq	pessimus, a, um– eng yomon
magnus, a, um -katta	major, majus- kattaroq	maximus, a, um– eng katta
parvus, a, um- kichik	minor, minus –kichikroq	minimus, a, um– eng kichik

**Nota bene:**

Anatomiya iboralarida barcha qiyosiy darajalar **magnus, a, um** va **parvus, a, um** so'zlaridagi oddiy daraja ma'nosida qo'llaniladi.

**Musculus teres major** – katta yumaloq muskul

**Arteria palatina minor** – tanglayga tegishli kichik arteriya

**Musculus gluteus maximus, minimus** – katta, kichik dumba muskuli

### 22-§. II. Yetishmagan darajali sifatlar

Bir qancha sifatlarning oddiy darajasi yo'q. Bunday holatda qiyosiy daraja yetishmagan oddiy daraja kabi tarjima qilinadi.

Qiyosiy daraja	Orttirma daraja
Anterior, anterieus- oldingi	-
Posterior, posterius- orqadagi	Postremus, a, um– eng orqadagi
Superior, superius – yuqorigi	Supremus, a, um- eng yuqorigi
Inferior, inferius – pastki	Infimus, a, um - eng pastki

## Mustaqil ishlash uchun mashqlar

### 1. Uchala darajada tarjima qiling.

1. Yaxshi (*symptom, diagnost, odam*). 2. Yomon (*prognoz, dori, kasallik*). 3. Katta (*teshik, vena, muskul*). 4. Kichik (*shox, kanal, do'mboq*)

### 2. Nom. Gen. Abl. sing va plur ga qo'ying.

1. *Tuber ischiadicum majus*. 2. *Ductus sublingualis major*. 3. *Dosis maxima*. 4. *Facies articularis inferior*.

### 3. Nuqtalar o'rniga qo'shimchalarni qo'yib otlar bilan sifatlarini moslashtiriring va tarjima qiling.

*Musculus teris mai* ..... (min...)

*Canalis palatin* .... mai .... (min....)

*Cornu mai* ..... (min ...)

*Foramin palatin* ... mai ... (min. .)

*Ductus sublingual* .... mai ...

*Digitis minim* ...

*Musculus glute* .... maxim ... (minim ....)

*Processus articular* .... inferi...

*Foramen longitudinal* .... anteri ....

*Ganglion cervical* .... superi ...

*Musculus longitudinal*.... . superi .... (inferi...)

*Ligamentum longitudinal* .... . anteri ...

### 4. Nom, Gen, sing ga qo'yib tarjima qiling.

1. Orqa quloqqa oid muskul. 2. Oldingi bo'g'imga oid yuza. 3. Pastki bo'g'imga oid o'simta. 4. Katta va kichik shox. 5. Yuqori bo'yinga tegishli tugun. 6. Katta quymuchga oid do'mbog'i. 7. Eng yuqori burunga oid chig'anog'i. 8. Oldingi uzunasiga boylam. 9. Eng yuqori qovurg'alararo arteriya. 10. Oldingi tovonga oid yarasi.

### 5. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. *Venae cordis minimae*. 2. *Foramina venarum minimarum*. 3. *Ligamentum capitis fibulae anterius*. 4. *Tubercula anterior vertebrarum lumbalium*. 5. *Bursa subtendinea muscoli bicipitis femoris inferior*. 6. *Vaginae synovialis muscoli obliqui superioris*. 7. *Ramus communicans cum nervo laryngeo inferiore*.

### 6. Lotin tiliga tarjima qiling.

1. Yuqori toshsimon bo'shliqning egati. 2. Kichik chanoqning teshigi.

3. Katta do'mboqchani qirrasini. 4. Pastki qismning yuqorigi qirg'og'i. 5. Chanoq diafragmasining pastki fatsiyasi. 6. Yuqorigi qovoqning ko'taruvchi muskuli. 7. Meda osti bezining oldingi yuzasi. 8. Til osti suyagining katta shoxi. 9. O'ng o'pkaning yuqorigi bo'lagi. 10. Yondagi qorinchaning pastki shoxi. 11. Kallaning katta orqadagi to'g'ri muskul. 12. Chap qorinchaning orqadagi venasi.

### 7. Tarjima qiling.

*Circulus sanguinis major circulo sanguinis minore multo longior est sanguis venosus per venae cavae superiores et inferiores in atrium dextrum cordis infunditur. In facie pelvina ossis sacri foramina sacralia anterior in facia dorsali foramina sacralia posteriora sita sunt. Hepar est glandula corporis maxima in parte abdominis superiori sita. Omnium vasorum vasa capillaria minima et superior dividuntur. Trochanter major et minor in superior parte femoris sunt. Pulmones in cavo dextro et sinistro thoracis locatio, maiorem partem cavi sinistri occupant. Habitus aegroti post operationem optimus est. Diagnosis cholera simplex est, sed prognosis pessima.*

*Infunditur - qo'yilmoq occupant -shug'ullanmoq sed - ammo*

## 23-§. LEKSIK MINIMUM

colica, ae, f - qorinda bexosdan og'riq paydo bo'lishi  
coma, atis, n - xushsizlik holati  
eczema, atis, n - yuqmaydigan yallig'lanish kasalligi  
hernia, ae, f - churuk, churra  
icterus, i, m - sariq kasallik  
ileus, i, m - ichak tutulishi, ichak harakatlarining hajmi  
infarctus, us, m - qon bilan taminlanishi, to'xtashi natijasida o'lgan  
to'qima sohasi  
inflammatio, onis, f - yallig'lanish  
oedema, atis, n - shish  
paralysis, is, f - falaj (shol)  
paresis, is, f - parez (yengil chala falaj)  
pneumonia, ae, f - o'pka yallig'lanishi  
prolapsus, us, m - tushurish, yoqish  
spasmus, i, m - pay tortish, talvasa

varix, icis, m, f – venaga tegishli tugun, venaning kengayishi  
vilvulus, i, m – ichakning darvoza orqasi.

**Nota bene!**

**Salus populi- suprema lex** –Xalq farovonligi oliy qonun.

**Usus optimus magister est-** Tajriba eng yaxshi o'qituvchidir

## 7-DARS

### Anatomik soʻzlarning morfologik va sintaktik tuzilishi.

#### 24-§. Murakkab anatomik iboralarning tarjimasi.

Anatomik soʻzlar bir, ikki, koʻp soʻzlar birikmasidan iborat boʻlishi mumkin.

1. Bir soʻzli anatomik soʻz bitta otdan iborat:

**Vertebra** – umurtqa, **ligamentum** – bogʻlam, **ossa** – suyaklar

2. Ikki soʻzli anatomik soʻzlar ot va aniqlovchi (ot yoki sifat)dan iborat:

**Vertebra thoracica** – koʻkrak umurtqasi.

**Ligamentum latum** – keng bogʻlam.

3. Koʻp soʻzli anatomik soʻzlar ot va bir nechta aniqlovchilardan iborat:

**Ligamentum transversum profundum**- chuqur koʻndalang bogʻlam.

Aniqlovchi soʻz bir vaqtning oʻzida moslashmagan va moslashgan aniqlovchi koʻrinishida boʻlishi mumkin:

**Arteria transversa colli**- boʻyinning koʻndalang arteriyasi.

Bu terminda **transversa** moslashgan aniqlovchi, **colli** moslashmagan aniqlovchi hisoblanadi.

Anatomik iboralarda moslashgan aniqlovchi (sifat) aniqlanmish(ot) dan soʻng turadi.

**Arteria transversa colli** - yoki iboraning oxirida

**arteria cerebri media** - katta miyaning oʻrta arteriyasi.

Anatomik iboralarni rus tiliga bosh kelishikda turgan soʻzdan, soʻngra qaratqich kelishigidagi soʻzni tarjima qilinadi. Oʻzbek tiliga qaratqich kelishigida, soʻngra bosh kelishikda turgan soʻz tarjima qilinadi. Lotin tilida birinchi bosh kelishigidagi soʻz tarjima qilinadi.

Nom	Gen	Nom	Tarjima
septum	nasi	osseum	burunning suyakka tegishli toʻsigʻi
Nom	Nom	Gen	Tarjima
vagina	fibrosa	nervi	nervning tolali qini



## Mustaqil ishlash uchun mashqlar

### 1. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. *Lobulus glandulae thyroideae*. 2. *Sulcus nervi petrosi*. 3. *Musculus obliquus oculi*. 4. *Vena cerebri interna*. 5. *Nervus cutaneus brachii*. 6. *Bursa ischiadica musculi*. 7. *Plica mucosa nasi*. 8. *Nucleus narvi hypoglossi*. 9. *Sulcus venae cavae*. 10. *Arteria ligamenti uteri*.

### 2. Lotin tiliga tarjima qiling.

1. Bo'yinning ko'ndalang nervi. 2. Tilning ko'ndalang venasi. 3. Kurakning ko'ndalang boylami. 4. Orqaning uzun qismi. 5. Katta miyaning tashqi venasi. 6. Ko'ndalang nervning egati. 7. Nervning chuqur venasi. 8. Chap venaning burmasi. 9. Dumba muskulining xaltasi. 10. O'ng ko'zning nervi.

## 25-§. Murakkab anatomik iboralarni tarjima qilish:

1. Anatomik iboralarda har doim birinchi bo'lib ot bosh kelishikda turadi. Unga taalluqli sifat bitta guruhni tashkil qilib bosh kelishikda bo'ladi. Bosh kelishikdagi guruh iborada faqat bitta bo'lishi mumkin.

2. Ikkinchi joyida turgan ot qaratqich kelishigida bo'ladi.

3. Qaratqich kelishigidagi guruh bir nechta bo'lishi mumkin. Bu terminda nechta qaratqich kelishigida turgan otga bog'liqdir.

4. Murakkab anatomik iboralar quyidagi usullar asosida tarjima qilinadi:

a) lotin tiliga birinchi bosh kelishik guruhi, so'ngra qaratqich kelishik guruhi tarjima qilinadi.

b) rus tiliga ham xuddi shunday tartibda tarjima qilinadi.

c) o'zbek tiliga birinchi qaratqich kelishik guruhi so'ngra bosh kelishik guruhi tarjima qilinadi. Har bir guruhni oxiridan boshlab tarjima qilish kerak.

Nom	Nom	Gen	gen	Gen
5	4	3	2	1
ramus	profundus	Arteriae	transversae	colli
Bo'yinning	ko'ndalang	arteriyasining	chuqur	shoxi
plica	tunicae	Mucosae	vesicae	felleae
o't	pufagining	Shilliq	pardasining	burmasi

Murakkab anatomik iboralarni to'g'ri tarjima qilish uchun grammatik tahlil qilish kerak. Grammatik tahlil sxemasi har bir so'zning asosiy tuzilishini to'liq xarakteristikasini ko'rib chiqadi.

Ramus esophageus aortae thoracicae - Ko'krak aortasining qizilo'ngach shoxi

ramus, i, m II

aorta, ae f I

esophageus, a, um I-II

thoracicus, a, um I-II

## Mustaqil ishlash uchun mashqlar

### 1. Tarjima qiling, grammatik tahlil qiling.

1. *Plicae venae cavae sinistrae*. 2. *Vagina externa nervi optici*. 3. *Vena cerebri media profunda*. 4. *Fractura septi nasi*. 5. *Vena lobi medii*. 6. *Bursa ischiadica musculi glutei*. 7. *Vena cerebri interna*. 8. *Vena profunda linguae*. 9. *Bursa ischiadica musculi obturatorii interni*. 10. *Musculus transversus linguae*.

### 2. Lotin tiliga tarjima qiling.

1. Qalqonsimon bezning qiyshiq chizig'i. 2. Burunning suyak devorchasi. 3. O'ng ko'zning qiyshiq muskuli. 4. Chap oshqozonning chuqur venasi. 5. Ko'ndalang bo'shliqning egati. 6. Bo'yinning ko'ndalang nervi. 7. Qalqonsimon bezning boylami. 8. Boshning uzun muskuli. 9. Qorinning tashqi qiyshiq muskuli. 10. G'orsimon tananing devorchasi.

### 3. Tarjima qiling, moslashtiring va Nom, Gen, Abl -sing -da tuslang.

1. Ko'ndalang chambar ichak. 2. Tashqi qiyshiq muskul. 3. Chap oshqozon arteriyasi. 4. Uzun ko'ndalang boylam. 5. Tanglayning ko'ndalang choki.

### 4. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. *Ligamenta columnae vertebralis*. 2. *Articulationes membri superioris*. 3. *Simus venarum cavarum*. 4. *Plexus cavernosi concharum*. 5. *Musculi costarum longi*. 6. *Ossa digitorum pedis*. 7. *Sutura cranii*. 8. *Venae cerebri inferiores*. 9. *Ossa faciei, cranii, carpi, metacarpi, thoracis*. 10. *Regiones capitis, colli, thoracis, abdominis*.

### 5. O'qing, tarjima qiling.

#### De humero

*In humero collum anatomi cum humeri et collum chirurgi cum humeri videmus. Post collum anatomi cum duo tubercula sunt. Humerus trochleam*



### Qiyosiy darajadagi sifatlar:

anterior, ius	old	posterior, ius	orqa
inferior, ius	pastki	major, ius	katta
superior, ius	yuqori	minor, us	kichik

### Nota bene!

**Per scientiam ad salutem aegroti** - Ilm orqali kasalni sog'aytirish

**Amat victoriam curam** - G'alaba tirishqoqlikni yaxshi ko'radi

**Veni, vidi, vici** -Keldi, ko'rdi, yengdi

## 8-DARS

### 27-§. Predlog (Praepositio)

Predloglar ot yoki otlarni ikkinchi bir soʻz bilan bogʻlab ularning orasidagi munosabatlarni koʻrsatish uchun qoʻllaniladi. Har qaysi predlog faqat maʼlum kelishik bilan birga ishlatiladi. Predloglar oʻzlari bogʻlanib kelgan otlardan oldin alohida yoziladi.

#### 1. Chiqish kelishigida qoʻllaniladigan predloglar:

<b>cum</b> –bilan	cum digito – qoʻl bilan
<b>ex</b> - dan, da	ex tempore – kerak paytda
<b>pro</b> – uchun	pro infantibus – bola uchun
<b>sine</b> - siz	sine colore –rangsiz

#### Tushum kelishigida qoʻllaniladigan predloglar:

<b>ante</b> -oldida	ante operationem - operatsiya oldidan
<b>intra</b> - ichida	intra ventriculum - meʼda ichida
<b>ad</b> - uchun, gacha, da	ad aegrotam - kasal uchun
<b>contra</b> - qarshi	contra tussim- yoʻtalga qarshi
<b>per</b> - orqali	per rectum - toʻgʻri ichak orqali
<b>post</b> - keyin, soʻng	post partum- tuqqandan keyin

#### Tushum va chiqish kelishigida qoʻllaniladigan predloglar:

<b>in</b> -da, ga	in oculo - koʻzda
	in oculum –koʻzga
<b>sub</b> – ostki, ostida	sub linguam – til ostiga
	sub lingua- til ostida

### 28-§. I-II turlanishda otlarning suffikslari:

**cul-us, cul-a, cul-um, ol-us, ol-a, ol-um, ul-us, ul-a, ul-um** qoʻshimchalari otlarning kichraytiruvchi turini hosil qiladi:

tuber - doʻmboq	tuperculum- doʻmboqcha
ramus- shox	ramulus- shoxcha
bronchus- bronx	bronchulus- bronxcha

Kichraytiruvchi ma'noli otlar ham o'sha otning rodini qabul qiladi.

## 29-§. I-II turlanishdagi sifatlarni qo'shimchalari

**I. ace-us, a, um; e-us, a, um** suffikslari otlarning asosiga qo'shib, I-II turlanish sifatlarini hosil qilib, organlarga taalluqliligini bildiradi.

Oss-e –us, a, um –suyakka maxsus (os, ossis, n-suyak)

Membran-ace-us, a, um-pardali

**II. ic-us, a, um, in-us, a, um-** suffikslari otlar asosiga qo'shib I-II turlanish sifatlarini hosil qilib predmetga yoki joyga taalluqliligini bildiradi.

pancreatus-, a- um -oshqozon osti beziga tegishli

palatinus-, a, um -tanglayga tegishli

**III. os va lent-** suffikslari otlar asosiga qo'shib, sifatlarni hosil qilib nima ekanligini bildiradi.

call-os-us, a, um - qavariq

pur-u-lent-us, a, um - yiringli

## Mustaqil ishlash uchun mashqlar

### 1. Lotin tiliga tarjima qiling:

*Hujayradan, venadan, vrach uchun, burun bo'shlig'ida, nerv bilan, kalla bo'shlig'ida, kasal uchun, boylam ostida, boylamda, kallada, kurak ostida, ko'zdan, yelkada, do'mboq bilan, burundan, chap ko'zda, chap kurakda, o'ng kurak ostida.*

### 2. Kichraytiruvchi ma'noli otlarni hosil qiling va ularni tarjima qiling:

<i>fovea, ae, f- chuqurcha</i>	<i>caput, it is, n-bosh</i>
<i>fons, fontis- manba, buloq</i>	<i>malleus, i, m –bolg'a</i>
<i>fossa-ae, f-chuqur</i>	<i>ductus-, um, m-oqim</i>
<i>canalis, is, m- kanal</i>	<i>clavis, is, f-kalit</i>
<i>saccus, i, m–Xalta</i>	<i>lobus, i, m-bo'lak</i>
<i>vesica, ae, f-pufak</i>	<i>corpus, oris, n-tana</i>

### 3. Quyidagi otlarni sifatlarga aylantiring va tarjima qiling:

a)os suffiksi bilan

*squama, ae, f- tanga; membrana, ae, f- parda*



b) in suffiksi bilan

*canis, is, m, f - it, kuchuk; pelvis, is, f - chanoq; femina, ae, f - ayol*

v) *eus* suffiksi bilan

*cartilago, inis, f - tog'ay; larynx, ingis, m - hiqildoq; coccyx, gis, m - dum; amyllum, i, n - kraxmal; fel, fellis, n - o't.*

#### **4. Lotin tiliga tarjima qiling.**

*ko'ndalang (boshcha, qism, o'simta, boylam, qirra)*

*tanglayga tegishli (arteriya, bo'shliq, teshik, yuza)*

*tashqi (yo'l, yuza, arteriya, o'simta, do'mboq, nerv,*

*teshik) dumga tegishli (shox, muskul, umurtqa)*

*o'ng (bo'g'im, soha, kanal, yoy, tana)*

*chap (tizz, yo'l, teshik, vena)*

#### **5. Lotin tiliga tarjima qiling.**

1. *Qovurg'a boshining yuzasi.* 2. *Pastki jag'ning teshigi.* 3. *Kallaning suyagi.* 4. *Boshning muskuli.* 5. *Yuzaning suyagi.* 6. *Yelka suyagining boshchasi.* 7. *Tizzaning bo'g'imi.* 8. *Pastki jag'ning tanasi.* 9. *Bo'shliqning egati.* 10. *Tilning uchi.* 11. *Yuzaning venasi.* 12. *Suyakning yuzasi.*

#### **6. O'zbek tiliga tarjima qiling.**

1. *Fovea capitis femoris.* 2. *Caput pancreatis.* 3. *Incisura apicis cordis.* 4. *Ligamentum capitis femoris.* 5. *Pars corporis.* 6. *Articulatio pedis.* 7. *Cavum pulveris.* 8. *sutura crania.* 9. *Basis crania.* 10. *Apex partis corporis.* 11. *Apex radices dentis.* 12. *Os digiti pedis.*

#### **7. O'qing, moslashtirilishiga e'tibor bering.**

1. *Facies externa et interna.* 2. *Sulcus palatines minor.* 3. *Canalis opticus.* 4. *Femur dextrum et sinistrum.* 5. *Caput longum.* 6. *Articulatio dextra.* 7. *Tuber medium.* 8. *Corpus externum.* 9. *Foramen coccygeum.* 10. *Cornu coccygeum.* 11. *Genu dextrum.* 12. *Regio palatina.* 13. *Pars media.* 14. *Plexus fibrosis.* 15. *Arcus profundus.* 16. *Regio profunda.* 17. *Foramen profundum.* 18. *Corpus osseum.* 19. *Pars cardiaca.* 20. *Facies obliqua.* 21. *Processus zygomaticus.* 22. *Os longum et latum.*

#### **8. O'zbek tiliga tarjima qiling.**

1. *Articulationes manus.* 2. *Ossa digitorum manus.* 3. *Regiones manus.* 4. *Musculi levatores costarum.* 5. *Ossa capitis.* 6. *Foramina venarum.* 7. *Partes corporis humani.* 8. *Plicae tunicae mucosae.* 9. *Articulationes digitorum pedis.* 10. *Capita costarum.*



### 9. Tarjima qiling va moslashtiring.

*o'ng (ko'ndalang, chap, qiyshiq, tashqi) qism*

*chap (ko'ndalang, tashqi, qiyshiq) bo'shliq*

*tanglayga oid (ko'ndalang, qiyshiq) chok*

*chap (o'ng, qiyshiq, keng) boylam*

### 10. O'qing va tarjima qiling.

#### **RADIUS**

*Antebrachium ex ulna et radio constat. Ulna et radius longi sunt. In radio caput radio et capitulum humeri distinguimus. Forma capituli radii rotunda est. Capitulum radio de radio cetero collo radii parvo seperatur. In radio cristam interosseam acutam videmus.*

*constat – iborat bo'lishi sunt – hor distinguimus – biz farqlaymiz  
seperatur - taqsilamoq videmus – biz ko'rayapmiz*

## 30-§. Leksik minimum

### I- turlanishli otlar

ampulla, ae, f - ampulla, ichiga dori quyub og'zi payvantlangan naycha

apertura, ae, f - teshik      gingiva, ae, f - milk (tish milki)

celula, ae, f - hujayra      retina, ae, f - to'r

fibra, ae, f - tola      palpebra, ae, f - qovoq

papilla, ae, f - so'rg'ich

### II- turlanishli otlar

bulbus, i, m - olmacha, piyozcha      gyrus, i, m - qiyish, pushta

b. oculi - ko'z olmasi      nucleus, i, m - yadro

ramus, i, m - shox      spatium, i, n - to'siq

2. cillium, i, n - kiprik(mujgon)      supercillium, i, n- qosh

### I-guruh sifatlari

cavernosus, a, um -g'ovakli      oesophageus, a, um - qizilo'ngachga oid  
gastricus, a, um -me'daga oid      pelvinus, a, um - chanoqqa oid  
nutricius, a, um -oziqlantiruvchi      accessorius, a, um -qo'shimcha  
gluteus, a, um - dumbaga oid

## II- guruh sifatlari

- |   |                                   |
|---|-----------------------------------|
| 1. corticalis, e - po'stloqqa oid       | pectoralis, e - ko'krakga oid     |
| lumbalis, e - belga oid                 | pulmonalis, e - o'pkaga oid       |
| radialis, e - bilak suyagiga oid        | ulnaris, e, - tirsak suyagiga oid |
| spinalis, e - orqa o'simtaga oid        |                                   |
| 2. ciliaris, e - kiprikga oid           | labialis, e - labga oid           |
| papillaris, e - ko'krak so'rg'ichga oid |                                   |

### Nota bene!

**Nomo ornate locum, non homines locus.** – O'rin odamning husni emas, balki odam o'rinning husnidir.

**Pereculum in mora!** - Kechiktirilishi xavflidir!

## 9-DARS

### 31-§. Muhim lotincha-grekcha old qo'shimlarning ma'nolari

Oo'shimcha	Ma'nolari	Misollar
a. ab	dan. ga. ning, uzoq. yiroq	abductor-uzoqlashtiruvchi abscessus-chekinish, yara. chipqon
ad	yaqinlashtiruvchi (yaqinda, yonida)	adductor-yaqinlashtiruvchi adrenalis-buyrakka yaqin
anti	oldda. qarshida, oldinda. ilgarida	antibrachium-bilak antiuterinus-bachadon oldi
circum	tevaragida, atrofida	circumflexus-aylanma circumanalis-orqa teshik atrofida o'r-nashgan (joylashgan)
contra	qarshi, qarama- qarshisida	contralateralis-qarama-qarshi tomonda joylashgan
extra	dan. tashqari, vaziyatdan tashqari	extracordialis-yurakdan tashqari extrauterinus-bachadondan tashqari
in, im	ga. da. ichki, siz/ ichki harakatni inkor etish	injecto-emlamoq (tomir yoki teri ostiga dori yuborish) impressio-botma inpar-bir xil bo'lmagan inactivus- ish harakatsiz. serharakatsiz
sub	ostida. pastdan. past	subcutaneus-teri osti subelavius-o'mroy osti subacutus-qattiq(o'tkir) kasallik haqida
super supra	ustida ustiga	superciliaris-qosh ustidagi superficies-yuz. ust. bet supercutis-favqulotda, xafvli superspinalis-orqa o'sinta ustida
trans	orqali, orqa, boshqa tomon	transversus-ko'ngalang transurethralis-siydik chiqaruvchi yo'l orqali o'tkazish
infra	ostiga, tubiga ostida, tubida	infraorbitalis-ko'z ostida infracostalis-qovurg'a ostida
intra	orasida, o'rtasida, biror narsa oralig'idagi holat	interosseus-suyak oralig'i intervertebralis-umurtqa orasida
per	orqali. juda (umumiy tushunchani oshirish)	peracutus-juda o'tkir pertussis-ko'k yo'tal percutaneus-teri orqali hosil qilish
post	keyin, so'ng, orqasidan	postnatalis-tug'ulishdan so'ng postoperativus-operatsiyadan so'ng
prae	oldda. oldinda. old tomon	praecardialis-yurakka tegishli old tomon praecardium-yurakka tegishli qism
pro	oldidan	prominens-chiqib turuvchi

## Mustaqil ishlash uchun mashqlar

**1. Old qo'shimchalarni aniqlang va ularning ma'nolarini tushuntiring.**

*Suprarenalis, infiltratum, interarticularis, proruberantia, praeparatus, subclavius, submaxillaris, transformare, insolubilis, permanens, supercilium, infraspinatus, supscapularis, intertrchantericus, intramuscularis, intermuscularis, infraorbitalis.*

**2. Old qo'shimchalarning ma'nosini tanlang.**

... <i>costalis, e</i>	– qovug'a ostidagi
... <i>osseus, a, um</i>	– suyaklararo
... <i>mucosus, a, um</i>	– shilliq ostidagi
... <i>orbitalis, e</i>	– ko'z kosasi ustidagi
... <i>pharyngeus, a, um</i>	– halqum orasidagi
... <i>clavicularis, e</i>	– kurak ustidagi
... <i>muscularis, e</i>	– muskullar ichidagi
... <i>mandibularis, e</i>	– pastki jag' ostidagi
... <i>ganglionaris, e</i>	– tugun orqasidagi
... <i>ganglionaris, e</i>	– tugun oldida
... <i>ganglionaris, e</i>	– tugun orasidagi

## O'tilgan mavzularni takrorlash uchun mashqlar

**1. Iboralarni lotin tiliga tarjima qiling.**

1. Dum nervi. 2. Tanglayga maxsus egat. 3. Ko'krakning umurtqasi. 4. Yurakning kesmasi. 5. O'rta bo'lak. 6. Fibroz qini. 7. Suyak devorchasi. 8. O'ng va chap kurak. 9. Tashqi qiyshiq muskul. 10. Chap chuqur boylam. 11. Chap jigjar venasi.

**2. Lotin tiliga tarjima qiling va moslashtiring.**

1. Yanoqqa tegishli joyi (boshcha, qirg'oq, o'simta).  
2. Ko'ndalang boshcha (qism, boylam, qirra, o'simta).  
3. Tanglayga tegishli toshcha (bo'shliq, teshik, yuza).  
4. Tashqi arteriya (yuza, nerv, teshik).  
5. Dumga tegishli nervi (shox, arteriya).  
6. O'ng, chap ko'z.

**3. Lotin tiliga tarjima qiling.**

1. Qovurg'a boshining qirrasini (yuzasi, boylam, bo'g'im).  
2. Pastki jag'ning tanasi (teshik, yoy, bo'yincha).  
3. O'mrov suyagining sinishi (ko'krakning, qovurg'aning, umurtqaning, suyakning, son suyagining).  
4. Qizilo'ngachning raki (to'g'ri ichakning, bachadonning, chambar ichakning).  
5. Ko'zning kasali (bosh miyaning, katta miyaning, nervning, boshning, tizzaning).

**4. Lotin tiliga tarjima qiling.**

1. Kurakning (tizzaning) ko'ndalang boylami. 2. Bo'yinning (yuzaning) ko'ndalang venasi. 3. Ko'krak arteriyasining (ko'ndalang bo'shliqning) egati. 4. Katta miyaning yondagi egati. 5. Tizzaning pastki arteriyasi. 6. Burunning pastki, yuqorigi yoyi. 7. Ko'krakning pastki ko'ndalang boylami. 8. Tizzaning yondagi ko'ndalang boylami. 9. Qovurg'aning boshchasining bo'g'im yuzasi.

**5. Nom, Gen, Abl-singularis va pluralis da tuslang:**

1. Oculus dexter, sinister. 2. Ganglion acusticum. 3. Vena palatina externa. 4. Ramus profundus. 5. Margo zygomaticus. 6. Regio calcanea. 7. Caput longum.

**6. O'zbek tiliga tarjima qiling.**

1. Arteria circumflexa humeri. 2. Linea obliqua glandulae thyroideae. 3. Ramus calcaneus arteriae peroneae. 4. Plica tunicae mucosae vesicae felleae. 5. Bursa muscoli glutei. 6. Apex nasi. 7. Digitus pedis. 8. Planta pedis. 9. Os digiti pedis. 10. Forma cranii. 11. Fractura cranii. 12. Musculus longus femoris. 13. Ligamentum teres uteri. 14. Arteria ligamenti teretis uteri.

**7. O'qing, tarjima qiling.**

In osse ischii corpus, ramum inferiorem distinguimus. Rami ossis ischii angulum formant. Apex crassus anguli tuber ischiadicum nominatur os coxae est os compositum. Os ilium, os pubis et os ischii os coxae formant. Pars inferior brevis et crassa ossis ilium corpus ossis ilium nominatur. Pars superior lata et tenuis ossis ilium format. In margina superiore libero alae

ossis ilium crista crassa est. Os pubis corpus breve et crassum, ramum superiorem et ramum inferiorem distinguimus. Rami ossis ischii angulum format. Apex crassus anguli tuber ischiadicum nominatur.

format –vujudga kelishi, hosil qilish      nominatur- nomlamoq  
crassus – qo‘pol, yo‘g‘on                      liber – bo‘sh, erkin

### 32-§. Leksik minimum

#### Sifatlarning I-II-turlanishi II-qism


calcaneus, a, um –tovonga tegishli      grossus, a, um–yo‘g‘on, katta  
circumflexus, a, um –aylana      heroicus, a, um–kuchli ta’sir etuvchi  
felleus, a, um–o‘tga oid      gastricus, a, um –oshqozonga oid  
gluteus, a, um –dumbaga oid      felleus, a, um- o‘t (safro)ga tegishli  
hyoideus, a, um –til osti (suyakka)      hypoglossus, a, um - til osti (nerv)  
lacteus, a, um–sutsimon      mucosus, a, um – shilliqli  
petrosus, a, um –toshli      tympanicus, a, um – nog‘oraga tegishli  
peroneus, a, um –kichik boldir suyagiga tegishli

#### Nota bene!

**Tempus vulnera sanat** – Kasalni vaqt davolaydi.

**Medice cura te ipsum** – Shifokor o‘z kuchiga ishonсин.

## Apparatus respiratorius(i)



1. **Cavitas nasi**- burunning bo'shlig'i
2. **Naris, is, f**- burun teshigi
3. **Cavum oris**- og'izning bo'shlig'i
4. **Pharynx, yngis, m**- halqum
5. **Larynx, ngis, m**- hiqildoq, tomoq
6. **Trachea, ae, f**- kekirdak
7. **Bronchus, i, m**- bronx
8. **Bronchialis, e**- bronxga oid
9. **Diaphragma, atis, n**- ko'krak va qorin o'rtasidagi to'siq
10. **Costa, ae, f**- qovurg'a
11. **Pulmo, onis, m**- o'pka.



## 10-DARS

### 33-§. III-turlanish otlari haqida umumiy ma'lumot

III-turlanishga barcha uchchala roddagi qaysiki, qaratqich kelishik birlikda –is qo‘shimchasi bilan tugagan otlar kiradi. Bosh kelishik birlikda III-turlanishdagi otlar turli qo‘shimchalarga ega bo‘ladi. III-turlanishdagi otlar teng murakkab va tengmas murakkab bo‘ladi. Teng murakkab so‘zlar deb bosh va qaratqich kelishikda teng, bir xil bo‘g‘inga ega bo‘lgan so‘zlarga aytiladi.

Nom. sing **cos-ta nerv-us au-ris ge-nu**

Gen. sing **cos-tae ner-vi au-ris ge-nus**

Tengmas murakkab otlar qaratqich kelishik birlikda, bosh kelishik birlikdagi otlarga nisbatan bir bo‘g‘in ko‘p bo‘ladi

Nom. sing **mar-go ca-put ra-dix 2 bo‘g‘in**

Gen. sing **mar-gi-nis ca-pi-tis ra-di cis 3 bo‘g‘in**

3- turlanishda ko‘pincha otlarning asosi bosh kelishikning asosiga to‘g‘ri kelmaydi. III turlanishdagi otlarni asosini qaratqich kelishik birlikda –is qo‘shimchasini olib tashlash yo‘li bilan aniqlanadi.

Nom. sing	Gen. sing	asosi
phalanx	phalang is	phalang
caput	capit is	capit
articulatio	articulation is	articulation

Turlanishda so‘zlarning asosiga kelishik qo‘shimchalari qo‘shiladi.

Barcha III-turlanishli otlar 3 tipga bo‘linadi: undosh, unli, aralash tiplarga.

**Undosh tipga** o‘zagi bitta undosh bilan tugagan va teng bo‘g‘inga ega bo‘lmagan otlar kiradi. Masalan: pulmo, onis, m ” o‘pka”, caput, itis, n “bosh”

**Unli tipga** Nominativus singularis da **-e, -al, -ar** qo‘shimchalari bilan tugagan sredniy roddagi otlar kiradi. Masalan: animal, alis, n ” hayvon”, rete, is, n “to ‘r”

**Aralash tipga** unli va undosh tiplarga xos 2 gramma otlari kiradi:

a) Nominativus singularis da **-is** yoki **-es** qo‘shimchasini oluvchi teng bo‘g‘inli otlar, b) Asosi 2 undosh bilan tugagan teng bo‘g‘inga ega

bo‘lmagan otlar kiradi.

Masalan: a) auris, is, f “quloq”. b) cor, cordis, n “yurak”

### 34-§. Mujskoy roddagi

#### III turlanishdagi otlar.

Otlarning rodi bosh kelishikda birlikdagi qo‘shimchasi bilan aniqlanadi. Mujskoy roddagi otlar Nominativus singularis da quyidagi qo‘shimchalar bilan xarakterlanadi:

**-o, -or, -os, -er, -es, -ex.**

Nom	Gen	Misollar	Tarjima
-o	-inis	homo, hominis, m	odam
-o	-onis	pulmo, pulmonis, m	o‘pka
-or	-oris	flexor, flexoris, m	bukuvchi
-os	-oris	flos, floris, m	gul
-er	-eris	trochanter, trochanteris, m	ko‘st
-er	-ris	venter, ventris, m	qorin
-es	-etis	paries, parietis, m	devor
-es	-edis	pes, pedis, m	oyoq(tovon)
-ex	-icis	apex, apicis, m	cho‘qqi

**2 so‘z istisno tarzda jenskiy rodga mansubdir.**

gaster, gastris, f - oshqozon  
 mater, matris, f - miya pardasi  
 pia mater - yumshoq miya pardasi  
 dura mater - qattiq miya pardasi

**Quyidagi so‘zlar istisno tarzda sredniy roddagi kiradi:**

cor, cordis, n - yurak                      os, ossis, n - suyak  
 os, oris, n - og‘iz                      piper, piperis, n - murch  
 tuber, tuberis, n - do‘mboq

### Turlanish namunasi

sing	plur
Nom liquor	liquor-es
Gen liquor-is	liquor-um
Dat liquor-i	liquor-ibus
Acc liquor-em	liquor-es
Abl liquor-e	liquor-ibus

### Mustaqil ishlash uchun mashqlar

#### 1. Quyidagi otlarning negizini toping.

*flos, floris, m; pes, pedis, m; iecur, oris, n; sanguis, inis, m; venter, ventris, m; cortex, icis, m; os, ossis, n; cartilago, inis, f; dens, dentis, m; cor, cordis, n; foramen, inis, n;*

2. Quyidagi otarning qaratqich kelishikda hosil qiling va asosini aniqlang.

*extensor, pollex, stapes, sapo, carbo, depressor, hallex, levator, sphincter, abductor, adductor, margo, vertex, index, tendo, masseter, mos, rubor, calor, dolor, herpes.*

#### 3. Otlar bilan sifatlarni moslashtiring va tarjima qiling.

- |                       |                                    |
|-----------------------|------------------------------------|
| 1. homo san...        | 9. pulmo dext. . et sinist...      |
| 2. cor san...         | 10. dur... et pi... mater          |
| 3. gaster san...      | 11. paries membranace... extern. . |
| 4. os palatin...      | 12. pes sinist... et dext...       |
| 5. tuber ischiadic... | 13. cortex sicc...                 |
| 6. homo aegrot...     | 14. piper nigr...                  |
| 7. cor aegrot...      | 15. flos alb...                    |
| 8. gaster aegrot...   | 16. os temporal...                 |
|                       | 17. tumor malign... bening...      |

#### 4. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. *Musculus depressor anguli oris.* 2. *Musculus levator scapulae.* 3. *Musculus depressor flexor pollicis.* 4. *Vagina fibrosa digiti pedis.* 5. *Musculi levatores costarum longi.* 6. *Incisura cardiaca pulmonis dextri.* 7. *Musculus extensor digitorum.* 8. *Vena labi medii pulmonis dextri.* 9. *Vagina tendinis musculi extensoris.* 10. *Pollicis longi.* 11. *Vagina tendinum musculi extensoris digitorum pedis.* 12. *Vena cordis parva*

#### 5. Tarjima qiling va moslashtiring, tuslang.

1. *Sog'lom odam.* 2. *Pardali devor.* 3. *O'ng o'pka.* 4. *O'ng oyoq panjasi.* 5. *Bukuvchi muskul.* 6. *Uzun suyak.* 7. *Katta og'iz.* 8. *Kasal oshqozon*

#### 6. Lotin tiliga tarjima qiling.

1. *Yurak uchi kesmasi.* 2. *O'ng o'pkaning uchi.* 3. *Barmoqlarning bukuvchi muskuli.* 4. *Og'iz bo'shlig'ining shilliq pardasi.* 5. *Barmoqning chuqur bukuvchi muskuli.* 6. *Me'daning devoiri, me'daning devorida.* 7. *Qalqonsimon bezning ko'taruvchi muskuli.* 8. *O'ng o'pka, o'ng o'pkada.* 9. *Chap oyoq, chap oyoqda.* 10. *Uzun suyak, uzun suyakda.* 11. *Yurak va o'pkalarning kasalliklari.*

#### 7. Lotin tiliga tarjima qiling.

1. *O'ng va chap oyoq panjasi.* 2. *O'ng va chap do'mboq.* 3. *Sog'lom oshqozon.* 4. *Kasal yurak.* 5. *Katta va kichik muskul.* 6. *Sog'lom odam.* 7. *Kasal o'pka.* 8. *Tanglay suyagi.* 9. *Qattiq tanglay pardasi.* 10. *Quymich do'mbog'i.*

**Note bene!** - tarjimada "miya pardasi" sifati iborada birinchi bo'lib qo'yiladi:

*pia mater* – yumshoq miya pardasi

*dura mater* – qattiq miya pardasi

#### 8. O'qing va tarjim qiling.

*Maxilla os par est. Maxillae corpora et quattuor processibus constat. Corpus maxillae sinum maxillarem habet. Sinus maxillaris forman pyramidis cum apice habet. In regione apicis parietes sinus maxillaris crassi sunt, parietes ceteri sinus tenues sunt. Sinus maxillaris foramen latum seu hiatum maxillarem habet.*

*Crassus, a, um* – yo'qon *Tenuis, e* - yupqa

*Quattuor* - to'rt *Ceteri* - boshqa

### 35-§. LEKSIK MINIMUM

Quyidagi mushaklarni va ularni funksiyalarini esda saqlang:

m. *abductor* (oris, m)-uzoqlashtiruvchi muskul

m. *adductor* (oris, m)-yaqinlashtiruvchi muskul


m. *depressor* (oris, m)-pastga tushuvchi muskul

- m. extensor (oris, m)-yozuvchi muskul
- m. flexor (oris, m)-bukuvchi muskul
- m. levator (oris, m)-ko'taruvchi muskul
- m. masseter (eris, m) - chaynov muskul
- m. rotator (oris, m) - aylantiruvchi muskul
- m. sphincter (oris, m)- qisuvchi muskul
- m. constrictor (oris, m) – qisuvchi muskul

**Nota bene!**

**Amor tussique non celatur** – Sevgi va yoʻtalni yashirib boʻlmaydi  
**Si vera narretis, non opus sit testibus** – Agar haqiqatni gapirsangiz,  
guvohga hojat yoʻq

## M u s c u l i



1. M. temporalis- chakka muskuli.
2. M. orbicularis oculi-ko'zning aylana m
3. M. zygomaticus major- yanoq katta m.
4. M. masseter- chaynov m.
5. M. depressor anguli oris-og'iz burchagining tushyruvchi m.
6. M. sternocleidomastoideus-to'sh-o'mrov-so'rg'chsimon m.
7. M. trapezius- trapetsiyasimon m.
8. M. deltoideus- deltasimon m.
9. M. pectoralis major- ko'krakning katta m.
10. Mm. serratus anterior-oldingi tishli m.
11. M. biceps brachii- yelkaning ikki boshli m.
12. M. brachioradialis-yelka-bilak m.
13. M. flexor carpi – kaftni bukuvchi m.
14. M. extensor brevis- kalta yozuvch m.
15. M. gastrocnemius-boldir muskuli.
16. M. soleus- kambalasimon muskul.
17. M. tibialis anterior-katta boldir suyagini oldingi m.
18. M. vastus medialis-ichki serbar m.
19. M. gracilis –nozik m.
20. M. sartorius-mashinachilar m.
21. M. pectineus –taroqsimon m.
22. M. obliquus externus abdominis-qorinning tashqi qiyshiq m
23. M. rectus abdominis- qorning to'g'ri m.
24. M. flexor carpi ulnaris-kaftni tirsak tomon bukuvchi
25. M. extensor carpi ulnaris-panjani yozuvchi tirsak
26. M. mentalis – iyak m.
27. Venter frontalis- peshona qorinchasi.

## 11-DARS

### 36-§. III –turlanishdagi jenskiy roddagi otlar

Nominativus singularis da jenskiy roddagi otlar quyidagi qo‘shimchalar bilan harakterlanadi: -do, -go, -io, -s, -X

Nom	Gen	Misollar	Tarjima
-as	-atis	tuberositas, tuberositatis, f	g‘adir- budir
-s	-tis	pars, partis, f	qism
-is	-idis	iris, iridis, f	oq yoy parda
-is	-is	auris, auris, f	quloq
-es	-is	fomes, fomis, f	ochlik
-x	-cis	radix, radices, f	ildiz
-x	-gis	phalanx, phalangis, f	barmoq suyagi
-do	-inis	longitudo, longitudinis, f	uzunlik
-go	-inis	cartilago, cartilaginis, f	tog‘ay
-io	-onis	articulatio, articulationis, f	bo‘g‘im

#### Istisno tarzida mujskoy rodga taalluqli so‘zlar:

canalis, is, m- kanal

dens, dentis, m- tish

margo, marginis, m- qirg‘oq, chet

pulvis, pulveris, m- kukun

sanguis, sanguinis, m- qon

tendo, tendinis, m- pay

#### Istisno tarzda sredniy rodga ikkita so‘z taalluqli:

pancreas, pancreatis, n- me`da osti bezi

vas, vasis, n- tomir



## Mustaqil ishlash uchun mashqlar

### 1. Quyidagi otlarni qaratqich kelshikda tuslang va asosini toping.

*Extremitas, articulatio, cervix, larynx, mucilago, pix, iniectio, pelvis, curatio, auscultatio, palpato, dilacatio, commotio, dosis, basis, narcosis, paralysis, pharynx, cavitas, meninx, frons, mens.*

### 2. Sifatlarni otlar bilan moslashtiring va tarjima qiling.

- |                            |                              |
|----------------------------|------------------------------|
| 1. articulatio composit... | 9. sanguis venos...          |
| 2. auris medi...           | 10. canalis optic...         |
| 3. dens san..., aegrot...  | 11. margo zygomatic ...      |
| 4. cartilage thyroide...   | 12. pancreas accesori...     |
| 5. radix long...           | 13. tuberositas deltoide.... |
| 6. vas lymphatic...        | 14. dens incisuv...          |
| 7. tendo calcane...        | 15. regio olfactori...       |
| 8. pars petros...          | 16. phalanx medi...          |

### 3. Nom, Gen, Abl, sing da moslashtiring va tuslang.

- |                       |                              |
|-----------------------|------------------------------|
| 1. Qalqonsimon tog'ay | 4. Katta g'adir- budir       |
| 2. Murakkab bo'g'im   | 5. Yuqori qirg'oq            |
| 3. Uzun ildiz         | 6. Oldingi tovonga oid soha. |

### 4. Lotin tiliga tarjima qiling.

1. Hiqildoqning tog'ayi. 2. Yurakning kanali. 3. Quloqning chig'anog'i. 4. Oyoq panjasining bo'g'imi. 5. Oyoq harmog'ining suyagi. 6. Tish ildizining uchi. 7. Tosh qismining uchi. 8. Quloq pardasi devoir. 9. Tishning (me'daning, quloqning) kasalligi. 10. O'pkani(tish ildizining, me'da osti bezini) davolash. 11. Bo'g'imning boylami. 12. Tishning bo'shlig'i. 13. Falanganing tanasi. 14. O'pkaning qirg'og'i. 15. Tish ildizining kanali.

### 5. O'qing, grammatik tahlil qiling va tarjima qiling.

1. Regio brachii posterior. 2. Regio olfactoria tunicae mucosae nasi. 3. Bursa subcutanea tuberositatis tibiae. 4. Phalanges digitorum pedis. 5. Apex radices dentis. 6. Linea obliqua cartilaginis thyroideae. 7. Basis cranii externa. 8. Apex partis petrosae. 9. Pars septi nasi.



### 6. Lotin tiliga tarjima qiling va moslashtiring.

1. Tangasimon qism. 2. Limfaga tegishli tomir. 3. Qo'shimcha tog'oq. 4. Qo'shimcha me'da osti bezi. 5. O'ng bo'g'im. 6. Kasal quloq. 7. So'g'tish. 8. Vena qoni. 9. Ko'rish kanali. 10. Deltasimon g'adir- budir. 11. Keng (suyaklar orasidagi qirg'oq) yonoq. 12. Yonoq sohasi. 13. Tovon pay (tovon payi). 14. Tashqi asos.

### 7. O'qing, tarjima qiling.

*In articulatione genus ligamentum transversum genus et ligamentum cruciata genus sunt. Bursa articularis articulationis genus recessum format. In altere posteriore bursae articularis genus articulationis ligamentum popliteum obliquum et ligamentum popliteum obliquum et ligamentum popliteum arcuatum sunt.*

*Recessus- chuqurlik*

*Alter -ikkinchi*

*Cruciatus- hajsimon*

### 37-§. Leksik minimum

#### III- turlanishdagi jenskiy roddagi otlar

basis, is, f- asos	cavitas, atis, f-bo'shliq
curatio, ionis, f- davolash	cutis, is, f- teri
diagnosis, is, f- tashxis, aniqlash	dosis, is, f- miqdor
iniectio, onis, f- ukol qilish, quymoq	larynx, ngis, f (grek)- hiqildoq
pertus, is, f- ko'k yo'tal	pharynx, ngis, f(grek)- halqum, yutqich
prognosis, is, f- oldindan bilish	regio, onis, f- soha
transfusio, onis, f- quyish	tuberculosis, is, f- sil kasalligi
tussis, is, f- yo'tal	
cervix, icis, f- bo'yin(bachadon, siydik pufagi, tish)	
necrosis, is, f- tirik organizmning bir qismining o'limi	

#### Nota bene!

**Pigritia-mater vitiorum** - Dangasalik kamchiliklarning onasi

**Dum spiro, spera** - So'ngi nafasimgacha umid qilaman

## 12-DARS

### 38-§. III-turlanishdagi sredniy roddagi otlar

Nominativus singularis da III- turlanishdagi sredniy roddagi otlar quyidagi qo'shimchalar bilan ifodalanadi: -al, -ar-en, -ma, -ur, -us, -ut.

Nom	Gen	Misollar	Tarjima
-en	-inis	foramen,foraminis,n	teshik
-ur	-oris	femur,femoris,n	son suyagi
-ur	-uris	guttur, gutturis,n	kekirdak,tamoq
-us	-oris	corpus,corporis,n	tana
-us	-eris	ulcus,ulceris,n	yara
-us	-uris	crus,cruris,n	oyoqcha
-ut	-it is	caput,capitis,n	bosh
-e	-is	rete,retis,n	to'r
-ma	-atis	diaphragma,diaphragmatis,n	diafragma,(ko'krak-qorin o'rtasidagi parda)
-al	-alis	animal,animalis,n	hayvon
-ar	-aris	calcar,calcaris,n	pix

#### Istisno tariqasida mujskiy rodga taalluqli otlar:

aden, adenis, m- bez	lien, lienis, m- taloq
ren, renis, m- buyrak	splen, splenis, m- taloq

#### Mustaqil ishlash uchun mashqlar

1. Quyidagi otlarni qaratqich kelishigiga qo'ying va asoslarni aniglang:

*Abdomen, iecur, sulfur, pectus, ulcus, pus, secale, trauma, rhizoma, occiput, zygoma, exemplar, gramma, semen, vulnus, asthma, viscus, symp-toma, tempus, calcar, genu.*

#### 2. Otlar bilan sifatlarni moslashtiring va tarjima qiling.

1. Os intermedi... 2. Pars intermedi... 3. Foramen nutrice... 4. Canalis nutrice... 5. Rete venos... 6. Ren dext... 7. Crus membrace... 8. Paries membrace... 9. Femur dextr... 10. Corpus adipos... 11. Capsula adipos... 12. Lien accessori... 13. Cartilago accessori... 14. Caput long... 15. Foramen

rotund... 16. *Corpus cavernos*....

### 3. Lotin tiliga tarjima qiling, moslashtiring va tuslang.

1. Oziqlantiruvchi teshik. 2. Pardali oyoqcha. 3. O'ng son suyagi. 4. Qo'shimcha taloq. 5. Katta va kichik boshcha. 6. G'orsimon tana.

### 4. Lotin tiliga tarjima qiling.

1. Me`da osti bezi. 2. Buyrakning yog`li kapsulasi. 3. Boshning uzun muskuli. 4. Qorining to`g`ri muskuli. 5. Son suyagining chuqur arteriyasi. 6. Jigarning o`ng bo`lagi. 7. Kallaning teshigi. 8. Son suyagining bo`yinchasi. 9. Oyoqchanning fassiyasi. 10. Jigarning qirg`og`i. 11. Qorinning bo`shlig`i. 12. Medaning yarasi. 13. Qorining oq chizig`i.

### 5. Otlar bilan sifatlarni moslashtiring va tarjima qiling.

1. Tanglay teshigi. 2. O`ng oyoqcha. 3. Nerv sistemasi. 4. Chap yon. 5. Venaga tegishli to`r. 6. Yo`g`li tana. 7. Aylanma tana. 8. Qo'shimcha taloq. 9. Qavariq tana.

### 6. O`qing grammatik tahlil qiling va tarjima qiling.

1. *Musculus obliquus externus abdominis*. 2. *Septum corporum cavernosorum*. 3. *Nervus interosseus cruris*. 4. *Foramen coecum linguae*. 5. *Sulcus cruris cerebri*. 6. *Fascia diaphragmatis pelvis*. 7. *Sulcus venae cavae hepaticae*. 8. *Ligamentum capitis femoris*. 9. *Caput pancreatis*. 10. *Fovea capitis femoris*. 11. *Incisura apices cordis*. 12. *Partes corporis humani*. 13. *Corpus adiposum*. 14. *Musculus longus capitis*. 15. *Nuclei corporis geniculatae lateralis*. 16. *Facies articularis capitis fibulae*.

### 7. O`qing va tarjima qiling.

*In cranio duae species ossium sunt: ossa paria et ossa imparia. Example causa, os parietale os paar est, os frontale impar est. Os frontali in parte anteriore situm est. Os frontale squama frontali, partibus orbitaliibus et parte nasali constat. Squama ossis faciem frontaleum et faciem temporalem habet. Linea temporalis faciem frontaem a facie temporalem separate. In squama ossis prontalis arcus supercilliaries et processus zugomaticus sunt. In facie inferiore partis orbitalis processum lacrimalem. In porte nasali sinus frontalis est. Septum sinum frontaliium sinum frontalem dividi.*

*Species- ko 'rinish, tus, rang*  
*Sutum est -joylanish*

*Exempli causa -misol*  
*Dividit- bo 'lish, taqsimlash*

### 39-§. Leksik minimum

#### III-turlanishdagi sredniy roddagi otlar:

abdomen, inis, n –qorin  
chiasma, atis, n –kesishma  
latus, eris, n –yon  
oedema, atis, n –shish  
symptoma, atis, n- belgi  
ulcus, eris, n –yara  
vulnus, eris, n – jarohat

asthma, atis, n – bo'g'ma kasallik  
hepar, atis, n – jigar  
occiput, itis, n –ensa  
pectus, oris, n – ko'krak  
trauma, atis, n- shikast  
viscus, eris, n –ichki organlar

#### **Nota bene!**

**Mens sana in corpore sano** – Sog'lom tanda sog' aql.

**Finis coronat opus** - Ishning oxiri xayrli bo'lsin.

## 13-DARS

### 40-§. I. III- turlanish otlarining xususiyatlari

1. III- turlanishdagi otlarning negizlari 2 yoki 3 undosh bilan tugasa bunday soʻzlar I xususiyatga ega.

Gen. pl- **ium**                      **Dens, dentis m-** tish  
G. pl. **dentium**

2. III- turlanishgagi **-is, -is** ga tugaydigan, teng boʻgʻinli lotin soʻzlari I xususiyatga ega.

**Canalis is, m** – kanal                      G. pl. **canalium**

3. III- turlanishdagi **-e, -al, -ar** qoʻshimchalari bilan tugaydigan lotin soʻzlari 3 xususiyatga ega.

**Animal, alis n** – hayvon                      **Rete, -is, n-** toʻr  
Abl. s – **i**    Abl. s **animali**                      Abl. s **reti**  
N. pl **-ia**    N pl. **animalia**                      N. pl **retia**  
G. pl **-ium**    G. pl. **animalium**                      G. pl **retium**

4. III -turlanishdagi **-is** bilan tugaydigan grekcha soʻzlar 2 xususiyatga ega.

**Dosis, is, f-** doza    1) Abl. s. – **I dosi**  
2) G. pl. **-ium dosium**

5. **Vas, vasis, n-** tomir soʻzi 2 xususiyatga ega.

Singularis III tur.                      Pluaris II- tur  
N. s **vas**                                      N. pl **vasa**    II tur  
G. s **vasis** III- tur                      G. pl **vasorum** II tur  
Abl. s **vase**                                      Abl. Pl. **vasis**

6. **Zygoma, matis, n-** yanoq soʻzi 1 xususiyatga ega.

Abl. pl. **-is**                      **zygomatis**

### 41-§. II. II-gruppa sifatlarining xususiyatlari

**II-gruppa sifatleri** III- turlanishli sifatlar boʻlib, ular 3 ta kichik guruhga boʻlinadi. Bosh kelishikda ular quyidagi qoʻshimchalarga boʻlinadi:

1. II-gruppa I-guruh sifatlariga uch qoʻshimchali sifatlar mansub boʻlib, ular mujskoy rod**-er**, jenskiy rod**-is**, sredniy rod**-e**

qoʻshimchasiga ega.

**acer, acris, acre** – oʻtkir.

**saluber, salubris, salubre** – sogʻlom.

2. II-gruppa II-guruh sifatlariga ikki qoʻshimchali sifatlar mansub boʻlib, ular mujskoy va jenskiy rod**-is**, sredniy rod**-e** qoʻshimchasiga ega.

**brevis, breve** – kalta

**articularis, articulare** – boʻgʻimga tegishli

**communis, e** – umumiy

3. II-gruppa III-guruh sifatlariga barcha uchchala rod uchun bir xil qoʻshimchali sifatlar mansub boʻlib, ular bosh kelishikda **-s, -x** yoki **-r** qoʻshimchalariga ega boʻladi. Bu xil sifatlarning asosini aniqlash uchun ularni qaratqich kelishigida qoʻyish kerak.

**biceps, bicipitis** – ikki boshli

**simplex, simplicis-** oddiy

**teres, teretis** – yumaloq

4. Otlarning asoslariga **-al, -ar** suffiksini hamda **-is, -e** sifat yasovchi qoʻshimchalarni qoʻshish yoʻli bilan koʻpgina III – turlanishdagi sifatlar hosil qilinadi.

**cervicalis, e** – boʻyinga tegishli

**muscularis, e** – mushakka tegishli

**occipitalis, e-** ensaga tegishli

### Mustaqil ishlash uchun mashqlar

#### 1. Quyidagi otlardan sifat hosil qiling.

**dens, dentis, m** - tish

**vertebra, ae, f** - umurtqa

**cranium, ii, n** - kalla suyagi

**pectus, oris, n** -koʻkrak

**palma, aris, m** -kaft

**fibula, ae, f** -kichik boldir suyagi

**tibia, ae, f** -katta boldir suyagi

**planta, ae, f** -oyoq tagi

**nasus, i, m** -burun

**costa, ae, f** -qovurgʻa

**dorsum, i, m** -orqa

**femor, oris, n** -son suyagi

**pulmo, onis, m** -oʻpka

**cerebrum, i, n** -katta miya.



## 2. Sifatlarni tarjima qiling va nervus oti bilan moslashtiring.

Kallaga tegishli, son suyagiga tegishli, yuzaga tegishli, pastki jag'ga tegishli, bilakka tegishli, orqa miyaga tegishli, tirsakka tegishli, bo'yninga tegishli, g'altaksimon.

## 3. Tarjima qiling.

1. Bo'lak (yelkaga tegishli, ichakka tegishli, to'g'ri ichakka tegishli, barmoqqa tegishli, orqaga tegishli) arteriyasi. 2. Bronxiyal (o'n ikki barmoqli ichakka tegishli, bodomsimon bezga tegishli, ko'krakka tegishli, qorinchali, qorinchalararo) shox. 3. To'g'ri ichak (bo'laklari orasidagi, mushak, bronxial, burun) venasi.

## 4. Tarjima qiling va otlar bilan sifatlarni moslashtiring.

1. Yon dumg'aza arteriyasi. 2. Dumg'aza teshigi. 3. Yon shoxi. 4. Bo'g'im muskuli. 5. Ensa qirg'og'i. 6. Ensa suyagi. 7. Burun shoxi. 8. Burun chig'anog'i. 9. Burun bo'shlig'i. 10. Ko'taruvchi, tushuruvchi muskul. 11. Ikki boshli, uch boshli muskul. 12. Ko'taruvchi bo'yin arteriyasi. 13. Tushuruvchi chamber ichak. 14. Qo'shuvchi shox.

## 5. Sifatlarni otlar bilan moslashtiring.

- |                          |               |
|--------------------------|---------------|
| 1. Cartilgo nasal...     | accessori.... |
| 2. Vena lateral.....     | sinistr.....  |
| 3. Foramen sacrali....   | pelvin.....   |
| 4. Ligamentum triangular | dextr...      |
| 5. Crista sacral....     | lateral...    |
| 6. Aorta pulmonal...     | sinister...   |
| 7. Sulcus temporal...    | transvers...  |
| 8. Rete venos...         | plantar...    |
| 9. Ganglion lumphatic... | articular...  |
| 10. Sutura palantin...   | transvers...  |
| 11. Musculus palmar...   | long...       |
| 12. Crus membranace...   | commun...     |
| 13. Arteria gastric...   | brev...       |
| 14. Tuber frontal...     | min...        |
| 15. Articulatio simpl... | brev...       |
| 16. Ganglion cervical... | impar         |

## 6. Lotin tiliga tarjima qiling va moslashtiring:

1. Burunga tegishli (devorcha, qism, chig'anoq)
2. Ensaga tegishli (muskul, suyak, teshik)

3. Quloqqa tegishli (boylam, muskul, tog'ay)

4. Ko'z yoshiga tegishli (bez, suyak)

7. Tarjima qiling, moslashtiring va Nom, Gen, Abl, sing va plur da

tuslang:

1. Oddiy oyoqcha. 2. Bo'yiga tegishli tugun. 3. Oddiy bo'g'im. 4. Qo'shuvchi shox. 5. Burunga tegishli tog'ay. 6. Peshonaga tegishli qirg'oq. 7. Umumiy pardali oyoqcha. 8. Tanglayga tegishli kanal. 9. Kichik yumaloq muskul.

## 8. Lotin tiliga tarjima qiling:

1. Kichik boldir suyagi arteriyasining teriga maxsus shoxi. 2. O'rta chakkaga tegishli arteriyaning egati. 3. Ensa suyagining yon qismi. 4. Katta boldir suyagi muskulining payi. 5. Tanglay suyagining gorizontall plastinkasi. 6. Peshonaga tegishli nervning o'rta shoxi. 7. Bo'yin umurtqasining do'mboqchasi. 8. Jigarning yumaloq, boylami. 9. Ko'z yoshi bezining chuquri. 10. Miya pardasining vena to'ri. 11. Katta miyaning yondagi egati. 12. Boshning to'g'ri yondagi muskuli. 13. Bel arteriyasining egati. 14. Katta miya oyoqchasining o'rta egati. 15. Son nervning muskulga tegishli shoxi. 16. Peshona suyagining g'alvirsimon teshigi.

## 9. Anatomik birikmalarini tarjima qiling.

**uzoqlashtirish** - abduco, onis, f  
**uzoqlashiruvchi muskul** - abductor, oris, m  
**uyqu tomiri** - carotis, idis, f  
**umumiy** - communis, e  
**umurtqa** - vertebra, ae, f  
**umurtqaga old** - vertebralis, e  
**umumiy o't** - choledochus, a, um

**uyma** - incisura, ae, f  
**ustida** - supra  
**ustki** - superficies, ei, f  
**usul** - methodus, i, f  
**ustun** - columna, ae, f  
**uxlatuvchi** - somnifer, fera, ferum  
**uch** - apex, icis, m  
**uch (tepa)** - vertex, icis, m  
**uchga maxsus** - apicalis, e  
**uch** - tres, tria  
**uchinchi** - tertius, a, um  
**uch boshli** - triceps, tricipitis  
**uch bo'lakli** - tripartitus, a, um  
**uch yoshli** - triennis, e  
**uch marotoba** - ter  
**uch marta katta** - triplex, icis  
**uch rangli** - tricolor, oris  
**uch shoxli (asabga oid)** - trigeminus, a, um  
**uch qopqoqli** - tricuspidalis, e  
**uqalab surtish** - trictio, onis, f  
**uchi, oxiri** - extremitas, atis, f  
**uzun** - longus, a, um

## Vv

**va** - et  
**vabo** - cholera, ae, f  
**vatan** - patria, ae, f  
**vazifa** - functio, onis, f  
**voyaga yetganlik** - verilitas, atis, f  
**vena** - vena, ae, f  
**venaga maxsus** - venosus, a, um

## Xx

**xalta** - bursa, ae, f  
**xavfli** - malignus, a, um

**xavfli o'sma** - cancer, cri, m, carcinoma, atis, n  
**xotinga maxsus** - femininus, a, um  
**xanjarsimon** - xiphoides, a, um  
**xalq** - populus, i, m  
**xalqaro** - internationalis, e

## Yy

**yallig'lanish** - inflammatio, onis, f  
**yangi tug'ilgan bola** - neonatus, i, m  
**yara** - ulcus, eris, n  
**yaracha** - aphthae, arum, f  
**yarim** - semi  
**yaproq** - folium, ii, n  
**yaqinlashtiruvchi** - adducens, entis  
**yaqinlashtirish** - adductio, onis, f  
**yaqinlashtiruvchi (m)** - adductor, oris, m  
**yoy** - arcus, us, m  
**yoyilgan** - diffusus, a, um  
**yolq'on** - spurius, a, um  
**yomon** - malus, a, um  
**yon** - latus, eris, n  
**yonboshga oid** - lateralis, e  
**yonboshga maxsus** - iliacus, a, um  
**yoriq (darz)** - fissura, ae, f  
**yonbosh ichak** - ileum, i, n  
**yonbosh va ko'richakka maxsus** - ileocaecalis, e  
**yonbosh suyagi** - ileum, i, n  
**yonida** - par, para  
**yopiq** - obturatus, a, um  
**yog'** - adeps, ad ipis, m, f  
**yoq'li** - adiposus, a, um  
**yuzga oid** - facialis, e  
**yuz** - facies, ei, f

**yumaloq** – teres, teretis  
**yumaloq** - rotundus, a, um  
**yumshoq** - mollis, e  
**yumshoq miya pardasi** - pia mater  
**yumshoq laqqa go'sht** - pulpa, ae, f  
**yupqa** - tenuis, e  
**yurak** - cor, cordis, n  
**yurakka maxsus** - cardiacus, a, um  
**yurakning kengayishi** - diastole, es, f  
**yurak muskulini torayishi** - systole, es, f  
**yurak oldi** - atrium, i, n  
**yurak oldi xaltasi** - pericardium, ii, n  
**yurak oldi xaltasming yallig'lanishi** - pericarditis, idis, f  
**yurak yoni xaltasiga tegishli** - pericardiacus, a, um  
**yurakni ichki pardasi** - endocardium, i, n  
**yurak qon yo'lini to'suvchi qism, qopqoq** - valva, ae; f  
**yurakning yuqori bo'limi, qorinchasi** - antiventricularis, e  
**yuqorigi** - superior, ius  
**yuqori jag'** - maxilla, ae, f  
**yuqori jag'ga maxsus** - maxillaris, e  
**yo'g'on ichak** - crassum, i, n  
**yo'l, yo'lak** - meatus, us, m  
**yo'tal** – tussis, is, f  
**yigirma** - viginti  
**yiring** - pus, puris, n  
**yiringli yara** - abscessus, us, m  
**yiringli yallig'lanish** - phlegmone, es, f

**yiringli yallig'lanishga oid** ,  
phlegmonasus, a, um

## Zz

**zarba** - ictus, us, m  
**zararli** - noxicus, a, um  
**zaharli** - toxicus, a, um  
**ziddi zahar** - antidotum, i, n  
**zich** - compactus, a, um  
**zuluk** - hirudo, inis, f

## O ' o'

**o'zak, (yadro)** - nucleus, i, m  
**o'zimga qo'llash uchun** - pro se  
**o'lat** - pestis, is, f  
**o'lik** - cadaver, eris, n  
**o'likni ochib ko'rish** - autopsia, ae, f  
**o'mrov suyagi** - clavicula, ae, f  
**o'mrov suyagi ostida** - subclavius, a, um  
**o'mrov osti** - infraclavicularis, e  
**o'mrov suyagiga maxsus** - clavicularis, e  
**o'mrov ko'krakka maxsus** - clavipectoralis, e  
**o'n bir** - undecim  
**o'ng** - dexder, tra, trum  
**o'ninchi** - decimus, a, um  
**o'n** - decern  
**o'n ikkinchi** - duodecimus, a, um  
**o'n ikki barmoqli ichak** - duodenum, i, n  
**o'n ikki barmoqli ichakka maxsus** - duodenalis, e  
**o'pka** - pulmo, onis, m

**o'pkaga oid** - pulmonalis, e  
**o'pkani o'ragan parda** - pleura,  
ae, f  
**o'pka uchi** - apex pulmonis  
**o'pkani yallig'lanishi** - pneumonia,  
ae, f  
**o'rtadagi** - medius, a, um  
**o'rinli** - localis, e  
**o'rtaliq** - perineum, i, n  
**o'simta** - processus, us, m  
**o'siq** - apendix, icis, f  
**o'tkir** - acer, acris, acre  
**o't** - fel, fellis, n; chole, es, f  
**o'tga maxsus** - felleus, a, um  
**o'tli, o't moddasiga boy** - biliosus,  
a, um  
**o't(bot)** - herba, ae, f  
**o'q tomir** - arteria, ae, f

### G'g'

**g'ayritabiy kattalashish** - hyper-  
trophia, ae, f  
**g'ayritabiy holat** - anomalia, ae, f  
**g'adir-budir** - tuberositas, atis, f  
**g'adir-budir** - asper, aspera, aspe-  
rum  
**g'alvir** - ethmos, (gr)  
**g'alvirsimon** - ethmoidalis, e  
**g'alvirsimon yuqori jag'ga max-  
sus** - ethmoideomaxillaris, e  
**g'or (kovak)** - caverna, ae, f  
**g'orga maxsus** - cavernosus, a, um

### Sh sh

**shaklsiz** - amorphos(gr) amorphus,  
a, um

**shilliq modda** - mucilago, inis, f  
**shilliqsimon** - mucosus, a, um  
**shish** - oedema, atis, m  
**shoxsimon** - corneus, a, um  
**shox** - ramus, i, m; cornu, us, n  
**shoxcha** - ramulus, i, m

### Ch ch

**chakka** - tempus, oris, m  
**chakkaga oid** - temporalis, e  
**chambar ichak** - colon, i, n  
**chandir (pay)** - tendo, inis, m  
**chanoq** - pelvis, is, f  
**chanoq suyagi** - coxa, ae, f  
**chap** - sinister, tra, trum  
**chambar ichakka oid** - colicus,  
a, um  
**chaynov mushagi** - masseter, eris,  
m  
**chechak kasalligi** - variola, ae, f  
**chet, chegara** - margo, inis, m  
**chigal** - plexus, us, m  
**chigalga oid** - ganglionaris, e  
**chig'anoq** - cochlea, ae, f (concha,  
ae, f)  
**chiziq** - linea, ae, f  
**chirish** - caries, ei, f  
**chiroyli** - formosus, a, um  
**chok** - raphe, es, f (yum-  
shoq to'qimalarda); sutura, ae,  
f(suyaklarda)  
**chuqur** - profundus, a, um  
**chuqurcha** - fovea, ae, f  
**chuqur** - fossa, ae, f  
**cho'zinchoq** - oblangatus, a, um

## II-QISM

### Klinik iboralar.

#### 1-DARS.

##### 1-§. Klinik iboralarning tuzulishi.

Tibbiy iboralar qadimgi grek va lotin tillari asosida qurilgan. Grek va lotin soʻzlarning oʻzagi yasama va murakkab iboralarni hosil qilish uchun asos boʻladi. Bir nechta murakkab lotincha yoki qadimgi grekcha oʻzak bir soʻzda unli yoki unsiz bogʻlanib oʻzbekcha bir nechta soʻzlar bilan tarjima qilinadi.

Endocrinologia- uchta grekcha birikmadan iborat boʻlib oʻzbek tilida bir nechta soʻzni talab qiladi. "Ichki sekretsiya bezlarning tuzulishi va funksiyasi, bu bezlar funksiyasining buzilishiga aloqador kasalliklar toʻgʻrisidagi fan". Meditsina iboralarini kelib chiqishi nuqtai -nazaridan 3 ta turga boʻlish mumkin: birinchi (boshlangʻich), yasama va murakkab.

Birinchi -ibora grekcha yoki lotincha soʻz oʻzining dastlabki maʼnosini saqlaydi yoki boshqa maʼnoga oʻtganligini ifodalaydi.

Gaster – meʼda (oshqozon)

Atrium – yurak boʻlmasi

Cor – yurak

Yasama ibora – bu lotincha yoki grekcha oʻzak old qoʻshimcha -suffikslar bilan yangi maʼnoli soʻzni hosil qiladi.

Parotitis -- quloq atrofidagi bezning yalligʻlanishi

Panplegia – butun tananing falaj boʻlishi

Murakkab ibora bir nechta grekcha yoki lotincha oʻzaklardan tashkil topib maʼlum bir tushunchani anglatadigan soʻz (Tʻ) dir:

Odontopoësis – tishning tuzulishi

Odontoma – tish oʻsmasi (shish)

Odontodynia – tish ogʻrigʻi

Odontorrhagia – tishni sugʻurib olgandan soʻng qon ketishi

Odontologia – tish kasalliklari va ularni davolash usullarini oʻrganadigan fan.

Klinik iboralarni oʻzlashtirish uchun:

Birinchi - lotincha anatomik soʻzlarni grekcha sinonimlarini;

Ikkinchidan - oxirgi ibora elementini (TƏ) organ va to'qimalarning patologik o'zgarishini bildirib, tekshirish yoki davolashni diagnostik usullarini amaliy qo'shilishini;

Uchinchidan - affiks (old qo'shimcha va suffiks)lar qo'shimcha axborot berishini bilish kerak;

Klinik iboralar grekcha va lotincha so'zlarning qo'shilishidan kelib chiqqan:

Ulcus - yara

Tuberculosis - sil

Cancer - (lotincha so'z) xavfli o'sma

Ectomia – olib tashlash (kesib tashlash)

Phthisis - sil (grekcha so'z)

Grekcha iboralar ayrim holatlarda o'zidek transkripsiya qilinadi:

Chronicus - xronik (surunkali)

Erythema- eritema (qizillik), (qon oqib kelishi tufayli teri ayrim qismining qizarishi).

## 2-§. Klinik iboralarning bir qancha qoidalarini rasmiylashtirish.

1. Grekcha elementlarni tez-tez (ularning oldida lotinchani) qo'llash.

Misol uchun: Hysteroptosis - bachadonni o'z joyidan pastga tushishi

Pelviptosis - chanoqning tushishi

2. Murakkab so'zlarda birinchi o'rinda organ nomi, so'z oxirida

qaysiki hodisa

yoki tibbiy faoliyatni ko'rsatadigan patologik TE.

Bodomsimon bezni olib tashlash -tonsillectomia

Limfa oqimni to'xtab qolishi -lympostasis

3. Murakkab so'zlar ikki yoki uchta o'zakning birikuv yo'li bilan hosil bo'ladi. Murakkab so'zlar grekcha o'zagi asosan unli bilan O yoki u siz agar TE boshi unli bilan tugasa yoki unli bilan boshlansa birikadi:

My – algia, py – uria, ur – aemia, broncho-ectasia

4. Oxirgi element ia klinik terminlarda patologik protsesni yoki mexanik harakatni anglatadi:

nephropathia – buyrakda umumiy patalogik protses (buyrakdagi kasallik)



arteriorrhaphia – arteriyani qo‘shib tikish

Grek tilidan kelib chiqqan so‘zlarda urg‘u ia ga, lotin tilidan kelib chiqqan so‘zlarda urg‘u o‘zakka tushadi:

cardiographia – ammo; cardiologia

gastrotomia – ammo; anatomia

### 3-§ Klinik iboralarda eng ko‘p qo‘llaniladigan suffikslar

1. -itis– suffiksi yallig‘lanish harakteridagi kasalliklarni bildiradi.

Nephritis – buyrakning yallig‘lanishi (nefrit)

Gastritis – oshqozon shilliq pardasini yallig‘lanishi (gastrit)

Agar organ tashqi parda bilan qoplangan bo‘lsa unda klinik terminga peri -, agar organ ichki parda bilan qoplangan bo‘lsa, unda endo -, agar to‘qima organ atrofida bo‘lsa, para - old qo‘shimchalari qo‘shiladi.

Masalan:

Perimetritis – bachadon seroz pardasining yallig‘lanishi (perimetrit).

Endometritis – bachadon shilliq pardasining yallig‘lanishi (endometrit)

Parametritis – bachadon yonidagi kletchatkaning yallig‘lanishi (parametrit)

2. -oma – suffiksi to‘qima nomlari asosiga qo‘shilib, shish manosini, qaysiki shu to‘qimadan kelib chiqishini bildiradi.

Misol:

Lipoma – lipoma, yog‘ to‘qimasidan rivojlanadigan xavfsiz o‘sma

Myoma – mioma, mushak to‘qimasidan tashkil topgan xafsiz o‘sma

Oma – suffiksi shish bilan bog‘liq bo‘lmagan bir qancha kasalliklarda qo‘laniladi:

Glaucoma – ko‘z kasalligi, ko‘z ichki haroratini ko‘tarilishini harakterlaydi.

3. Suffiks – ema turli harakterdagi kasalliklar nomlarida uchraydi:

Erythema – qon oqib kelishi tufayli terining ayrim qismlarining qizarishi

Empyema – yiringni toshishi bilan bo‘shliqning yallig‘lanishi (tananing biron bo‘shlig‘iga yiring yig‘ilishi)

4. -osis –suffiksi yallig‘lanmaganlik harakteridagi kasalliklarni

organizmning o'zgarish qobiliyatini yoki normadan yuqoriligi bilan bog'liq ekanligini bildiradi.

Misol uchun.

Leucocytosis – qonda hujayralar (leykositlarning) ko'payishi

Acidosis – qon va to'qimalarda ishqorlarning ko'payishi

5. -iasis – suffiksi uzoq muddat yallig'lanmagan kasalliklarni bildiradi.

Nephrolithiasis – buyrak toshi kasalligi (nefrolitiazis)

Elephantiasis - limfaning dimlanib (qovurilgan JO'JAGA o'xshash) qolishi bilan bog'liq bo'lgan to'qimalarning patologik o'sishi va rivojlanishi (elefantiaz)

6. -ismus – suffiksi yallig'lanmaslik harakteridagi kasalliklarni nima bilandir zaharlanishini bildiradi:

Botulismus – ovqat bilan zaxarlanish (botula – kolbasa, qazi)

Somnambulismus – uyquda yurush (lunatizm)

## Mustaqil ishlash uchun mashqlar

### 1. Quyidagi organlarning yallig'lanishiga xos iboralar tuzing:

*Hepar, atis, n; gaster, gastris, f; glossa, ae, f; stoma, atis, n; larynx, ngis, f; pharynx, ngis m; appendix, icis, f; pancreas, atis, n; encephalon, i, n; colon, i, n; tonsilla, ae, f; bronchus, i, m; gingiva, ae, f; pilula, ae, f;*

### 2. A) quyidagi asosdan shishga mos iboralar tuzing:

*Sarx, sarc – go'sht Haema, haemato – qon Carcinus, carcin – rak, o'sma Fibra, fibr – tola Chondros, chondr – tog'ay*

B) Quyidagi to'qimalarning shishini ayting:  
*moyli, suyakli, nervli, muskulli, bezli, tomirli.*

3. Iboralarni lotin tilida yozing va ularning ma'nosini tushuntirib bering:

*Leykoz, akrotsianoz, mikoz, eritrositoz.*

4. Tarjima qiling va moslashtiring:

*Jigarga tegishli koma, ko'ndalang sinish, cho'ziq sinish, diffuzli apsess(ho'ppoz), parhezli koma, surunkali yara, son grijasi(churra), o'tkir tishli kasalligi, o'tib bo'lmaydigan 12 barmoqli ichak, jigar og'rig'i, o'pka bo'lagi, tirik organizmda to'qimalar o'lishi, o'tkir kasallik, bronx, mushaklarning tonusining oshib ketishi, yuqumli sariq kasallik, bosh miyaning (chala) falaj (yoki qisman yo'qolishi) bo'lishi.*

### LEKSIK MINIMUM.

*atresia, ae, -tug'ma-yo'qlik*

*congenitus, a, um- tug'ma*

*focialis, e – quyishga oid*

*hydrops, opis, m – suvga oid(istisqo)*

*incisio, onis, f – kesma, kesib olingan joy*

*infarctus, us, m – qon bilan ta'minlangan to'xtatish natijasida o'tkir*  
*to'qimalar sohasi (infarkt)*

*insuffisientia, ae, f – yetishmaslik*

*insultus, us, m – bosh miya qon aylanishning bexosdan kelib chiqadigan*  
*o'tkir buzilishi (insult)*

*lupus, i, m – volchanka (terining qizarish kasaligi)*

*plastica, ae, -- to'qimani qayta tiklash, plastik operatsiya*

*ruptura, ae, f – yorilish, uzilish*

*stictura, ae, f -- pay*

*transplantatio, onis, f – qayta qo'yish*

### 4-§. Eng ko'p qo'llaniladigan grekcha old qo'shimchalar

Old qo'shimchalar	Ma'nosi	Misollar
1.a-, an-	inkor ma'nosini (siz)	<b>alalia-</b> bolalarda til chiqmasligi yoki nutqning chegaralanganligi. <b>anomalìa-</b> tuzilishning tug'ma nuqsoni.
2.anti-	qarshi	<b>anticoagulanta-</b> qonning ivish sistemasi aktivligini susaytiradigan moddalar.
3.dys-	buzulish (funktsiyani buzulishi)	<b>dysthymia-</b> kayfiyatning buzilishi, parishonlik
4.endo-	ichki, ichki parda	<b>endoscopia-</b> kovak organlarni optik yoritadigan asboblardan bilan tekshirish usuli.
5.epi-	da, ustida, ustki	<b>epididymus-</b> moyak ortig'i.

6. hyper-	ustida, ustidan (normadan yuqori bo'lishlikni ko'rsatadi)	<b>hyperergia</b> - organizm yoki organ reaktivligining normadan ortiq zo'rayib ketishi.
7. hypo-	ostida, past (normadan past)	<b>hyposmia</b> - hidni yaxshi payqamaslik, hid bilish qobiliyatining pasayishi.
8. meta-	ko'chirish, bir holatdan boshqa holatga almashtirish.	<b>metamorphosis</b> - shakl yoki tuzilish (mas; hujayralar, to'qimalar) ning o'zgarishi, qayta hosil bo'lishi, tuzilishi.
9. para-	1. atrofida; organ, to'qimani ikkala tomonidan o'rab olish; 2. o'xshashlik	<b>paraplegia</b> ikkala oyoq ikkala qo'lning falaj bo'lib qolishi
10. peri-	atrofida, atrofda	<b>pericranitis</b> -kalla suyagi usti pardasining yallig'lanishi
11. syn- sym-	bilan, birgalikda(harakatning birlashishi, hamkorligi)	<b>syngamia</b> -urug'lanish, yetilgan erkak va ayol jinsiy hujayralarining qo'shilishi va zigota hosil bo'lishi.

## Mustaqil ishlash uchun mashqlar

1. *Old qo'shimchalarni ujrating, ularni ma'nosini tushuntiring, iboralarni ma'nosini ko'rsating: anaemia, apathia, dysphagia, aphagia, hyperaemia, amnesia, dysergia, hyperergia, sympathia, synchondrosis, hyperthermia, syndesmosis, hypothermia, hyperkinesia, pericardium, pericarditis, epicondylus, antitoxicus, endocarditis, parametrium, metastasis.*

### 2. Nuqtalar o'rniga kerakli so'z, yasovchi elementlarni qo'ying:

1. Organ to'qimalarida kislorod moddasini pasayishi .... *oxia*
2. To'qimali elementlarning ko'payib hosil bo'lishi .... *cystosis*
3. Organ yoki tana qismida odatdagi holatdan chetga chiqishi ...*plasia*
4. Tomirlarda gidrostatik haroratning tushushi .... *tonia*
5. Bachadon pufagiga siydikning kelmasligi ... *uria*
6. Muskulni kesish ... *tomia*
7. Muskul tonusining kuchsizlanishi ... *tonia*

### **3. Tarjima qiling.**

*Yurak kasalligi, yurak yetishmasligi, yurak mushagi infarkti, bosh miya insulti, jigarni ko'chirish, yiringni kesib tashlash, suyakni plastik operatsiya qilish, me'dani 12 barmoqli ichakka o'tish joyini kesib tashlash, ko'krak qafasini kesish, bel sohasidagi kasallikni aniqlash yoki davolashda to'qimalarni kovak igna bilan teshish, bolalikda miyani falaj bo'lishi.*

**Nota bene!**

**Diagnosis bona- curatio bona** – Yaxshi tashxis yaxshi davodir.

**Ne noceas si iuvare non potes** – Agar yordam berolmasang aldama.



## 2-DARS.

### 5-§. Organ va tana qismlarining grekcha, lotincha, o'zbekcha dubletlari

Rasm	Grekcha ma'nosi	Lotincha ma'nosi	O'zbekcha ma'nosi
	kephalo-, cephalo- -cephalia	caput, itis, n	bosh
	somato-, -soma. (soma, atos)	corpus, oris, n	tana
	osteo- (osteon)	os, osis n	suyak
	acro-, -aci (akron)	membrum, i n	qo'l-oyoq cho'qqisi (uchi)
	stetho-, (stethos)	pectus, oris n thorax, acis m	ko'krak (ko'krak qafasi)
	spondylo- (spondylos)	vertebra, ae f	umurtqa
	cardio-, -cardium (kardia)	cor, cordis n	yurak
	arthro-, (arthron)	articulatio, onis f	bo'g'im
	stomato-, (stoma, stomatos)	os, oris n	og'iz
	glossa-, -glossia (glossa)	lingua, ae, f	til
	rhino- (rhis, rhinos)	nasus, i, m	burun

	odonto- -odontia (odus, odontos)	dens, dentis, m	tish tish
	cheiro-, chiro-, (cheiro, chiro)	manus, us, f	qo'l qo'l
	poda-, -podia (pus, podos)	pes, pedis m	oyoq oyoq
	gon-(gonu) (gon-, gonu)	enu, us, n	tizza tizza
	r(h)achi-, (rhachis) (rhachis)	columna- vertebralis	umurtqa pog'onasi umurtqa pog'onasi
	chelio-, -cheilia (cheilos) (cheilos)	labium, i, n	lab lab
	urano (uranos) (uranos)	palatum, i, n (durum)	tanglay tanglay
	ul-, ulo- (ulon) (ulon)	gingiva, ae, f	milk milk
	melo-(melon) (melo-, melon)	bucca, ae, f	lunch lunch
	gnatho-, -gnathia (gnathos) (gnathos)	maxilla, ae, f	yuqori jag' yuqori jag'
	genia (genus, genyos) (genus, genyos)	mandibula, ae f	pastki jag' pastki jag'
	genia(genieion) (genia, genieion)	mentum, i, n	iyak iyak

### 3-DARS.

#### 6-§. Fan, usul, tekshirish, davolash, kasallik ma'nolarini anglatuvchi grekcha so'zlar(suffikslar)

Grekcha AE	Ma'nosi
-logia (logos-so'z, nutq, tushunish, fan)	fan, fanning bir bo'limi
-logo (-logia)	nutqqa tegishli
-scopia (skopeo - ko'rish, tekshirish)	maxsus asbob bilan tekshirish (ko'rish)
-metria, -metr-(metreo - o'lchash)	o'lchash
-graphia (grapho - chizish, yozish)	organni rentgen jarayoni
-gramma (gramma - tasvir)	rentgen surati (natijasi)
-therapia (therapeia - davolash)	davolash (xirurgik yo'lsiz)
noso- (nosos- kasallik)	kasallik
patho-, -pathia (pathos - his qilish, sezish, kasallik)	kasallik, his qilish
alg-, -algia, -algisia (algo- og'riq, kuchayib boruvchi og'riq)	og'riq
-odynia (odyne)	og'riq
-agra	og'riq

#### 1. Quyidagi so'zlarni sinonimini ko'rsating:

- |                    |                         |
|--------------------|-------------------------|
| 1. vesica urinaria | 6. articulatio, onis, f |
| 2. vesica fellea   | 7. cartilago, inis, f   |
| 3. fel, fillis, n  | 8. lingua, ae, f        |
| 4. glandula, ae, f | 9. genu, us, n          |
| 5. cor, cordis, n  | 10. vas, vasis, n       |

#### 2. "glossalgia", "glossodynia" so'zlarini tarjimasini toping:

1. tilni plastik operatsiya qilish 2. til muskulini falaj bo'lishi 3. tilning yallig'lanishi 4. tildagi og'riq. 5. tilning sezishini pasayishi 6. tilning kasallanishi

#### 3. Iboralarni lotinchaga yozing, termin elementlarni ma'nosini ko'rsating:

1. artropatiya (markaziy nerv sistemasi har xil bo'limlari shikastlanganida paydo bo'ladigan ikkilamchi dektrofik bo'g'im kasalligi).

2. Osteologiya (suyak haqidagi fan).

3. Elektrokardiografiya (yurak ishlab turganida paydo bo'ladigan elektrohodisalarini qayd qilish yo'li bilan yurak holatini aniqlash).

4. ostalgiya (suyak og'rig'i).

5. artrozis (bo'g'im kasalligi).

6. xondroma (tog'aydagi xavfsiz o'sma).

#### **4. Iboralarning ma'nosini tushuntiring:**

1. Cardiologia, 2. Cardiopathia, 3. Arthritis, 4. Arthralgia, 5. Arthro-dynia, 6. Arthropathia, 7. Arthrosis, 8. Endocardium, 9. Endocarditis, 10. Osteoarthritis, 11. Synarthrosis, 12. Gonagra, 13. Cardiologus, 14. Acroalgia, 15. Stomatologia, 16. Cardiographia, 17. Vasoconstrictio, 17. Brachialgia, 18. Logopathia, 19. Spondylographia, 20. Pancreatodynia, 21. Nosologia, 22. Hormonotherapia, 23. Periosteum, 24. Osteogenus, 25. Thyroglossus, 26. Thyreopathicus, 27. Podalgia, 28. Macropodia, 29. Acheiria, 30. Chiroscopia, 31. Apodia, 32. B rachiocephalicus, 33. Chirospasmus, 34. Ileocecalis, 35. Ileocolicus, 36. Thyreogenus.

#### **5. Tarjima qiling:**

1. Cheilodynia, 2. Ulodynia, 3. Gnatodynia, 4. Genioglossus, 5. Geniohyoideus, 6. Meloplastica, 7. Gnathoplastica, 8. Agenia, 9. Uranographia, 10. Gnathoscopia, 12. Cheilospasmus, 13. Uranoptosis, 14. Syncheilia, 15. Melophatia.

#### **Nota bene!**

**Qui bene diagnoscit, bene curat**- Kim tashqizni to'g'ri qo'yolsa, o'sha yaxshi davolay oladi.









**Tempus vulnera sanat** – Kasalni vaqt davolaydi.

## 4-DARS.

### 7-§. Organ va to'qimalarning grekcha, lotincha, o'zbekcha dubletlari.

Rasm	Grekcha ma'nosi	Lotincha ma'nosi	O'zbekcha ma'nosi
	splanchno- (splanchna pl.)	viscera pl	ichki a'zolar
	gastro-, -gastria (gaster, gastros)	ventriculus, i, m	me'da, oshqozon
	Entero- (enteron; entera pl)	intestinum, i, n intestina pl intestinum tenue	ichak, ingichka ichak
	laparo- (lapare)	abdomen, inis, n venter, ntris m	qorin
	prosto- (proktos)	anus, i, m  rectum, n	orqa chiqaruv teshigi to'g'ri ichak
	pneumo-, pneumono- (pneumon)	pulmo, onis, m	o'pka
	nepbro- (nephros)	ren, renis m	buyrak
	spleno- (splen)	lien, enis m	taloq
	pyelo- (pyelos)	pelvis renalis	buyrak jomchasi
	cysto-	vesica, ae f vesica urinaria	pufak siydik pufagi



	cholecysto-	vesica fellea seu v. biliaris	o't putagi
	choleodocho- (chole - doche)	ductus choleodochus	umumiy o't oqimi
	metro-, -metra, - metrium(metra) hystero-	uterus, i, m	bachadon
	omphalo (omphalos)	umbilicus, i, m	kindik
	typhlo (typhlon)	c(a)ecum, i, n	ko'r ichak
	cholangio- (angeion-tomir)	ductus biliferi	o't oqimi
	dacryocysto (dakrion+ yosh(ko'z)+kystis)	saccus lacrimalis	ko'z yoshi qopchasi
	colpo- (colpos)	vagina, ae f	qin
	oophoro- (oophoron)	ovarium, i n	tuxumdon
	oo- (oon)	ovum, i, n	tuxum
	salpingo- (salpinx)	tuba uterine	bachadon nayi
	trachelo- (trachelos)	cervix, icis f (uteri)	bachadon bo'yinchasi
	orchi-, orchidi, - orchidia, -orchia	testis, is m	moyak

## 5-DARS.

### 8-§. Organ va to'qimalarning patologik o'zgarishlarini, terpevtik hamda xirurgik usullarini ifodalovchi grekcha TE lar.

#### Mustaqil ishlash uchun mashqlar

Grekcha	O'zbekcha
A. iatria, -iater (iatreia; iatros)	davolash haqidagi fan, davolovchi vrach
-ectasia, -ectasis (ektasis)	kengayish
-ptosis (ptosis – tushish )	pasayish, tushish
steno-, stenosis (stenos tor, stenosis torayish)	tor, torayish
Sclero-, sclerosis (skleros qattiq); sklerosis (zichlash)	qattiqlash, zichlashish
-malacia (malakos yumshoq; malakia yumshash)	yumshab ketish
-lysis, -lyt (lysis parchalanish, xalos qilish, uzish)	1.parchalanish, yemirilish 2. organi xirurgik yo'l bilan chandiqdan xalos qilish
-plastica (plastike tabiiy yopishtirish, tiklash)	nafas operatsiyasi, qayta tiklash
-tomia (tome kesish, ochish)	kesib organi ochish
tomo- (tomos qatlash, lavha)	qatlam, kesma
-ectomy (ektome kesib olib tashlash)	olib tashlash
-stomia (stoma, stomatos, teshik ochish)	sun'iy teshik ochish
-pexia (pexis mustahkamlash)	biriktirish, mustahkamlash
-r (h) aphia (rhaphe chok )	tikish, chok qo'yish
B. –schisis (rpeч. parchalash)	organni parchalanishi
-rhexis (rpeч.yorilish)	organni yorilishi
-desis (desis bog'lanish, mustahkamlanish)	xirurgik operatsiya jarayonida organ holatini mustahkamlash
-eurysis (eurys keng)	kengaytirish usuli
-eurynter (euryno kengaytiruvchi)	kengaytiruvchi asbob
-clasia (klasis buzish)	organ va tana qismlarini xirurgik yo'l bilan buzish
-centesis (kentesis igna sanchish)	igna sanchish
-privus (лат. organ bilan bog'liq)	organni olib tashlash bilan bog'liq

### **1. Quyidagi ma'nolar bilan iboralar tuzing.**

1. Ichki azolarni o'rganadigan fan, 2. Yonbosh chamber ichakni tiklash, 3. Qorinni kesib o'rganish, 4. Qinni biriktirish (mustahkamlanishi), 5. O't tomirining yallig'lanishi, 6. Eshituv nayindan suniy teshik ochish, 7. Bachadon nayini olib tashlash, 8. Bachadon bo'yinchasini kesib o'rganish, 9. Moyakni olib tashlash, 10. Moyakni biriktirish (mustahkamlash), 11. Siydik yo'lini kesib o'rganish, 12. Siydik yo'lining grafik tasviri, 13. Bachadon boynini kesib ochish, 14. Siydik chiqaruv kanalining yallig'lanishi, 15. Umurtqani parchalanishi, 16. Qonda azot to'planishi, 17. Umurtqani mustahkamlash (biriktirish), 18. Yurakni yorishi, 19. Bo'g'imni mustahkamlanishi, 20. Qoringa igna sanchish, 21. Ko'z yoshi qopchasi torayishi, 22. Kalla suyagining parchalanishi, 23. Ko'krakga igna sanchish, 24. Umurtqa pog'onasini kesib ochish, 25. Bachadon bo'yinchasini kesib o'rganish, 26. Bachadon nayini olib tashlash, 27. Umurtqa pog'onsining parchalanishi, 28. Bachadoni kengaytiruvchi asbob, 29. Qinni grafik tasvirlash, 30. Ko'z yosh qopchasini grafik tasvirlash.

### **2. So'z yasovchi elementlarni ajratib va iboralarni ma'nolarini ko'rsating.**

1. Ovarioprivus, 2. Thyreoprivus, 3. Renoprivus, 4. Patellodesis, 5. Salpingolysis, 6. Thoracogastrochisis, 7. Thoracolaparatomia, 8. Pancreatotomia, 9. Metroplastica, 10. Splenoptosis, 11. Chondromalacia, 12. Osteomalacia, 13. Splenorrhaphia, 14. Hepaticoduodenostomia, 15. Splenitis, 16. Nephrostomia, 17. Nephrotomographia, 18. Tomographia, 19. Hysteroscopia, 20. Splenoptosis, 21. Choledochogastratomia, 22. Arcopalarysis, 23. Colostomia, 24. Colostoma, 25. Choledochostomia, 26. Phthisiatria, 27. Choledochoplastica, 28. Pylorostenosis, 29. Ileosigmoidostomia, 30. Stenocardia, 31. pneumonopexia, 32. Hydrotherapia, 33. Proctospasmus, 34. Enteroptosis, 35. Spondylotomia.

### **3. Iboralarni bo'laklarga bo'ling va ularning ma'nosini tushuntiring:**

A. 1. Vagotomia, 2. Bronchoectasia, 3. Gastrectasia, 4. Laparothoracotomia, 5. Pyodermia, 6. Lithotomia, 7. Pyothorax, 8. Angiectasia, 9. Pyometra, 10. Phlebectasia, 11. Neuritis, 12. Neurolysis, 13. Dermatitis.

14. Adenotomia, 15. Haemotherapia, 16. Pneumomalacia, 17. Omphalitis,  
18. Typhlitis, 19. Thyecytus, 19. Gigantismus, 20. Orchitis, 21. Oophoritis,  
22. Dacryocystitis, 23. Gonarthrosis, 24. Salpingitis, 25. Thyreotoxicosis.  
B. 1. Gingivitis seu. Ulitis. 2. Parodontitis, 3. Meloschisis, 4. Odon-  
toma, 5. Meloplastica, 6. Uranoplastica, 7. Glossoptosis, 8. Papillitis, 9.  
Cheilognathouranoschisis, 10. Pulpitis.













**Nota bene!**

**Bene dignoscitur, bene curator** – To'g'ri aniqlangan kasallik to'g'ri  
davolanadi.

**Medicus amicus et servus aegrotum est** – Shifokor bemorning ham  
do'sti, ham qulidir.














## 6-DARS.

### 9-§. To'qimalar, organlar, suyuqliklar, sekretlar, jins hamda yoshni ifodalovchi grekcha, lotincha, o'zbekcha dubletlari

Rasm	Grekcha ma'nosi	Lotincha ma'nosi	O'zbekcha ma'nosi
	haem(o)-, haemat(o)-; -aemia	anguis, inis <i>m</i>	qon
	cyt(o)-, -cytus	cellula, ae <i>f</i>	hujayra
	derm(o)-, dermat(o)-, -dermia	cutis, is <i>f</i>	teri
	histo-, histio-	textus, us <i>m</i>	to'qima
	myo-, mysium	musculus, i <i>m</i>	mushak
	neuro-, neuri-	nervus, i <i>m</i>	nerv
	tricho-, -trichia	capillus, i <i>m</i>	soch
	paedio-, paedo-	infans, ntis <i>m, f</i>	bola
	ophthalmo-, -ophthalmia	oculus, i <i>m</i>	ko'z
	litho- -lithiasis	calculus, i <i>m</i>	tosh
	chole-, -cholia	fel, fellis, is <i>f</i>	o't
	hydro-, hydor	aqua, ae	suv



	oto-, -otia	auris, is f	quloq quloq
	pharmaco-	medicamentum, i, n	dori dori
	gyno-, gynaeco	femina, ae f	ayol ayol
	dacryo-,	lacrima, ae, f	yosh yosh
	andro-, -andria	mas, maris m	erkak erkak
	blasto-, blastus	germen, inis n	embrion embrion
	geri-, gero-, geronto- gerosio-	senex, senis	qari qari
	hidro- hidro-	sudor, oris m	ter ter
	myelo-, -myelia -myelia	medulla, ae, f	miya miya
	sphymo-, -sphygmia -sphygmia	pulsus, us, m	puls puls
	teno- teno-	tendo, inis, m	pay pay

	angion (angeion)	vas, vasis, <i>n</i>	tomir
	phlebo -	vena, ae, <i>f</i>	tomir
	masto -	mamma, ae, <i>f</i>	sut bezi
	myelo -, - myelia	medulla spinalis	orqa miya
	topo -	locus, i, <i>m</i>	o'rin
	blepharo -	palpebra, ae, <i>f</i>	qovoq
	kerato -	cornea, ae, <i>f</i>	shox parda
	adeno - (aden) -	glandulla, ae, <i>f</i>	bez
	chylo -, - chylia	lympa, ae, <i>f</i>	limfa
	onycho - - onychia	unguis, is, <i>m</i>	tirnoq
	chondro -	cartilago, inis, <i>f</i>	tog'ay
	phono -, - phonia	vox, vocis, <i>f</i>	tovush
	phaco -, - phakia	lens, lentis, <i>f</i>	ko'z gavhari

## 7-DARS.

### 10-§. FunkSIONAL va patalogik holat hamda jarayonlarni ifodalovchi yakka atama elementlar.

Yunon AE	Ma'nosi	Yunon AE	Ma'nosi
bio- (bios)	hayot	tropho-, -trophia (tropho)	oziqlanish
pnoe-, -pnoea (pnoe; pnoia)	nafas	oxy-, oxia (oxys, oxygenium)	kislorod
geno-, -genesis, -genesia, -genia	tug'ilish, rivojlanish	phago-, -phagia (phagein)	yutish
aesthesio-, -aesthesia (aesthesia)	sezish	philo-, -philia (phielo, philia)	moyillik
astheno (asthenes, asthenos, asthenia)	kuchsizlik, toliqish	phobo-, -phobia (phobos)	qo'rqish
spiro- (spiro, spiratum)	nafas olish	tropo-, -tropia (tropos, trope)	yo'nalish
pneumo-, pneumato (pneuma, atos)	organdagi havo, gaz	psycho-, -psychia (psyche)	ruh, ruhi
aëro-, (aër, aëros; aër, aëris)	havo	-plegia (plege)	falaj
kinesia, kinemato-, kinemo-, (kinesis)	harakat	actio -(aitia)	sabab
crin-, -crinia (krino)	ajralib chiqish	athero- (athere)	yog'simon modda
penia (penia)	yetishmaslik	morpho-, -morph - (morphe)	tuzilish
cytosis (cytus osis)	hujayra miqdorining ortishi	ergo-, -ergia, -urgia (argon)	faoliyat
rhoa (rhoia, rhoe, rheo)	oqish	dynamo-, -dynamia (dynamis)	kuch
rhagia (rhagos, haemorrhagia)	qon ketish	gnosis, -gnosia	bilish
stasis (stasis)	to'xtash	po(i)esis, -po(i)et	ishlab chiqarish

tono-, -tonia (tonos, tonus)	tonus, bosim	mnesia (mnesis)	xotira
plasia (plasis)	shakllanish	phreno-, -phrenia	aql, idrok, es. hush
tensio (tensio)	gidrostatik bosim	phrenico- (nervus phrenicus)	diafragmaga oid

### Mustaqil ishlash uchun mashqlar

#### *Berilgan atamalarni o'zbek tiliga tarjima qiling.*

1. 1. *Haemotherapia*, 2. *Haemostasis*, 3. *Haemangiomas*, 4. *Uraemia*, 5. *Vasoresectio* 6. *Perimysium*, 7. *Acrohidrosis*, 8. *Carcinosarcoma* 9. *Hydraemia*, 10. *Chondroblastus*, 11. *Gastrocele* 12. *Meningocele*, 13. *Toxaemia*, 14. *Neuroma*, 15. *Angioneurosis*, 16. *Lymphadenitis*, 17. *Phleboscclerosis* 18. *Broncholithiasis*, 19. *Pyaemia*, 20. *Gastrorrhagia*.

2. 1. *Haemangioma*, 2. *Haemarthrosis*, 3. *Vasotomia*, 4. *Vasoconstrictio*, 5. *Myoma* 6. *Myoblastoma*, 7. *Endomysium*, 8. *Cytopema*, 9. *Lymphocytus*, 10. *Chondroblastoma*, 11. *Epicranium* 12. *Myasthenia*, 13. *Neurolysis* 14. *Adenotomia* 15. *Hyperaemia*, 16. *Aesthesiologia*, 17. *Hypaesthesia* 18. *Dermatosis* 19. *Pyorrhoea*, 20. *Pyuria*.

3. 1. *Haematologia*, 2. *Haematonephrosis*, 3. *Cholaemia*, 4. *Haematuria*, 5. *Myoblastus* 6. *Hydrarthrosis*, 7. *Chondrogenesis*, 8. *Epipharynx*, 9. *Lymphadenoma* 10. *Hidradenitis*, 11. *Anhidrosis*, 12. *Dermographia*, 13. *Mesoderma*, 14. *Dermatitis*, 15. *Sphygmographia*, 16. *Pneumolysis* 17. *Broncholithus*, 18. *Chylothorax*, 19. *Pyothorax*, 20. *Dyscrinia*.

4. 1. *Haematoma*, 2. *Urohaematoma*, 3. *Azotaemia*, 4. *Myocardium*, 5. *Lymphorrhoea* 6. *Perivasculitis*, 7. *Neurosis*, 8. *Lymphangiitis*, 9. *Phlebotasia*, 10. *Ovocytus*, 11. *Periderma* 12. *Erythroblastus*, 13. *Lithotomia*, 14. *Urolithiasis*, 15. *Chylocele*, 16. *Secretio*, 17. *Oncogenesis* 18. *Incretio*, 19. *Pyometra*, 20. *Cholelithiasis*.

5. 1. *Haemolysis*, 2. *Empyema*, 3. *Ureteritis*, 4. *Ectopia*, 5. *Thymocytus*. 6. *Myometrium*, 7. *Lympho(cyto)penia*, 8. *Herniorrhaphia*, 9. *Anaemia*, 10. *Neuritis*, 11. *Lymphangiadenographia*, 12. *Angiectasia*, 13. *Anaesthesia*. 14. *Uretrolysis*, 15. *Pneumomalacia*, 16. *Lithiasis*, 17. *Dysfunctio* 18. *Chyluria*, 19. *Pyodermia*, 20. *Odontorrhagia*.

6. 1. *Synostosis*, 2. *Myelopathia*, 3. *Aplasia*, 4. *Hyperplasia*, 6. *Dys-*

plasia, 7. Metaplasia, 8. Myelodysplasia, 9. Mesoduodenum, 10. Myelosis, 11. Osteomyelitis, 12. Mastoptosis, 13. Hydrocephalus, 14. Otoneurologia, 15. Otitis, 16. Ophthamologia, 17. Cholekinesis, 18. Hypopitarismus, 19. Ductus bilifer, 20. Vesica biliaris. seu. Vesica fellea.

7. 1. Gynaecologia, 2. Paediatrica, 3. Logopedia, 4. Chondrocytus, 5. Haemocyti, 6. Geronotologia, 7. Hydrophlia, 8. Sphygmogramma, 9. Hydrophobia, 10. Geriatria,

11. Apnoë, 12. Hypopnoë, 13. Pneumocephalia, 14. Tenorrhapia, 15. Aërohaemotherapia, 16. Pneumographia, 17. Respiratio, 18. Inspiratio, 19. Pneumarthrosis, 20. Atrophia.

8. 1. Dystrophia, 2. Hypertrophia, 3. Hypotrophia, 4. Vagotropus, 5. Anoxia, 6. Hypoxia, 7. Haemophilia, 8. Aërophagia, 9. Aërotherapia, 10. Ophthalmorheographia, 11. Anergia, 12. Synergia, 13. Asynergia, 14. Hypergia, 15. Chirurgia, 16. Chondrodysplasia, 17. Tendosis, 18. Atrichia, 19. Onychorhexis, 20. Dacryoadenitis.

9. *Quyidagi ma'nolarni ifodalovchi atamalarini yasang:*

1. Ko'z yoshi bezidagi tosh, 2. Ko'z yoshi, 3. Kuchning ko'payishi, 4. Kuchning kamayishi, 5. Xotirasiz, 6. So'lak suyuqligining oqishi, 7. Najasning to'xtashi, 8. Sutning to'xtashi, 9. Tuxumdon usti, 10. Qondagi o'sma, 11. Organ tuzilishining buzilishiga oid kasallik, 12. Tuxumdonning yiring bilan yallig'lanishi, 13. Quloq nayidagi yiring, 14. Tuxumdonda yiring, 15. Tana tuzilishi haqidagi fan, 16. Ko'z gavharining yumshashi, 17. Qovoqning yallig'lanishi, 18. Qorachiq o'smasi, 19. Sut bezini yallig'lanishi, 20. Qovoqni siljishi, 21. Hamma narsadan qo'rqish, 22. Ko'p narsadan qo'rqish, 23. Yangi narsadan qo'rqish, 24. Qorong'ilikdan (scoto-qorong'i) qo'rqish, 25. Pastlikdan (cremno-pastlik) qo'qish.

10. *Iboralarni tarkibini ajrating va ma'nolarini tushuntiring:*

1. Atelodontia (ateles-to'liqsiz, tugallanmagan), 2. Atelocheilia, 3. Ulorrhagia, 4. Uranoplegia, 5. Uranorrhaphia, 6. Meloplastica, 7. Meloschisis, 8. Odontolithus, 9. Odontogenesis, 10. Dysontogenensis, 11. Parodontitis, 12. Endodontitis, 13. Gnathitis, 14. Prognathia, 15. Progenia.

**Nota bene!**

**Ignoti nulla curatio morbi** – Aniqlamagan kasallikni davolash mumkin emas.

**Hygiëna amica valetudinis est** – Tozalik sog'liqning garovidir (dugonasidir).



## 8-DARS.

### 11-§. Turli fizik xossalari, xususiyati, sifat, aloqasi va boshqa belgilarni ifodalovchi yakka AE lar

Yunon AE	Ma'nosi	Yunon AE	Ma'nosi
auto (autos)	o'z, xususiy	pan, panto (pantos)	to'la, bari
allo (allos)	boshqa	brachy (brachys)	qisqa
hetaro (hetaros)	har xil	brady (bradys)	sekin
homeo-, homo- (homoios, homos)	bir xil	tachy, tacho (tahys, tachos)	tez
iso (isos)	teng	chromo, chromat, chromia	rang, bo'yoq
aniso (anisos, an+isos)	noteng, teng emas	leuco (leucos)	oq
neo (neos)	yangi, yosh (chaqaloq)	erythro (erythros)	qizil
meso (mesos)	o'rtta	cyano (kyanos)	ko'k
tele-, teleo-, telo (telos; teleos)	olis, masofada	melano (melas, melanos)	qora, to'q
pseudo (pseudos)	soxta, yolg'on	glyco, gluco (glycys)	shakar, shirin qand
ortho (orthos)	to'g'ri	pachy (pachus)	zich
xero (xerox)	quruq	lepto (leptos)	nozik, nafis
cryo (kruyos)	muzdek, o'ta sovuq	dolicho (dolichos)	uzun
thermo-, thermia (therme, thermos)	issiq, yuqori harorat	bary-, baro-	og'ir
pyr, pyro, pyreto (pyretos)	o't, olov	bathy, batho (bathys, bathos)	chuqur
macro (makros)	yirik	platy (platys)	yassi
micro (micos)	kichik	hemi (греμ.), semi (лат.)	yarim, bir tomonlama
megalo, megalia (megas, megalu)	kattalashgan	chloro (chloros)	yashil
oligo (oligos)	yetishmas, kam	xantho (xanthos)	sariq
poly (polvs)	ko'p, ortiq	polio (polios)	kulrang
necro (nekros)	o'lik		

**Nota bene!** Auto-, allo-, xeno- termin element(TE) lari –plastica (qayta tiklash) va –transplantatio (ko'chirib o'tkazish) so'zlari bilan kelgan birikmalarda quyidagi ma'no'larga ega: auto- organizmning

o'zidagi organ yoki to'qimalaridan foydalanish, allo- boshqa odamning organ yoki to'qimalaridan foydalanish, xeno- hayvon organlari yoki to'qimalaridan foydalanish.

## Mustaqil ishlash uchun mashqlar

1. Iboralarni tarkibini qismlarga ajrating va ularning ma'nosini tushuntiring:

A. *Autointoxicatio, autohaemoterapia, bradycardia, tachypnoe, pancytopenia, macrohaematuria, polyuria, oliguria, oligophrenia, schizophrenia, acromegalia, hypovitaminosis, hyperthermia, hypertelorismus, aerophagia, cyanoderma, erythrocytosis, erythropenia, erythema, xeroderma, xerophthalmia, bathypnoe*

B. *Megalocephalia, micrcephalia, xerostomia, melanoma, dolichocephalia, allergia, anisacria, anisocoria (gr. cora-1. nishon, 2. ishora, alomat, belgi), atelodontia, pseudotumor, neonatus, panophthalmitis, monophobia, polydactylia, oligodactylia, leucaemia, leucosis, melanoma, xanthopsia, biopsia, orthopaedia, orthopnoe, hypoglycaemia, poliomyelitis, necrodermia, xerophilus, hephisphaerium, thermoplegia, hyperthermia.*

C. *Hemispherium, cryothalamotomia, cryoretinopexia, hemiparesis, thermophilia, diathermia, tachypnoe, brachycephalia, bradysystolia, tachysystolia, hypoxia, acrocyanosis, neoplasma, oxyhaemometria, polyangitis, polymastia, pancarditis, necrotomia, autopsia, lactogenesis, polioencephalomyelitis, adentia, rhinorrhagia*

2. Iboralrni tarjima qiling:

*Yurak yetishmasligi, oq qon tanachalari, terini ko'karishi, qondu shakar miqdorining ko'payishi, o'pka to'qimalarining o'lishi (gangren), nafas olishning sekinlashuvi, yurak harakatining sekinlashuvi, hayvon to'qimalarini ko'chirib o'tkazish, soxta torayish, to'g'ri nafas olish, issiqlikdan falaj bo'lish, terini torayishi, to'g'ri davolash usuli, terining sarg'ayishi, hamma arteriyalarning yallig'lanishi, bir tomonlama falaj, jigarning kattalashishi, labni guruqlashi, pastki jag'ning kichrayishi, yuqori jag'ni kichrayishi,*

3. Iboralarni lotin tilida yozing va ma'nolarini tushuntiring:

A. *Criofobiya, telopatiya, teleskop, electrofobiya, simpatiya, apatiya, tomofobiya, antipatiya, astrofobiya, simmetriya, gipostaz, gemoliz, gidroliz, faotsit, anestezeolog, stetoskop, periskop, telefon, kinematografiya, kardiodistrofiya, nevrasteniya, gipogenitalizm, enoftalm, ekzoftalm, octeomielit,*

fonendoskop, fetoskop.

B. Angidroz, epikard, perikard, dizuriya, ishemiya, ishuriya, logas-  
teniya, gerontofobiya, logoreya, sfigmometriya, gidronefroz, gastrorragiya,  
algomenoreya (gr, men-oy), dismenoreya, adinamiya, timoma, spirometriya,  
miatoniya, miatrofiya, disfagiya, fotofobiya, klaustrofobiya (lat, claustrum-  
yopiq joy), monofobiya.

**Nota bene!**

**Salus populi- suprema lex** - Xalq farovonligi – oily qonundir.

**Ubi bacteriae, ibi morbus** – Qayerda bakteriya bo'lsa, o'sha joyda kasallik bor.

### **Klinika bo'limini takrorlash uchun mashqlar:**

**1. So'z yasovchi elementlarni ajrating va iboralarni ma'nolarini ko'rsating:**

A. Haemostasis, haemotherapia, haematuria, haematoma, haemorrhagia, haemolysis, haematologus, haematologia, haemarthrosis, haemangioma, haemophilia, haemophobia.

B. Blepharorrhagia, blepharoptosis, dinamometriya, olyuria, bradyknesia, tachypnoe, dyspepsia, chylothorax, pneumothorax, pneumorrhagia, pneumorrhaphia, galactotherapia, narcomania, anamnesis morbis, anamnesis vitae, aponia, tenorrhaphia, topographia, megalomania.

C. Meloplastica, gnatoplastica, papillitis, cheilognathouranoschisis, uranoplastica, micrognatia, gnatopathia, cheilitis, gingivitis, odontoma, glossoptosis, caries acuta profunda, caries simplex, hyperaesthesia dentium, hyperaemia pulpa, pulpitis chronic, stomatitis.

**2. Berilgan ma'nolarni o'qing va iboralar tuzing:**

Qisqa sharsimon bosh, pay qo'shilishi, chanoqni o'lchash, ko'z olmasi bilan qovoqni qo'shilishi, o'pkani olib tashlash, o'pkadan qon ketish, o'pka shishi, xotirani yo'qotish, xalqum va tilni falaji, qonning hosil bo'lishi, suyakni yumshashi, kuchsizlik, shaklsizlik, orqa miyaning sariq moddasining yallig'lanishi, bachadonning tushishi, ichki organning tushishi, oshqozon osti bezining tushishi, quloqni zamburug'li kasalligi, ichki organdan qon ketish, bachadon bo'yinchasining sil kasalligi, bo'g'imda suv paydo bo'lishi, jigarni ko'chirish, suyakni qayta tiklash (plastica), tizzadagi og'riq, suvni

yaxshi ko'rish, suvni parchalanishi, pulсни o'lchash, miyada suv to'planishi, nasmdan qo'rqish, yopiq joydan qo'rqish (yopiq joy-claustrum), balandlikdan qo'rqish.

### 3. Terminni to'ldiring:

- qovoqni yallig'lanishi -...itis; -toza havo bilan davolash- aëro...;  
-yurak xaltasini yallig'lanishi-peri...; -qonni to'xtashi -haemo...;  
--chanoqni o'lchash - pelvi...ia; - payni tikish - tendo...;  
-organ harakatini pasayishi -hyp...; -bronxlarni kengayishi - bronch...;  
-nervdagi og'riq -neur...ia; -bronxni torayishi - broncho...;  
-Xotirani pasayishi -...phrenia; -bo'g'imdagi og'riq -...algia  
-arteriyani kengayishi -arteri...; -barmoqlarni birikishi - syn...;  
-ishtahani buzilishi -...orexia -nutqni to'g'rilash - ...paedia;  
-qovoqni tushishi- ...ptosos; -oqqonlik -...aemia;  
-bronxni maxsus asbob bilan tekshirish -broncho...;

### 4. TE ni ajratib iboralarning ma'nolarini tushuntiring:

- |                   |                   |
|-------------------|-------------------|
| 1. Splenomegalia. | 2. Osteomalacia.  |
| Cardiomegalia     | encephalomulacia  |
| nephromegalia     | myelomalacia      |
| hepatomegalia.    | arthromalacia.    |
| 3. Thermotherapia | 4. Spondylopathia |
| thermoreceptor    | spondylotomia     |
| thermoplegia      | spondylectomia    |
| hyperthermia.     | spondylodynia.    |

### 5. Quyidagi so'zlarni grekcha-lotinch ma'nolarini bering:

1. Mushak, bosh, nerv, orqa miya, og'iz, suyak, limfa tuguni, to'qima, to'g'ri ichak, umurtqa, ko'z, sut bezi, bachadon, ko'krak, yo'g'on ichak, tog'ay, buyrak jomi, quloq, burun, qovoq, soch, qorin, tirnoq, qin, tuxumdon, kindik, oyoq, tovon, barmoq, siydik pufagi, o't pufagi, yurak, ko'r ichak, bo'g'im.

2. Jag', pastki jag', yuqorigi jag', iyak, tanglay, milk, tish, so'lak bezi,

## 12-§. Takrorlash uchun klinika bo'limidan test savollari

1. To'ldiring. Kasalliklar haqidagi fan... .. loqia  
a. pathia b. patho c. algia d. plegia
2. To'ldiring. Zamburug'li kasallanish. myc... ..  
a. -oma b. -itis c. -osis d. -iosis
3. To'ldiring. Burun bo'shlig'ining yallig'lanishi. rhin... ..  
a. -oma b. -itis c. -osis d. -iasis
4. To'ldiring. Nutq deffektlarini to'g'rilash. loqo...  
a. plegia b. paedia c. plasia d. poesis
5. To'ldiring. Buyrakka qon quyilishi... .. nephrosis  
a. homeo b. haemato c. histo d. hetero
6. To'ldiring. Terini zamburug'li kasallanishi. dermato... .. osis  
a. myo b. myelo c. myco d. masto
7. To'ldiring. Bosh miya kulrang moddasini yallig'lanishi.  
... .. encephalitis  
a. poly b. pan c. paedio d. polio
8. To'ldiring. Venalarni shamollashi natijasida tromblarni paydo bo'lishi.  
thrombo... .. itis  
a. phlebo b. philo c. phobo d. blepharo
9. To'ldiring. Rangli ko'rishning buzilishi. ... dysopsia  
a. chromato b. cheilia c. chloro d. chylo
10. To'ldiring. O't pufagini olib tashlash... .. cystectomy  
a. chroma b. chole c. chloro d. chylo
11. Ma'nosini bering. hemiopsia  
a. ko'rishni buzilishi b. rangni ko'rish  
c. ko'rmaslik d. chala ko'rish
12. Ma'nosini bering. Ko'p barmoqlik.  
a. monodactylia b. polydactylia  
c. syndactylia d. adactylia
13. Ma'nosini bering. Sut kelishini to'xtashi.  
a. coprostasis b. hydrostasis  
c. cholestasis d. galactostasis
14. Ma'nosini bering. Bachadonda yiringni to'planishi.  
a. pyaemia b. pyuria  
c. pyothorax d. pyometra
15. Ma'nosini bering. Qonda yog' bo'lishi.  
a. uraemia b. lipaemia  
c. cholaemia d. toxaemia
16. Ma'nosini toping. Venalarning kengayishi.



- a. phlebostenosis b. phleboscclerosis  
c. phlebectomia d. phlebectasia
17. Ma'nosini toping. Ichak funksiyasining buzilishi.  
a. dysopsia b. dysuria  
c. dysenteria d. dysplasia
18. Tarjima qiling. Yutulmaslik.  
a. apnoe b. aplasia c. atrophia d. aphagia
19. Yiringni oqishi – so'zini tarjimasini bering.  
a. pyaemia b. pyorrhea c. pyodermia d. pyothorax
20. Tarjima qiling. Ko'z qovoqlarining (ko'z olmasi bilan) bitib ketishi.  
a. syndactylia b. symblepharia c. synergia d. synostosis
21. «Yallig'lanish» ma'nosidagi terminni toping.  
a. pneumonia b. lithiasis c. neuralgia d. spondylosis
22. « Olib tashlash» ma'nosini beradigan terminni toping.  
a. metroptosis b. nephrectomia c. splenectasia d. stenocardia
23. « Havo, gaz» ma'nosini beradigan terminni toping.  
a. pneumolysis b. pneumorhexis c. pneumocephalia d. pneumotomia
24. « Moyillik» ma'nosini beradigan terminni toping.  
a. haemophilia b. cardioplegia c. dysplasia d. hydrophobia.
25. « Sezuvchanlikni oshishi» ma'nosidagi so'zni toping.  
a. chirurgia b. allergia c. synergia d. asynergia
26. «Sezuvchanlikni yo'qolishi» ma'nosidagi atamani toping.  
a. anesthesia b. hypaesthesia c. hyperaesthesia d. anaesthesia
27. « Hujayralar soninig kamayishi» ma'nosidagi atamani toping.  
a. cytolysis b. cytopenia c. cytosis d. cytoplasmia
28. Ma'nosini bering. Bir barmoqlilik.  
a. dactyloscopia b. monodactylia c. polydactylia d. syndactylia
29. Ma'nosini bering. Butun tana falaji.  
a. panplegia b. hemiplegia c. monoplegia d. monophobia
30. Tarjima qiling. Qon ketishi.  
a. splenorhaphia b. pyorrhoea c. haemorrhagia d. hypergia
31. Tarjima qiling. Suyaklarni suyak to'qimasi yordamida birikishi.  
a. syndesmologia b. synchondrosis c. syndesmosis d. synostosis
32. Tarjima qiling. Qarilik kasalliklarini davolash haqidagi ta'limot.  
a. geriater b. geriatria c. gerontologia d. gerontologus
33. Tarjima qiling. Siydikda qon bo'lishi.  
a. haematuria b. uraemia c. urohaematoma d. cholaemia
34. Ma'nosini bering. Yurakning tashqi qavati.  
a. endocardium b. pericardium c. epicardium d. myocardium



35. Ma'nosini bering. Bachadonning shilliq qavati.  
 a. parametrium b. perimetrium c. endometrium d. endometritis
36. Ma'nosini bering. Ko'p oziqlanish.  
 a. hypotrophia b. hypertrophia c. atrophia d. dystrophia
37. Ma'nosini bering. Terining sarg'ayishi.  
 a. leucodermia b. erythrodermia c. xantodermia d. cyanosis
38. Tarjima qiling. Shakarning siydikda bo'lishi.  
 a. lipuria b. haematuria c. glykuria d. dysuria
39. To'ldirib yozing. Siydik pufagi va buyrak jomini yallig'lanishi.  
 ...cystitis  
 a. polio b. poly c. pyelo d. pyo
40. To'ldirib yozing. Suyak iligining yallig'lanishi. Osteo... . itis  
 a. myos b. masto c. metro d. myelo
41. To'ldirib yozing. O'z qonini o'ziga quyish uslubi bilan davolash.  
 ... . haemotherapia  
 a. allo b. hetero c. homo d. auto
42. To'ldirib yozing. Bronxlarda tosh hosil bo'lishi. broncho... .  
 a. lithis b. lithotomia c. lithectomia d. lithiasis
43. To'ldirib yozing. Buyrakni tikish. Nephro... .  
 a. rhoea b. rhaphia c. rhagia d. rhexis
44. Rangini aniqlang. Melano-  
 a. oq b. qizil c. sariq d. qora
45. To'ldirib yozing. Og'izning qurishi... . stomia  
 a. melano b. cyano c. glyko d. xero
46. To'ldib yozing. Ko'zning hamma qavatlarining shamollashi.  
 ... . ophthalmitis  
 a. poly b. polio c. pan d. pathia
47. To'ldib yozing. Havoni yutish. aëro... .  
 a. phobia b. phibia c. phagia d. plegia
48. To'ldib yozing. Orqa miyaning kasallanishi... . pathia  
 a. myo b. masto c. metro d. myelo
49. To'ldiring. Oq qon tanachalarining ko'payishi. leucocyt... .  
 a. macro b. poly c. hyper d. osis
50. To'ldiring. Qizil qon tanachalarini kamayishi. erythrocyto... .  
 a. oligo b. pexia c. penia d. ptosis
51. To'ldiring. Ko'p bo'g'imlarni shamollashi... . arthritis  
 a. oligo b. mono c. pan d. poly
52. To'ldiring. Buyrakda yiringni paydo bo'lishi... . nephrosis  
 a. pan b. pyo c. poly d. polio

53. To'ldiring. Siydik chiqish funksiyasining buzilishi... . uria  
 a. an b. syn c. epi d. dys
54. To'ldiring. Mushakning kuchsizlanishi. My...  
 a. stheno b. spiro c. stetho d. asthenia
55. To'ldiring. Ter bezlarining shamollashi... . adenitis  
 a. hidro b. hydro c. hyper d. hypo
56. To'ldiring. Birgalikda ishlash. Syn...  
 a. crinia b. kinesia c. asthenia d. ergia
57. To'ldiring. Quloqdan oqishi. Oto...  
 a. rhexis b. rhapsia c. rhagia d. rhoea
58. To'ldiring. Toshni kesish. Litho...  
 a. tonia b. tomia c. ectomia d. iasis
59. Juftini toping. hysterodynia  
 a. to'qimani yallig'lanishi b. bachadonni kasallanishi  
 c. bachadonni kesish d. bachadondagi og'riq
60. Juftini toping. pyelitis  
 a. yiringli yallig'lanish b. buyrakni yallig'lanishi  
 c. ko'p yallig'lanish d. buyrak jomini yallig'lanishi
61. Juftini toping. Sutli parhez.  
 a. hydrotherapia b. heliotherapia  
 c. phychotherapia d. galactotherapia
62. Juftini toping. Sekin nafas olish.  
 a. hypotonia b. hypotrophia  
 c. hypopnoe d. hypertonia
63. Juftini toping. O'smalar va ularni davolash bo'yicha mutaxasis.  
 a. geriater b. gerontologus c. oncologus d. gynaecologus
64. Juftini toping. odontorhagia  
 a. ichakdan qon ketishi b. oshqozondan qon ketishi  
 c. quloqdan qon ketishi d. tishdan qon ketishi
65. Juftini toping. Stomatitis  
 a. tanani yallig'lanishi b. tishni yallig'lanishi  
 c. og'iz bo'shlig'ini yallig'lanishi d. umurtqalarni yallig'lanishi
66. Ma'nosini toping. Hepatopexia  
 a. jigarni pastga qarab siljishi b. jigarni tikib qo'yish  
 c. jigarni kasallanishi d. jigarni anastomози
67. "Bo'g'imlarni surunkali kasallanishi" – jumlasini hosil qiling. arthr...  
 a. -oma b. -pathia c. -itis d. -osis
68. "Buyrak tosh kasalligi" - jumlasini hosil qiling. Nephrolith... .  
 a. -itis b. -osis c. -pathia d. -iasis

69. "Nerv tolasidan hosil bo'lgan shish" - jumlasini hosil qiling. Neuro  
 a. -itis b. -osis c. -pathia d. -oma
70. "Tanglayni yorish (kesish)" ma'nosidagi atamani ko'rsating.  
 a. uranotomia b. melotomia c. gonotomia d. ulotomia
71. To'ldiring. Suyaklar haqidagi ta'limot. Osteo...  
 a. -longia b. -algia c. -odynia d. -logus
72. To'ldiring. Oshqozon osti bezining og'rishi... . odynia.  
 a. gaster b. pancreatis c. pancreat d. pancreas
73. To'ldiring. Tish og'rishi. ... algia.  
 a. stomat b. odont c. dens d. dent
74. To'ldiring. Umurtqa rentgenografiyasi. ... . graphia  
 a. vertebra b. rhachi c. columnae vertebralis d. spondylo
75. To'ldiring. Ko'krak qafasini o'lchash. ... . metria  
 a. stetho b. thoraco c. pectus d. thorax
76. Tarjima qiling. Jigardan kelib chiqqan kasallik. Hepato... .  
 a. -osis b. -itis c. -iasis d. -genus
77. Tarjima qiling. Boshni o'lchash.  
 a. encephalometria b. cephalometria  
 c. cephaloscopia d. encephaloscopia
78. Tarjima qiling. Og'iz bo'shlig'ini asbob bilan tekshirish.  
 a. odontotherapia b. stomatotherapia  
 c. stomatoscopia d. odontoscopia
79. Tarjima qiling. Tishlarni davolash.  
 a. odontotherapia b. stomatotherapia  
 c. stomatoscopia d. odontoscopia
80. Tarjima qiling. Ko'krak qafasida og'riqning paydo bo'lishi.  
 a. algostethos b. stethalgia c. stethometria d. stetopathia
81. Tarjima qiling. Tovonni yetishmasligi.  
 a. pedometria b. podoscopia c. podographia d. apodia
82. Terminelementni toping. Yozish jarayoni.  
 a. -iasis b. -therapia c. -gramma d. -graphia
83. Terminelementni toping. "Kasallik".  
 a. -itis b. -oma c. noso- d. -algia
84. Terminelementni toping. "Kasallanish".  
 a. chiroscopia b. osteoarthropathia c. periosteum d. brachialgia
85. Terminelementni toping. "Kelib chiqqan".  
 a. osteogenus b. odontalgia c. pododynia d. chirospasmus
86. Quyidagi ma'noni beradigan old qo'shimchali atamani toping.  
 "Funksiyaning buzilishi"

- a. nephrosis b. apodia c. dysenteria d. endocranium
87. Quyidagi ma'noni beradigan old qo'shimchali atamani toping.  
"Ichki qavat"
- a. epicranium b. parasternalis c. synchondrosis d. endocardium
88. Quyidagi ma'noni beradigan old qo'shimchali atamani toping.  
"Tashqi qavat".
- a. hemiparesis b. parametritis c. acheiria d. perimetritis
89. Quyidagi ma'noni beradigan old qo'shimchali atamani toping.  
"Normadan yuqori".
- a. peritonealis b. hyperaemia c. hypoplasia d. naemia
90. Quyidagi ma'noni beradigan old qo'shimchali atamani toping.  
"Birikish".
- a. syndesmosis b. hydraemia c. secretio d. hyperfuntio
91. Terminni tarjimasini toping. "endometritis"
- a. bachadon shilliq pardasini yallig'lanishi b. buyrak jomini shamollashi  
c. siydik pufagini kasallanishi d. buyrak jomi bilan siydik pufagini shamol-
92. Tarjimasini toping. Lymphacytosis
- a. limfa hujayralarining kamayishi b. limfositlarni kasallanishi  
c. limfositlarni qonda ko'payishi d. limfa hujayralari
93. Tarjimasini toping. Osteoma
- a. suyakni o'smasi b. suyak to'qimasidan tuzilgan o'sma  
c. suyakni yallig'lanishi d. suyakni kasallanishi
94. Tarjima qiling. Hepatogenus
- a. jigarning kasallanishi b. jigarni kelib chiqishi  
c. jigarni og'rishi d. jigardan kelib chiqqan kasallik
95. Antonimlar berilgan qatorni ko'rsating.
- a. sclerosis - malacia b. algia - odynia  
c. therapia - iatria d. micro - oligo
96. Tarjima qiling. Lymphacytoma
- a. limfa tugunlarini shishishi b. limfalarni shishishi  
c. limfa hujayralaridan tuzilgan shish d. limfositalarini kasallanishi
97. "Siydik nayining qisqarishi" atamasini tarjima qiling.
- a. ureterostenosis b. urethrospasmus  
c. ureterosasmus d. urethrostenosis
98. Juftini aniqlang. corpus, oris, n
- a. angion b. Somato c. stomato d. splanchno
99. Juftini aniqlang. niger, gra, grum
- a. leuco b. melano c. polio d. xantho

100. Sinonimini tanlang. "Thorax".  
 a. stethos b. cephale c. rhinos d. stomato
101. Qarama-qarshi ma'nosini ko'rsating. "Leucos".  
 a. erythros b. melan c. polio d. xantho
102. Sinonimini tanlang. "later".  
 a. myo b. algia c. medicus d. pathia
103. Terminni ko'rsating. O't pufagini shamollashi.  
 a. dacryocystitis b. pyelocystitis  
 c. cystopathia d. cholecystitis
104. Terminni ko'rsating. Xirurgik operatsiya qilib bezni olib tashlash.  
 a. appendectomy b. adenotomy c. laparotomy d. adenoectomy
105. Kerakli old qo'shimchani qo'ying. Yurakning ichki qavatini shamollashi.  
 ... carditis  
 a. endo b. epi c. sub d. para
106. Kerakli old ko'shimchani qo'ying. Qonda shakarni ko'payishi.  
 ... glykaemia  
 a. hypo b. hyper c. syn d. para
107. So'zdagi yetishmagan qismni qo'ying. Qonda leykotsitlar sonining ko'payishi. leucocyt...  
 a. pathia b. poly c. osis d. odynia
108. "Tarkibni kamayishi" ma'nosidagi so'zni toping.  
 a. erythrocytosis b. leucopenia c. hydraemia d. hyperthermia
109. "Tarkibni ko'payishi" ma'nosidagi so'zni toping.  
 a. hypotonia b. acheira c. thrombocytosis d. synchondrosis
110. Qanday ma'noni beradi? "ptosis"?  
 a. davolash b. kengayish c. pastga tushish d. torayish
111. So'zni yetishmagan qismini to'ldiring. O'z qonini o'ziga quyish.  
 auto .... therapia  
 a. -angi b. -haemo c. -aemia d. -erythro
112. Qaysi grek old qo'shimchasi "qo'shilish, bitish" ma'nosini bildiradi?  
 a. endo b. sim c. syn d. para
113. Tarjima qiling. "ophthalmomia"  
 a. kichik bosh b. katta bosh c. kichik ko'z d. katta ko'z
114. To'ldiring. Taloqning katta bo'lishi. spleno...  
 a. pathia b. macros c. megalia d. malacia
115. Terining rangini aniqlang. melanodermia  
 a. qizil b. kul rang c. qora d. oq
116. Apenditsitning simptomlari. ... appendicitis

- a. symptomata b. symptoma c. symptomatibus d. symptomatum
117. Tarjima qiling. Ichaklarning o'tkir yallig'lanishini davolash.  
Curatio... . enteritidis  
a. acutus b. acuta c. acutum d. acutae
118. Tarjima qiling. Oshqozonning yiringli yallig'lanishi  
..... purulenta  
a. gastritis b. gastritidis c. gastritide d. gastritides
119. Tarjima qiling. Quloqning chuqur ichki qismini yallig'lanishi.  
... interna profunda  
a. us otos b. otitis c. otitidis d. otitide
120. Tarjima qiling. Inflammatio vesicae urinariae seu...  
a. cystitis b. cystis c. cystitidis d. cystitide
121. Tarjima qiling. Inflammatio pulmonum seu. .  
a. pneumonia b. pneumoniae c. pneumoniarum d. pneumonis
122. Halqumni o'tkir yallig'lanishi... . acuta  
a. pharyngitis b. laryngitis c. pleuritis d. stomatitis
125. To'ldiring. Glaucoma -morbus..., glaucoma non est neoplasma.  
a. oculus b. oculi c. oculorum d. oculis
126. Qaysi terminelement "ulangan joydan, chandiقدan organing bo'shashi (ozod qilish)" ma'nosini bildiradi?  
a. lysis b. ectomia c. sclerosis d. stasis
127. Terminni yetishmagan qismini to'ldiring.  
Tifga o'xshash kasallik. .... typhus  
a. endo b. peri c. epi d. para
128. Terminni ma'nosini ko'rsating. haematopericardium  
a. qon haqidagi ta'limot b. perikarda havo bo'lishi  
c. yurak oldi bo'lmachasida qonni to'planishi d. plevral bo'shliqda qon bo'lishi
129. Terminni to'ldiring. Tog'ay to'qimalari bilan suyaklarning birikishi.  
..... chondrosis  
a. syn b. sym c. meta d. dys
130. Terminni to'ldiring. Suyaklarning suyak to'qimalari bilan birikishi.  
Syn ..... osis  
a. chondr b. desm c. hist d. ost
131. Terminni to'ldiring. Ruhiyatga ta'sir ko'rsatib davolash. ...therapia  
a. iatria b. iater c. patho d. psycho
132. Terminni to'ldiring. Bronxlarning zamburug'li zararlanishi.  
Bronchomyc.....  
a. -pathia b. -ismus c. -iasis d. -osis



133. Termini toping. "Buzilish"  
 a. tomia b. ectomia c. lysis d. stenosis
134. Termini javobini toping. Barcha bo'g'imlarning yallig'lanishi.  
 a. polyarthritis b. hemiarthritis c. macroarthritis d. panarthritis
135. Terminga yetishmagan qismni to'ldiring. Bachadon old kletchatkasining yallig'lanishi. .... metritis  
 a. para b. peri c. endo d. epi
136. Terminga yetishmagan qismini to'ldiring. Bachadon tashqi qavatining yallig'lanishi. ... metritis  
 a. epi b. para c. peri d. endo
137. Terminga yetishmagan qismini to'ldiring. Bachadon shilliq qavatining yallig'lanishi. .... metritis  
 a. syn b. intra c. sub d. endo
138. Termini tarjimasini toping. Adenoides  
 a. bezlar b. limfa bezlari c. limfa tugunlari d. bezlarni yallig'lanishi.
139. Termini tarjimasini toping. Apathia  
 a. befarqlik b. yomon ko'rish yoqtirmaslik  
 c. oldindan bilish d. kasallikni bo'lmasligi
140. Termini tarjima qiling. A'zolarni ko'karishi.  
 a. podocyanosis b. cheirocyanosis  
 c. cyanoderma d. cyanosis
141. Termini tarjima qiling. Buyrak tosh kasalligi.  
 a. nephrolithus b. nephrolithasis  
 c. renolithiasis d. nephropathia
142. Terminga yetishmagan qismni to'ldiring. Mahalliy ko'p qonlilik.  
 .... aemia  
 a. pan b. poly c. hyper d. macro
143. Termini tarjima qiling. Suyaklar oziqlanishining buzilishi.  
 a. dystrophia ossis b. osteodystrophia  
 c. osteoatrophia d. osteohypotrophi
144. Termini tarjima qiling. Limfa tugunlarini ko'p yallig'lanishi.  
 a. polyadenitis b. panadenopathia  
 c. polyangitis d. macroangiitis
145. Termini tarjima qiling. Physiologia.  
 a. tabiat haqidagi fan b. organizimni ko'p kuch sarflashi haqidagi ta'limot  
 c. jismoniy faktorlar haqidagi fan d. organizim funksiyalari haqidagi fan
146. Qaysi qatorda faqat yunoncha so'zlar berilgan?  
 a. xeroderma, glucosuria, hemiparesis, melanoma, mastoptosis  
 b. necrobiosis, femininum, sinus, cranium, tumor

- c. asphygmia, parotitis, oculus, aqua, vena
- d. hyperthermia, patella, symphonia, septum, acidosis

147. Qaysi atamada xatoga yo'l qo'yilganligini aniqlang.

- a. cardiosclerosis - yurakning kengayishi
- b. extensio - yozish
- c. ectoblastus - tashqi murtakli yaproq
- d. hypertonia - qon bosimini

ko'tarilishi

148. "Tananing yarim falaji (sholligi) -... plegia" atamani yozing.

- a. mono
- b. di
- c. hemi
- d. pan

149. Qaysi atamada noto'g'ri tarjima berilganini aniqlang.

- a. aphonia - ohangdoshlik
- b. phlebotomia - venani kesish
- c. colopexia - chamber ichakni birlashtirish
- d. urostasis - siydikning to'xtashi

150. Terminni tarjima qiling. Tovush funksiyasining buzilishi.

- a. dyslogia
- b. aphonia
- c. dysphonia
- d. hypophonia

151. Terminni tarjima qiling. Monoplegia.

- a. bir tomonlama falajlik
- b. bitta organ falajligi
- c. bitta a'zo falajligi
- d. quyosh urishi

152. Boshqa hayvonlardan organ yoki to'qimalarni ko'chirib o'tkazishda qaysi terminelement ishlatiladi.

- a. xeno
- b. auto
- c. allo
- d. homeo

153. "Ahvoli (holati) loqaydlilik, beparvolik" atamasi bu ....

- a. apathia
- b. antipathia
- c. sympathia
- d. homeopathia

154. Tarjima qiling. To'g'ri ichakni o'rab turuvchi hujayralarning yallig'lanishi. ...proctitis

- a. para
- b. peri
- c. epi
- d. ecto

155. "Kam harakatchan" termini bu ...

- a. oligokinesia
- b. hyperkinesias
- c. akinesia
- d. bradykinesia

156. "Mo'l, juda ko'p, serob, boy" ma'noga ega bo'lgan suffiksni ko'rsating.

- a. - os
- b. - e
- c. - ol
- d. - ul

157. Qaysi suffiks biron-bir organning yallig'lanishini ko'rsatadi?

- a. - it is
- b. - osis
- c. - oma
- d. - gen

158. "osis" - qanday ma'noga ega?

- a. surunkali kasallik
- b. ko'plik, ko'payish
- c. yallig'lanmagan kasallik
- d. yuqorida berilganlarning hammasi

159. «Tarqalish, ko'payish» - ma'nosiga ega bo'lgan atamani ko'rsating.

- a. leucocytosis
- b. megaloblastus
- c. nephrosis
- d. polychromia

160. "Ichida, ichki" ma'noga ega bo'lgan yunoncha old qo'chimchani ko'rsating.

- a. endo
- b. eu
- c. syn
- d. en

161. Qaysi yunoncha old qo'shimcha anatomiya terminologiyasida ishlatilmaydi?

- a. hypo b. hyper c. dys d. endo
162. "tension – to'g'rilash" old qo'shimchasini to'ldiring.  
a. ex b. inter c. sub d. in
163. "... spiratio – nafas olish" old qo'shimchasini to'ldiring.  
a. in b. infra c. inter d. supra
164. "Tashqi (ustki) qobig' (pardasi), to'qima, kapsula" birikinasidagi organning nomi bilan qaysi old qo'shimcha anglatadi?  
a. peri b. para c. meso d. dys
165. "organning yoni yoki atrofidagi xujayrasiga" birikmasidagi ichki organning nomini qaysi old qo'shimcha ko'rsatadi?  
a. para b. peri c. con d. dia
166. Termining sinonimini aniqlang. "Sthenia".  
a. dynamo b. algia c. allo d. oligo
167. Antonimini aniqlang. "homo".  
a. aniso b. allo c. iso d. hetero
168. Pusht (embrion)ning qaysi qatlamlari ichki hisoblanadi?  
a. entoderma b. epidermis c. mesoderma d. ectoderma
169. Yurak devorining ustki (tashqi) qatlamini ko'rsating.  
a. epicardium b. pericardium c. myocardium d. endocardium
170. Termining lotincha muqobilini toping. "Myel"  
a. medulla ossium b. columna vertebralis  
c. vesica fellea d. pelvis renalis
171. Termining antonimini aniqlang. "Ectasia".  
a. stenosis b. penia c. glyc d. sthenia
173. "Yashil rangli o'sma" atamasi - bu  
a. chloroma b. xantoma c. melanoma d. leucoma
174. Qaysi atama "moddalar almashinuvi"ni bildiradi?  
a. metabolismus b. antagonismus c. diagnosis d. paramnesia
175. "Taloqning kengayishi" atamasini ko'rsating.  
a. splenectasia b. gastrectasia c. cystectasia d. stethectasia
176. "Terining quruqligi" atamasini ko'rsating.  
a. pyodermia b. leucodermia c. sclerodermia d. xerodermia
177. "Birgalikdagi ijod, ishlash" atamasini ko'rsating.  
a. hypergia b. energia c. asynergia d. synergia
178. "Yozish, rentgenologik tekshirish" ma'nosiga ega bo'lgan atamani toping.  
a. arthrographia b. cardiogramma c. analgesia d. glossopathia
179. Qaysi terminelement organda havo borligini bildiradi?  
a. pneumo b. spiro c. aër d. pneo

180. Atamaning antonimini toping. "bio".  
 a. necro b. oxy c. toxico d. auto
181. Atamaning antonimini toping. "pharmaco"  
 a. toxic b. glyc c. xero d. sphygmo
182. Atamani tarjima qiling. "oliguria".  
 a. siydikning kam ajralishi b. siyishning buzulishi  
 c. siydikning juda ko'p ajralishi d. qonda siydikning bo'lishi
183. "Suyaklarning buzilishi, shakllanishi" terminini ko'rsating.  
 a. osteodysplasia b. osteodystrophia c. osteogenesis d. osteomyelitis
184. "Nafas olishning tezlashuvi" atamasini to'g'ri tarjimasini toping.  
 a. tachypnoë b. hypopnoë c. hyperpnoë d. bradypnoë
185. "Qo'l-oyoq kasalligi" atamasini to'g'ri tarjimasini toping.  
 a. acropathia b. acrophobia c. acrotismus d. acrodynia
186. "Suyak ko'migining shishi (o'smasi)" atamasini to'g'ri tarjimasini toping.  
 a. myeloma b. myoma c. myelocèle d. myodynia
187. "Buyrakdagi og'riq" atamasini tarjima qiling.  
 a. nephralgia b. hepatalgia c. nephropathia d. nephrosis
188. "Kindikni yorish (kesish)" atamasini tarjima qiling.  
 a. omphalotomia b. typhlotomia c. orchitomia d. orchietomia
189. "Halqumdan qon ketishi" atamasini tarjima qiling.  
 a. pharyngorrhagia b. pharyngorrhoea c. haemorrhoea d. laryngorrhagia
190. "Nervni tikish" atamasini tarjima qiling.  
 a. neurorhaphia b. neuropexia c. neurolysis d. nephrorrhaphia

## Termin elementlar

1. -algia – og‘riq
2. -odyna – og‘riq
3. -agra – og‘riq
4. -aemia – qon
5. -pathia – kasallik
6. -ectasia – organ kengayishi
8. -tomia – yorish, kesish
7. -ectomy – organ yoki to‘qimani olib tashlash
9. -graphia – qayd qilish (protses)
10. -gramma – yozib olish (natijani)
11. -iatria – kasalliklarni davolash va oldini olish to‘g‘risidagi fan
12. -iater – mutaxassis (davolash)
13. -logia – fan, ilm
14. -logus – mutaxassis
15. -lysis – buzilish, chandiqdan xolos qilish
16. -opsia – tekshirish, ko‘rish
17. -penia – yetishmaslik
18. -philia – havas, ishtiyoq, moyillik
19. -phobia – qo‘rqish
20. -plastica – organ funksiyalarini tiklash uchun olib qo‘yish
21. -plegia – falaj, zarb
22. -pexia – zichlash, mustahkamlash
23. -ptosis – organning tushishi
24. -rrhagia – qon ketish
25. -rrhaphia – tikish
26. -scopia – maxsus asbob orqali ichki organ devorini tekshirish
27. -sclerosis – to‘qimani zichlab qo‘yish, bujmayish
28. -stenosis – fiziologik teshik yoki naysimon organni torayishi
29. -therapia – davolash usuli
30. -tonia – qon tomirlari va to‘qimalarda bosim
31. -throphia – organ, to‘qimaning oziqlanishi
32. -uria – siydik tarkibi

## 1-QISM

### 1. aden(o) – bez

adenoma – bez epiteliyasida rivojlanadigan xavfsiz o'sma (shish)

adenocarcinoma – bezli rak, bez elementlari bo'lgan xavfli o'sma

adenopathia – limfa bezlarining kasalligi

adenotomia – yutqining burun qismidagi kattalashgan to'qimani olib

tashlash

### 2. aetia – sabab

aetiologia – kasalliklarning sabablari va kelib chiqishi to'g'risidagi

ta'limot

### 3. osteo(n) – suyak

osteologia – anatomiyaning suyak sistemasini o'rganadigan bo'limi

osteomyelitis – suyak ko'migining yallig'lanishi

osteonecrosis – suyak qismining o'lishi

osteoplastica – suyaklarni qayta tiklash

osteosclerosis – ortiqcha suyak to'qimasi hosil bo'lishi natijasida suyak-

larning qattiqlashishi

### 4. -logia – fan

caryologia – hujayra yadrosini o'rganadigan fan.

curortologia – tabiiy davo omillari va uning kasal a'zolarga ta'sirini

o'rganadigan fan.

deontologia – tibbiy xodimlarning axloq qoidalarini o'rganadigan fan.

embryologia – a'zolarining individual rivojlanishini o'rganadigan fan.

epidemiologia – yuqumli kasalliklarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va

oldini olishni o'rganadigan fan.

hygiene – tashqi muhit va ishlab-chiqarish faoliyatidagi xilma-xil omil-

larning odam sog'lig'i va umriga ta'sirini o'rganadigan fan.

histologia – jonli a'zo to'qimalari rivojlanishini o'rganadigan fan.

immunologia – odam a'zolarining biron-bir kasallikka qarshi turishini

o'rganadigan fan.

iridologia – ko'z rangdor pardasini o'rganadigan fan.

logopaedia – bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularning oldini olishni

o'rganadigan fan.

neurologia – asab sistemasini rivojlanishi, tuzilishi, faoliyati, kasalliklari

va ularni davolashni o'rganadigan fan.



neuropathologia – asab kasalliklarining kelib chiqish sabablari, davolash va oldini olish usullarini o'rganadigan fan.

nosologia – kasalliklar haqidagi fan.

parasitologia – tekinox'o'r qurtlarni har taraflama o'rganadigan fan.

psychologia – ruhiy kasalliklar, ularni davolash, oldini olish usullarini o'rganadigan fan.

reanimatologia – odam a'zolari funksiyasining so'nishi va qayta tiklanishini o'rganadigan fan.

sexopathologia – jinsiy buzilishlarni ilmiy asosda aniqlash, davolash va oldini olishni o'rganadigan fan.

serlogia – immun zardoblar bilan davolashga bog'liq fan.

syndesmologia – suyaklar o'rtasidagi birikma (bo'g'imlar, boylamlar, paylar) ni o'rganadigan fan.

surdologia – kar bo'lib qolish va uning oqibatini o'rganadigan fan.

thanatologia – o'lim sabablarini o'rganadigan fan.

**5. -logus – mutaxassis**

dermatologus – teri kasalliklarini o'rganuvchi mutaxassis

haematologus – qon kasalliklarini o'rganuvchi mutaxassis.

otorhinolaryngologus – quloq, burun va tomoq kasalliklarini o'rganuvchi mutaxassis.

sexopathologus – jinsiy buzilishlarni ilmiy asosda o'rganuvchi mutaxassis.

**6. -algia – og'riq**

myalgia – mushaklarning og'rishi

aortalgia – aorta qon tomiri sohasidagi og'riq

cephalgia – boshdagi og'riq

brachialgia – qo'lning yuqori qismi (yelka) dan nevrotik yoki vazomotor sababga ko'ra kelib chiqqan og'riq.

**7. -odynia – og'riq**

esophagodynia – qizilo'ngachdagi og'riq

**8. -agra – og'riq**

podagra – organizmda NKlar, purin almashinuvining buzilishi bilan bog'langan kasallik

**9. patho(s) – kasallik**

pathoanatomia – (patologik anatomiya) asosiy meditsina fanlaridan biri: patologik protseslar va kasalliklarni morfologik tekshiruvlar yordamida

o'rganadi.

pathophysilogia – (patologik fiziologiya) patologik protseslarning kelib chiqishi, rivojlanishi va oqibati qonuniyatlari to'g'risidagi fan.

pathologia – kasalliklar, organizmning kasallik holati to'g'risidagi fan.

**10.** -pathia – kasallik

osteopathia – suyak kasalliklarining umumiy nomi.

arthropathia – markaziy nerv sistemasi har xil bo'limlari shikastlanganida paydo bo'ladigan ikkilamchi distrofik bo'g'im kasalligi.

**11.** cardia – yurak

cardiolysis – yopishqoq perikardit kasalligi oqibatida yurakning bitib qolgan qismlarini operatsiya qilib ajratish.

cardiologia – yurak kasalliklari to'g'risidagi fan.

**12.** -graphia – qayd qilish

cardiographia – yurak qisqarishini qayt qilish usuli.

cardiocentesis – yurakka sanchish (igna bilan), yurakni punksiya qilish.

**13.** arthro(n) – bo'g'im

arthralgia – bo'g'imdagi o'g'riq.

arthritis – bo'g'imlarning yallig'lanish kasalliklari.

**14.** chondro(s) – tog'ay

chondroma – tog'ay to'qimadagi xavfsiz o'sma

chondrogenesis – tog'ayning rivojlanishi

**15.** desmo(s) – birikish

syndesmologia – anatomiyaning suyaklararo birlashishni o'rganuvchi bo'limi

desmurgia – bog'lamlar va har xil jarohatlarda va kasalliklarda ularni to'g'ri ishlatish va boylash to'g'risidagi ta'limot

**16.** cystis-pufak

cystitis – qovuqni yallig'lanishi

cystogramma – siydik pufagini rentgen tushirilgan tasviri

cystographia – siydik pufagini rentgenga tushirish

cystolithiasis – qovuqda toshlar borligi yoki paydo bo'lishi

cystoplegia – qovuq falaji

cystoscopya – siydik chiqarish kanali orqali qovuqqa kiritiladigan tsistoskop yordamida qovuqning ichki yuzasini tekshirish usuli

**17.** chole – o't

cholecystitis – o't pufagining yallig'lanishi

cholecystectasia – o‘t pufagini kengayishi  
cholelithiasis – o‘t toshi kasaligi  
cholestasis – o‘t suyuqligining dimlanib qolishi

## 2-Qism

### 1. angio(n) – tomir

angiologia – tomirlar haqidagi fan

angiopathia – tomirlar kasallanishi

angiographia – tomirlar rentgenografiyasi

### 2. phlebo – vena

phleborrhexis – venalar yorilishi

phlebographia – venalarning rentgenografiyasi (surati)

phleborrhagia – venadan qon ketish

phlebotomia – qonni chiqarish uchun venani kesish

### 3. -ectasia – kengayish

phleboectasia – vena tomirlarining kengayishi.

coloectasia – yo‘g‘on ichakning kengayishi.

### 4. -stenosis – teshik yoki kanal torayishi

angiostenosis – tomirlar torayishi

esophagostenosis – qizilo‘ngach torayishi

### 5. derma – teri

dermatologia – teri kasalliklari va ularni davolash usullarini o‘rganadigan fan

dermatologus – teri kasalliklarini davolaydigan mutaxassis, vrach

dermatomycosis – terining zamburug‘li kasaligi

dermatosis – terining har xil zararlanishining umumiy nomi

### 6. gero(n) – qari

geriatria – keksalarda uchraydigan kasalliklar hamda ularni davolash haqidagi fan

gerontologia – tirik organizmlar, shu jumladan odam qarishi qonuniyatlarini o‘rganadigan biologiya va meditsinaning bir bo‘limi

### 7. anthropo(s) – odam

anthropologia – odamning kelib chiqishi va evolyutsiyasini o‘rganuvchi bo‘limi

anthropophobia – odamlar bilan munosabatda bo‘lishdan qo‘rqish, vahimaga tushish.

8. paedion – bola

paediatr – bolalar kasalliklarini davolaydigan vrach

9. paedio – tarbiyalayman va o‘qitaman

10. -paedia – to‘g‘rilash

logopaedia – nutqdagi nuqsonlarni to‘g‘rilash

11. -iatio(s) – shifokor

12. -iater – mutaxassis

psychiater – ruhiy kasalliklarni davolovchi mutaxassis

13. -iatria – davolash haqidagi ta‘limot

psychiatria – ruhiy kasalliklarni davolash haqidagi fan

heriatria – yoshi o‘tgan va keksalarda uchraydigan kasalliklar hamda ularni davolash haqidagi fan.

phthisiatria – meditsinaning o‘pka sili, uni davolash va profilaktika qilish metodlarini o‘rganadigan bo‘limi.

paediatria – bolalar kasalliklari, ularni davolash va oldini olish to‘g‘risidagi fan.

14. -therapia – davolash (meditsinaning odamning ichki kasalliklarini va ularni davolash usullarini o‘rganadigan bo‘limi)

hydrotherapia – suv bilan davolash.

15. ortho(s) – tug‘ma nuqsonlarni to‘g‘rilash

orthopaedia – tug‘ma va orttirilgan mayibliklarni o‘rganuvchi meditsina bo‘limi

16. physis – tabiat, o‘shish, tarmoq

physiologia – organizmdagi jarayonlarni o‘rganadigan fan.

physiotherapia – 1) odam organizmiga tashqi muhitning fizikaviy omillarini davolash va profilaktika maqsadida ta‘sir ettirish; 2) meditsina sohasi.

### 3-Qism

1. cytu(s) – hujayra

cytodiagnostica – hujayra elementlarini mikroskopik tekshirish yo‘li bilan kasalliklarni aniqlash usuli.

cytologia – hujayralarning tuzulishi, rivojlanishi va funksiyasini o‘rganadigan fan.

cytolysis – gidrolik fermentlar ta'sirida hujayra strukturasi komponentlarining to'liq yoki qisman erishidan hujayraning yemirilishi.

## 2. erythro(s) – qizil

erythema – qon oqib kelishi tufayli terini ayrim qismlarining qizarishi,  
erythrocytus – qizil qon tanachalari.

erythropoësis – qizil qon tanachalarining hosil bo'lishi.

## 3. leuco(s) – oq

leuconychia-tirnoqlarda oq dog'lar paydo bo'lishi bilan ta'riflanadigan kasallik.

leucopenia – periferik qonda leykotsitlar sonining kamayishi.

leucotomia – miya ichida joylashgan patologik protses o'chogviga yo'l ochish maqsadida yoki bosh miyaning o'tkazuv yo'llarini kesish uchun bosh miyaning oq to'qimasini (moddasini) operatsiya yo'li bilan kesib ochish.

leucocytogenesis – leykotsitlarni hosil bo'lishi.

leucocytus – oq qon tanachalari.

## 4. glyco – shirin, qand.

glycaemia-qonda glyukoza (shakar) bo'lishi

glycogenolysis – glikogenning parchalanishi va glyukozaga aylanishi.

glycosuria – siydik bilan glyukozaning ajralib chiqishi, bu qandli diabetesning asosiy elementlaridan biri.

glyconeogenesis – karbon suvlarining protein (oqsil)lar va yog'lardan hosil bo'lishi.

## 5. haema-qon

haemoglobinum – odam, umurtqalilar va umurtqasiz hayvonlar ko'pchiligining qonidagi temir tutuvchi pigment, u o'pkalardan(yoki bosnqa nafas a'zolaridan) kislorodni to'qimalarga, to'qimalardan karbonat angidridni o'pkalarga tashib yurish vazifasini o'taydi.

haemoglobinuria – qon tomir ichi gemolizi tufayli siydikda gemoglobin paydo bo'lishi.

haemogramma -- qon tarkibining miqdor va sifat tekshiruvlari natijasi.

haemoglobinometrum – qondagi gemoglobin miqdorini aniqlaydigan asbob.

haemopneumothorax – plevra bo'shlig'iga qon va havo yig'ilishi.

haematospermia – shaxvatda qon bo'lishi.

haematoma – qonga to'lgan chegaralangan bo'shliq

## 6. -aemia – qon tarkibi

anaemia – kamqonlik

toxaemia – qonda zaharli modda bo'lishi

7. phago(s) – hazm qilish

phagosomato – fagotsitoz oqimida tsitoplazmada hosil bo'ladigan pufakchalar.

phagothetapia – ayrim yuqumli kasalliklarda davo va profilaktika maqsadlarida bakteriofaglarni ishlatish.

phagocytus – organizmda zarrachalarni hazm qilish qobiliyatiga ega bo'lgan hujayralar

8. hydr – suv

hydrarthrosis – bo'g'in bo'shlig'ida suv yig'ilishi atrof to'qimalar yallig'lanishini ko'rsatadi.

hydraemia – qonda suv miqdorining ortib ketishi, qonning suyulishi (kamqonlikda, yurak va buyrak kasalliklarida bo'ladi).

hydrops – istisqo, tana bo'shliqlariga sariq suvning yig'ilishi.

hydrosalpinx – bachadon nayining qoringa tegishli uchi yopishib beki-lishi oqibatida shu nayda suvli suyuqlik dimlanib qolishi.

hydrophthalmis – ko'z ichki bosimi ortishi, ko'z soqqasining cho'zilishi va ko'z nurining pasayishi bilan ta'riflanadigan tug'ma kasallik.

9. lipo(s) – moy, yog'

lipasae – lipazalar, yog'larni glitserin va yog' kislotalarga parchalagan fermentlar guruhi.

lipaemia – tom ma'noda qonda moy bo'lishi demakdir, lekin odatda lipemiya so'zi bilan qonda ko'p miqdorda moy bo'lishi ifodalanadi.

lipodystrophia – yog' almashinuvining buzilishi.

lipoida – lipidlar, organik eritmalarda eriydigan, ammo suvda erimaydigan yog'simon organik moddalar.

lipoma – yo'q to'qimadan rivojlanadigan xavfsiz o'sma.

lipomatosis – yog' oksidlanishi protsessi susayishi bilan kechadigan umumiy modda almashinuvi buzilishi oqibatida hujayralar va to'qimalarda yog'ning ko'p miqdorda o'tirib qolishi.

10. -penia – yetishmaslik

leucopenia – periferik qonda leykositlar sonining kamayishi.

11. -lysis – buzilish, yetishmaslik

haemolysis – eritrotsitlarning yemirilish jarayoni; bunda eritrotsit tarki-bidagi gemoglobin plazmaga o'tib ketadi.



12. -poësis – hosil bo‘lish, paydo bo‘lish,  
haemopoësis – qon yaratilishi – qon shaklli elementlari (qizil va oq qon tanachalari) ning hosil bo‘lishi

13. -stasis – to‘xtash

haemostasis – 1. qon oqishining to‘xtashi (ivish); 2. gavdaning ayrim qismlarida qon tomirlarda qon yurishining to‘xtab qolishi.

#### 4-Qism

1. -gramma – tasvir (yozib qo‘yish)

electrocardiogramma – elektr toki yordamida yurakni tushirilgan tasviri.

2. -graphia – qayd qilish

phlebographia – venalarni rentgen bilan tekshirish

3. -scopia – maxsus asbob bilan tekshirish

bioscopia – tirik organism qismlarini ko‘zdan kechirish

4. myo(s) – mushak

myoblasti – mioblastlar, ko‘ndalang- targ‘il mushak tolasi hosil bo‘ladigan mushak murtagining bir yadroli yoysimon hujayralari.

myoglobinum – mioglobin, ishlab turgan mushaklarda bir oz miqdor kislorod jamg‘arilishini ta‘minlab beradigan globulyar oqsil, mushak gemoglobini.

myositis – miozit, sklet mushaklarining yallig‘lanishi

myocardium – yurak mushagi, yurak qavatining mushak deivoir.

myologia – mushaklar to‘g‘risidagi fan, anatomiyaning harakat apparatining aktiv tuzilmalari bo‘lgan skelet mushaklarini o‘rganadigan bo‘limi.

myorrhexis – mioreksis, mushak uzilishi.

myospasmus – miospazm, mushaklarning tortishib qisqarishi, mushaklar changagi.

5. histo(s) – to‘qima

histocyt – gistotsitlar, umurtqalilarning yumshoq biriktiruvchi to‘qimasi mahalliy hujayralarining asosiy xillaridan biri.

histolysis – gistoliz, organism to‘qimalarining proteolitik fermentlar vositasi bilan parchalanishi, erib shimilishi.

histologia – jonli organizmlar to‘qimalarining rivojlanishi, tuzilishi va faoliyati haqidagi ta‘limot (fan).

histona – gistonlar, hujayra mag‘izlarining tarkibiy qismi, ishqoriy

xususiyatga ega oqsillar.

6. -sclerosis – qattiqlashish

enterosclerosis – ichaklarni qattiqlashishi.

osteosclerosis – ortiqcha suyak to‘qimasi hosil bo‘lishi natijasida suyaklarning qattiqlashishi.

7. nephro(s) – buyrak

nephrosis – nefroz, buyrak naychalari epiteliysining distrofiyasi va o‘lishi bilan o‘tadigan buyrak kasalligi.

nephrolithiasis – nefrolitiaz, buyrak tosh kasalligi, ko‘pincha buyrak jomida va kamdan-kam buyrakning o‘zida (buyrak naylarida) konkrementlar (qum yoki toshlar) paydo bo‘lishi bilan o‘tadigan kasallik.

nephropathia – buyraklarning xilma–xil kasalliklarini belgilash uchun qo‘llaniladigan termin.

nephroptosis – nefroptoza, buyrakning past joylashishi, harakatchan buyrak, sayyor buyrak.

nephrosclerosis – nefroskleroz, biriktiruvchi to‘qima o‘sib ketishi natijasida buyraklarning qattiqlashishi va bujmayishi.

nephrotomia – nefrotomiya, buyrakni buyrak jomigacha kesish.

nephrocirrhosis – nefrotsirroza, buyraklarning bujmayishi, bujmaygan buyrak.

8. pyelo(s) – buyrak jomi

pyelitis – buyrak jomchasini yallig‘lanishi.

pyelotomia – buyrak jomchasini operativ yo‘l bilan ochish.

pyeloectasia – buyrak jomchasini kengayishi.

9. -uria – siydik

lithuria – siydikda qumning ajralishi.

uraemia – buyraklardan ajralib chiqadigan moddalarning qonda ushlanib qolishidan iborat bo‘lgan patologik holat.

10. litho(s) – tosh

lithiasis – tosh kasalligi, asosan buyraklarda, qovuqda va o‘t pufagida tosh hosil bo‘lishi.

lithotomia – (toshni olib tashlash) – o‘t pufagi, qovuq, buyrak, va boshqa a‘zolarida paydo bo‘lgan tosh (lar) ni operatsiya yo‘li bilan olib tashlash.

lithotripsia – (toshni maydalash) – maxsus asbob (litotriptor) yordamida siydik yo‘llaridagi, qovuqdagi toshni maydalab olib tashlash.

11. -stoma – og‘iz

stomatitis – og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatining yallig‘lanishi va uning distrofik o‘zgarishlari.

stomatologus – og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklarini davolovchi shifokor.

stomatorrhagia – milklarning qonashi.

12. -stomia – sun‘iy teshik qo‘yish

choledochostomia – o‘t yo‘lida sun‘iy teshik ochish.

enterostomia – jarrohlik yo‘li bilan ingichka ichakdan teshik ochish.

13. crino – ajratish

endocrinologia – ichki sekretiya bezlarini o‘rganuvchi fan.

14. -ptosis – pastlashish, siljish

gastroptosis – me‘daning pastga tushishi

splenoptosis – taloqning pastga tushishi

15. entero(n) – ichak

enteralgia – ichak sanchig‘i, qattiq og‘rishi.

enteritis – ingichka ichaklarning yallig‘lanishi

enteranastomosis (ichak anastomози) – ingichka ichakning ikkita qovuzlogi o‘rtasida hirurgik usulda yo‘l hosil qilish

enterobiasis – oksiriaz – ocritsa gijjalari keltirib chiqaradigan, ko‘p uchraydigan gijja kasalliklaridan biri.

enterohaemorrhagia – ichakdan qon oqishi.

enterokinaza – ingichka ichak shirasidagi ferment. Enterokinaza ta‘sirida tripsinogen tripsinga aylanadi.

enterolithus – hazm bo‘lmaydigan qattiq moddalar va ularda o‘tirib qolgan tuzlardan hosil bo‘ladigan ichak toshi.

16. colo(n) – yo‘g‘on ichak

colitis – yo‘g‘on ichak shilliq pardasining yallig‘lanishi.

colopexia – yo‘g‘on ichakning biror bo‘limini sun‘iy ravishda qorin devorining tegishli joyiga birlashtirib qo‘yish.

colostomia – yo‘g‘on ichakning biror qismidan operatsiya yo‘li bilan yo‘l ochib qo‘yish.

17. -pexia – qoplash, mustahkamlash

hepatopexia – jigarni qoplash.

18. -tomia – kesish, yorish

myotomia – mushaklarni operativ yo‘l bilan kesish

osteotomia – suyakni kesish, suyaklar va bo‘g‘imlardagi har xil patologik protseslar natijasida oyoq-qo‘lda vujudga kelgan nuqsonni yo‘qotish uchun

qilinadigan operatsiya.

19. -ectomy – olib tashlash

keratectomia – koʻz shox pardasini olib tashlash.

neurectomia – nervni olib tashlash(kesish).

splenoectomy – taloqni olib tashlash.

20. mono(s) – bitta

monarthrit – koʻpincha soʻzak yoki sil tufayli faqat bitta boʻgʻimning yalligʻlanishi.

monographia – bir mavzuda bir savolni koʻrib chiqish.

monoplegia – bitta oyoq-qoʻl yoki faqat bitta mushak guruhining falajlanishi.

monorchismus – bir moyakning tugʻma yoʻqligi.

monophobia – yolgʻizlikdan qoʻrqish.

monocyt – oq qon tanachalari (leykotsitlar) xillaridan biri; leykoplazmasi nisbatan keng jiyakli va yadrosi markazida yoki chetroqda joylashgan eng katta oq qon tanachasi.

21. polo(s) – koʻp

polymorphus – koʻp obrazli.

polyarthrit – boʻgʻimlarning birdaniga yoki ketma-ket yalligʻlanishi.

polymenorrhoea – kunlari(6 kundan 12 kungacha) choʻzilib ketgan hayz.

polymorphus – koʻp obrazli.

polyneuritis – koʻplab nerv tolalarining yalligʻlanishi.

polynuclearis – koʻp yadroga tegishli

22. pas, pan – barcha

panhidrosis – badanning haddan tashqari terlashi.

pandemia – epidemiya – bir mamlakat territoriyasida, baʼzan esa jahonning koʻp mamlakatlarida yuqumli kasallik tarqalishi bilan taʼriflanadi.

panmyelophthisis – (“koʻmik zaifligi”, aplastik kamqonlik) – qon sistemasining koʻmikni qayta tiklab boʻlmaydigan nuqsoni va koʻmik gʻovaklarida yogʻ toʻqimasi paydo boʻlishi, qon yaratilishining keskin susayishi bilan oʻtadigan kasalligi.

panplegia – falaj, tananing xarakatsizligi

23. ophtalmo(s) – koʻz

ophthalmoblennorrhoea – koʻz konʻyuktivasining yiringli yalligʻlanishi; soʻlakli konʻyuktivit.

ophthalmomalacia – koʻzning juda kam uchraydigan kasalligi; koʻz

ichki bosimi anchagina pasayib ketib, bu- og'riq va ko'zning ta'sirlanishi bilan o'tadi.

ophthalmoscopya – ko'zning ichini tekshirish

24. rhino – burun

rhinitis – burunni yallig'lanishi

rhinalgia – burundagi o'g'riq

25. us(oto) – quloq

otitis – quloq yallig'lanishi.

otoblennorrhoea – o'rta quloq yallig'langanida quloqdan shilliq-yiringli yoki yiringli suyuqlik oqib chiqishi.

otologia – meditsinaning quloq anatomiyasi, patologiyasi, fiziologiyasi va kasalliklarini davolashga bag'ishlangan bo'limi.

otorhinolaryngologia – quloq, burun va tomoq(yutqin, hiqildoq, traxeya) va ularga yondosh sohalar kasalliklari to'g'risidagi fan.

otorrhagia – bitta yoki ikkala quloqdan qon oqishi.

otosclerosis – o'rta quloqni ichki quloq bilan biriktirib turadigan oval darcha sohasida suyak to'qimasi o'sib ketishi bilan xarakterlanadigan quloq kasalligi.

26. -opsia – tekshirish

biopsia – diagnostika maqsadida ko'zdan kechirish mikroskopda tekshirish uchun tirik to'qima yoki organi kesib olish

## 5-Qism

1. -trophia – oziqlanish

myotrophia – mushakni oziqlanishi.

hypertrophia – oziqlanishning ko'payishi.

2. auto(s) – o'zi, o'ziniki

autohaemotherapia – odamni o'z qoni bilan davolash

autointoxicatio – o'z organizmida ishlab chiqadigan zaharli moddalardan zaharlanish

autoplastica – bemorning o'z to'qima yoki organini boshqa joyga ulash. o'tkazish.

autoreproductio – organism yoki bo'laklarining takror ishlab chiqarish qobiliyatiga egaligi, shuningdek viruslarning ma'lum muddatga dastlabkiga o'xshash tuzilmalar sintez qila olishi.

autoscopia – til ildizini pastga va oldinga bosib, xiqildoqni ko'zgisiz tekshirish.

autosoma – jinsiy xromosadan boshqa xromosolarning umumiy nomi.

autotransfusia – (aytoinfuziya) – oyoqlarni ko'tarish. o'rab bog'lash yoki qorin aortasini bosish yordami bilan: qonni yurak tomonga yuborish.

3. -allo(s) – boshqa

allopathia – rasmiy tibbiyotda qo'laniladigan umumiy qabul qilingan davolash usullari.

alloplastica – odamning organ va to'qimalarini tiklashda nobiologik materiallar (metallar, paraffin, mum, organik shisha, plastik massalar, sintetik tolalar va boshqalar)dan foydalanadigan plastik xirurgik usul.

4. -ergia – sezuvchanli

allergia – sezuvchanlikni oshishi

5. -hetero(s) – har xil

heterophobia – har xil narsadan qo'rqish.

heteroplastica – hayvonlar to'qimalarini yoki a'zolarini odamga ko'chirib o'tqazish.

6. -genesis – paydo bo'lish

heterogenesis – kelib chiqishi har xil, turli-tuman.

7. homeo(s) – bir xil

homeopathia – gomopatiya (bir xil kasallanish).

homoistasis – organism o'z ichki muhiti tarkibini doimo bir xil saqlab turish xususiyati.

homoplastica – bir individuumdan (ya'ni o'ziga mustaqil har bir tirik organizm) o'sha turdagi boshqa individuumda to'qimalarni yoki a'zolari to'sqinsiz o'tkazish: odamdan-odamga, maymundan – maymunga, itdan-itga va hokazo.

8. -tonia – bosim ortishi

hypertonia – arterial qon bosimini ortishi

hypertrichosis – sochlarning haddan tashqari ko'p o'sishi.

hypertrophia – to'qima, a'zo yoki uning bir qismi hajmining kattalashuvi.

hyperchloraemia – qondagi xloridlar miqdorining ortib ketishi.

hyperchloruria – siydikda xloridlar miqdorining ko'p bo'lishi.

hypercholesterinaemia – qonda xolestirin miqdorini ko'payishi.

9. -thermia – isitish

hypotermia – organizmni sovitish(issiq qonli).



thermoregulation – (issiqlikni boshqarish) tana haroratini doimiy darajada tutib turadigan odam organizmidagi fiziologik jarayonlar yig'indisi

10. -morphia – ko'rinish

amorphis – formasiz (shaklsiz).

morphogenesis – organism organlari, sistemalari va tana qismlarining ham individual (ontogenez), ham tarixiy yoki evolyutsion taraqqiyotda (filogenez) shakllanishi va rivojlanishi.

morphologia – organizmlarning onto- va filogenetik taraqqiyotida shakli va tuzilishi to'g'risidagi ta'limot.

11. dromo(s)

syndromum – patologik holatni xarakterlaydigan va umumiy patogenez bilan birlashgan belgilar guruhi

12. dynami(s) – kuch

adynamia – kuchsizlanish.

dynamometria – har xil mushak guruhlari kuchini o'lchaydigan usul.

## 6-Qism

1. oxy(s) – nordon

oxygenium – kislarod

oxyphilia – hujayra tuzilmalarining nordon bo'yoqlar bilan bo'yalish xususiyati.

2. spondylo(s) – umurtqa

spondylitis – umurtqa yallig'lanishi

spondylodinia – umurtqa og'rig'i

spondylosis – odam umurtqasi o'rtasidagi bo'gimlarning xronik degenerative kasalligi.

spondylarthrititis – (Shtryumpel – Bexterev – mari kasalligi) – odamning umurtqa pog'onasi bo'gimlarining uzoq davom etadigan sistemli kasalligi: ko'pincha umurtqa pog'onasining harakatsizlanishiga (suyaklanishiga) olib keladi.

spondylarthrosis – odam umurtqa pog'onasidagi mayda bo'gimlarning xronik degenerativ kasalligi: ko'pincha umurtqa pog'onasining bel yoki bo'yin qismida paydo bo'ladi va spondilyoz bilan birga vujudga keladi.

3. myelo(s) – orqa miya

myelitis – orqa miyani yallig'lanishi

osteomyelitis – miya suyagini yallig‘lanishi

myelinatio – rivojlanish va tiklanish jarayonida nerv tolasining o‘q silindri atrofida myelin hosil bo‘lish protsessi.

myelographia – umirtqa pog‘onasi kanaliga uning o‘tkazuvchanligini aniqlash, bitish (obturatsiya)ga olib keladigan protsessni topish va kanalning balandligi, uzunligi va xususiyatini bilish contrast moddalar yuborish.

myeloma – (myeloma, mielomatoz va boshqalar), asosan skelet suyaklarining sistemli shikastlanishi, retikuloplazmatik hujayralarining o‘sma tipida ko‘payishi va suyaklarda destruktiv o‘z o‘zidan sinishga moyillik o‘zgarishlari bilan harakterlanadi.

myelomalacia – orqamiyaning tromboz, emboliya yallig‘lanish yoki bosilib qolish natijasida yumshashi.

myelomeningitis – orqa miya va pardalarining yallig‘lanishi.

myelocytus – sitoplazmasida o‘ziga xos donachalari bor ko‘mik hujayrasi; ko‘mik kasalliklarida, mielogen leykemiyada va b. da periferik qonda paydo bo‘ladi.

myelocephalon – rombsimon miyaning orqa qismi, uzunchoq qismi.

4. polio(s) – kulrang

polymyelitis – markaziy nerv sistemasining viruslar keltirib chiqaradigan o‘tkir kasalligi.

polioencephalitis – bosh miya kul rang moddasining yallig‘lanishi.

5. malacia – yumshash

osteomalacia – mineral moddalar almashinuvining buzilishi; asosan suyak to‘qimasining shikastlanishi bilan o‘tib, suyaklar yumshab va qiyshayib qoladi.

myomalacia – mushaklarning yumshashi

6. cephalo – bosh

cephalalgia – bosh og‘rig‘i.

cephalohaematoma – chaqaloq boshining “qon o‘smasi”, kalla suyaklarining tashqi yuzasi bilan suyak usti pardasi qon quyulishidan hosil bo‘ladi.

7. encephalo(n) – bosh miya

encephalopathia – bosh miyaning yallig‘lanishiga aloqador bo‘lmagan shikastlanishini ifodalaydigan jamlovchi termin.

encephalographia – oldinda kontrast modda yuborib, bosh miyani rengen nurlari bilan tekshirish metodi.

encephalon – organizmning barcha funksiyalarini boshqarib turadigan

regulyator: oldingi miya, o'rtamiya, ortqimiya, uzunchoq miyadan tashkit topgan.

encephalocèle – miya churrasi; kallaning muqsonli joyidan miya moddasining tug'ma yoki bo'rtib chiqishi.

8. megalos(s) – katta

hepatomegalia – jigarning haddan tashqari kattalashishi.

macroscopicus – “asbobsiz” ko'rish

megaloblasti – yetilmagan yadrosi bor qizil qon hujayralari.

megacolon – odam yo'g'on ichagining qisman yoki boricha kattalashuvi.

megalosplenia – taloqning haddan ortiq katta bo'lishi; ko'pincha qon kasalliklarida paydo bo'ladi.

megalocephalia – miyaning bir me'yorda tekis (proportsional) bosh istisqosiz kattalashuvi.

megalocytus – bir tekis toq bo'yalgan anomal eritrotsit (mas; xavfli kamqonlikda uchraydi)

9. meso(s) – o'rtamiya

mesaxon – akson joylashadigan shvani hujayralarining qarama-qarshi qirralari yaqinlashishi natijasida hosil bo'ladigan ikki qavatli parda.

mesaortitis – aorta devorining (o'rtamiya va tashqi qavatlarining) yallig'lanishi.

mesarteriitis – arteriya devori o'rtamiya qavatining yallig'lanishi.

mesenterium – (mezenteriy, ichak tutqich) qorindagi har bir a'zo oyoqchasini qoplab qorin devoriga biriktirib turadigan qorin pardasining burmasi.

mesenchyma – pusht biriktiruvchi to'qima.

mesoadenitis (mezenterint) – bolalik va yoshlik davrida uchraydigan ichak tutqichlar limfatik bezlarining yallig'lanishi.

mesovarium – tuxumdon tutqichi; bachadon serbar boylamining orqa yadrosi qismi.

mesogastrium – qorinning o'rtamiya qismi, me'da tutqichi.

mesoderma (mesoblastys) – pusht o'rtamiya yaprog'i yoki blast.

mesocolon – yo'g'on ichak tutqichi.

mesosalpinx – bachadon nayi tutqichi, bachadon serbar boylamining qismi.

mesencephalon – bosh miyaning Varoli ko'prigi va oraliq miya o'rtasida joylashgan qismi.

10. micro(s) – kichik

microscopium – ko‘z bilan bevosita tekshirib bo‘lmaydigan mayda

lensalarni ko‘rish uchun ishlatiladigan optik asbob.

microcythaemia – qonda mayda qon tanachalari bo‘lishi.

microelementa – o‘simlik va hayvonlar organizmida juda kam miqdorda bo‘ladigan kimyoviy elementlar.

microchirurgia(micrurgia) – (hujayralarning mikroskop xirurgiyasi)-  
tsitologik tekshiruvlarda metodik usullar majmuasi. Shu usullar bilan  
hujayrada har xil operatsiyalar o‘tkaziladi: dorilar yuboriladi, hujayraning  
tarkibiy qismlarini kesib olib tashlanadi yoki boshqa joyga o‘tkaziladi,  
hujayra kesiladi, igna sanchiladi.

11. oligo(s) – kichikroq

oligaemia – qon miqdorining kamayishi

oligophrenia – sababiga ko‘ra har xil tug‘ma esi pastlik va rivojlanmay  
qolishidan iborat kasalliklar guruhi

oliguria – buyraklar ajratadigan siydik miqdorini kamayishi.

12. phobia – qo‘rqish

cancerphobia – Xavfli o‘sma(rak) kasalligiga yo‘liqib qolish  
vahimasi(qo‘rqish). cremnophobia – pastlikdan qo‘qish.

megalophobia – normaga nisbatan kattalashib ketishdan qo‘rqish.

obezophobia – semizlikdan qo‘rqish.

plegophobia – shol bo‘lishdan qo‘rqish.

## 7-Qism

1. myce(s) – zamburug‘

mycosis – odam va hayvonlarning zamburug‘li kasalliklari

dermatomycosis – terining zamburug‘li kasalligi

2. mneme(mnesia-) – xotira

mnemastenia – xotira kuchsizlanishi.

amnesia – xotiraning yo‘q bo‘lishi.

3. tropos – yo‘nalish

4. topo(s) – joy

topalgia – joy og‘rig‘i.

topophobia – joydan qo‘rqish

5. rrhagia – qon oqishi

haemorrhagia – qon tomir devori buzilishi natijasida undan qon oqishi,  
suvda bo‘shliqlariga va to‘qimaga qon quyilishi.

- 6. rrhaphia – tikish
- gastrraphia – me'dani tikish
- angiorrhaphia – qon tomirni tikish
- enterorrhaphia – ichakni tikish

11. gyne – ayol

gynaecologia – ayollar jinsiy kasalliklarini o'rganadigan fan.

gynaecomastia – erkaklar ko'rak bezlarining kattalashishi.

12. pyr – issiq

amidopyrinum – amidopirin

pyrogenesis – tana haroratining ko'tarilishi

13. chroma – rang

achromatopisia – rangni ko'rmaslik.

chromatodysopia – rangni ko'rishni buzilishi

chromatinum – DNK va gistonlar tarkibiga kiradigan murakkab oqsil, yadro hujayralarining asosiy bo'yoqlar bilan yaxshi bo'yaladigan mod-dasi.

chromatophori – sitoplazmasida ko'p miqdorda pigment donachalari bor hujayralar.

chromoproteida – murakkab oqsillar; oqsilning rangli prostetik gruppalar bilan birikmasi.

chromosomata – hujayra yadrosining ipsimon, o'z-o'zidan paydo bo'ladigan murakkab taxassuslashgan, irsiyat faktorlari(genlar)ni chiziq tarkibida tutgan struktur elementlar.

## 8-Qism

1. steno(s) – stenia – kuch

asthenia – umumiy holsizlik; astenik sindrom- jismoniy va aqliy ishga qobiliyatning uzoq vaqt yo'qolishi yoki tez charchash va toliqish bilan ifodalanadigan kuchsizlik.

myasthenia – mushaklar kuchsizlanishi va patologik toliqishi bilan xarakterlanadigan kasallik.

angiasthenia – tomirlar kuchsizlanishi

2. plastica – asl holga keltirish uchun o'tkazilgan plastik operatsiya

blepharoplastica – qovoqlar va qismlarini tiklash maqsadida o'tkaziladigan plastik operatsiya

3. plegia – falaj

irioptegia – ko‘z rangdor pardasi falaji.

cardioptegia – yurak falaji, yurak zarbasi.

4. chylo(s) – sut shirasi

chyluria – buyrakning kengaygan limfa tomirlaridan chiqadigan sut shirasining siydikda bo‘lishi.

chylus – sut shirasi; qorin bo‘shlig‘ining limfa tomirlari bo‘ylab ichaklardan ko‘krak yo‘liga oqadigan sutsimon oq (tarkibida yog‘lar borligidan) suyuqlik.

5. odonto – tish

odontalgia – tishlardagi og‘riq.

odontoblasti – tish dentini hosil qiladigan biriktiruvchi to‘qima hujayralari.

tumores odontogeni – odatda jag‘larda uchrab, tish hosil bo‘lish protsessi bilan bog‘langan o‘smalar guruhi.

odontologia – tish kasalliklari va ularni davolash haqidagi ta‘limot; stomatologia bo‘limi.

odontoma – har xil (yumshoq va qattiq) tish to‘qimalari yig‘indisidan iborat o‘sma (tishda o‘sma)

odontorrhagia – tishni oldirgandan so‘ng ko‘p qonashi

odontitis – tishning yallig‘lanishi

6. onco(s) – o‘sma

oncologia – o‘smalar haqidagi meditsina bo‘limi

7. pneumo(n) – o‘pka

pneumolithus – o‘pkadagi tosh bo‘lib qotib qolgan tuzilma.

pneumonia – o‘pkaning yallig‘lanishi

pneumoectomy – o‘pkani batamom olib tashlash operatsiyasi.

pneumosclerosis – o‘pkalarda chandiq biriktiruvchi to‘qima o‘sib ketishi, ular funksiyasini buzilishiga olib keladi.

pneumotherapy – zaryadsizlantirilgan yoki elektr zaryadi bilan boyitilgan havoni nafasga olish yordamida (pneumatik kamerada) o‘pka kasalligini davolash.

pneumotomy – o‘pkani qirqish. O‘pkadagi yiringli bo‘shliqni ochish uchun qo‘llaniladigan operatsiya.

pneumothorax – plevraning vistseral va parietal varaqlari o‘rtasida havo yig‘ilishi bilan xarakterlanadigan patologik holat.



P. artificialis – sun'iy pnevmotoraks – davo maqsadida plevra bo'shlig'iga havo yuborish.

oedema pulmonum – pnevmoedema – o'pkalarning kerkishi.

8. pyo(n) – yiring

pyodermia – yiring hosil qiluvchi kokklar ta'sirida terining yiringli shikastlanishi.

pyometra – bachadon ichida yiring to'planishi.

pyopericardum – yurak xaltasida yiring to'planishi.

pyophtalmia – ko'z sohasining yiringli yallig'lanishi.

pyosalpinx – bachadon nayi (Fallopiy nayi) da yiring to'planishi, yiringli xaltaga aylangan bachadon nayi.

9. kinesi(s) – harakat

kinesitherapia – aktiv va passiv harakatlar bilan davolash; davolash gimnastikasi.

kinaesthesia – tananing birona qismi holatini yoki harakat yo'nalishini sezish. (mushak sezishi).

10. thrombo(s) – quyuglanish

thrombinum (thrombosinum) – qonning ivishiga olib keladigan ferment.

thrombosis – tomirlarda tromblar hosil bo'lish protsessi, bu qon oqishini sekinlashtiradi yoki to'xtatadi.

thrombophlebitis – venalarning tromblar tiqilib qolishidan vujudga keladigan yallig'lanish.

thrombocytosis – qonda trombositlar (qon plastinkalari) sonining ko'payishi.

11. toxico(s) – zaharlanish

toxaemia – organizmning toksinlardan zaharlanishi (qonning zaharlanishi)

toxicologia – zaharlar, ularning organizmga ta'siri, zaharlanishga qarshi kurash va ularni davolash to'g'risidagi ta'limot.

toxinum – zahar, ayrim hayvonlar va o'simliklar hosil qiladigan bakteriyalardan ajralib chiqadigan zaharli moddalar.

toxoplasmosis – zoonozlar guruhidagi protozoy etiologiyali kasallik.

## 9-Qism

1. mania – biror narsaga istak paydo bo'lishi

megatomania – buyuklik maniyasi (ruhiy bemorlarda uchraydi).

2. pepsis – ovqatni hazm qilish

pepsinum – me'da shirasining asosiy proteolitik fermenti; proteinazlar guruhiga kiradi. Oksidlarni polipentidlargacha parchalaydi.

3. sepsis – chirish

sepsisaemia – organizm qonining (yiringlashi) infeksiyon jarayon sababli paydo bo'lgan infeksiy kasallik (chirish, yiringlash)

4. splanchno(n) – ichki a'zolar

splanchnologia – anatomiyaning ichki organlarning tuzilishini o'rganadigan bo'limi.

splanchnomegalia – ichki organlarning kattalashishi.

splanchnoptosis – ichki organlarni o'z joyidan siljishi.

5. lympho – limfa

lymphadenitis – limfa tugunlarning o'tkir yoki surunkali yallig'lanishi.

lymphadenoma – limfasimon va bez tarkibiy qismlaridan tuzilgan xavfsiz o'sma.

lymphangioma – limfatik tomirlardan hosil bo'lgan yangi tuzilma; limfatik tomirlar rivojlanishining illati.

lymphangitis – limfatik tomirlarning yallig'lanishi.

lymphangiectasia – limfatik tomirlarning kengayishi

lymphagranulomatosis – limfatik tugunlarning o'smasimon o'sishlari bilan kechadigan kasallik.

lymphapenia – periferik qonda limfotsitlar sonining kamayishi.

lymphasarcoma – limfo retikulyar to'qimadan rivojlanadigan xavfli o'sma.

lymphostasis – limfa oqimining to'xtab qolish.

lymphocytosis – periferik qonda limfositlar sonining ko'payishi; surunkali yuqumli kasalliklarda kuzatiladi.

6. phono – tovush

phonocardiographia – yurak ishidan vujudga keladigan tovush hodisalarini qayd qilish va ularni izohlashdan iborat yurak – tomirlar sistemasini tekshirish metodlaridan biri.

phonendoscopium – tovushlarni kuchaytiradigan, eshitib ko'rish uchun ishlatiladigan asbob.

photophobia – yorug'likdan qo'rqish, yorug'likka qaray olmaslik.

7. phyton – o'simlik

phytotherapia – dorivor o'simliklar bilan davolash.

### III-QISM

#### Dorishunoslik iboralari.

#### Retsept

#### 1-Dars

#### 1-§. Dorivor vositalarning nomlanishi

Dorivor vositalarning nomeklaturasi bu hozirgi davrda qoʻllanilayotgan barcha dorivor vositalar nomining yigʻindisidir.

Dorivor vosita – bu mamlakatning shunday vakolatga ega boʻlgan idorasining odam yoki hayvonlarni kasalliklarini davolash, oldini olish yoki aniqlash maqsadida belgilanadigan tartibda ishlatish uchun ruxsat etilgan farmakologik vositadir.

Dorivor vositalar sifatida qoʻllaniladigan organik kimyoviy moddalar ikkita nomga ega: ilmiy/sistematik(tizimli)/va trivial/shartli(odatdagi)/.

“Trivial” soʻzi lotincha – “trivialis” odatdagi, oddiy soʻzidan kelib chiqqan. Ilmiy nom dorivor moddalarning kimyoviy tarkibini ifodalaydi. Lekin ilmiy nomlar uzun, oʻqilishi qiyin boʻlganligi sababli ularni tibbiyotda ishlatish noqulaylik tugʻdiradi. Shuning uchun dorivor vositalarning ilmiy emas balki trivial nomlari qoʻllaniladi.

Misol uchun:

Ilmiy nomlanishi	Trivial nomlanishi
1. Fenil 2, 3-dimetil, 4. Metilamina pirazon-5-N-metasulfanat natriy	Analgin
Trans-9, 13-dimet-71, 1, 5-trimetilsik- logeksin-5-6-nonatetrasin-7, 9, 11, 13	Retinol/Vitamin A

Dorivor preparatlarning trivial nomlarini nomeklatur komissiyasi beradi. Bunday nomlar quyidagi talablarga toʻgʻri kelishga intiladi: qisqalik, talaffuz osonligi, berilgan nomlarning boshqalardan fonetik farqlanishi bilan trivial nomlar toʻgʻri belgilarni ifodalaydi: kimyoviy tarkibini, farmakologik guruhga mansubligini, davolash taʼsirini va hokazolarni.

Trivial nomlar quyidagi usullar bilan farqlanadi: bitta asosga ega boʻlgan hamda ikkita va undan ortiq asosga ega nomlar.

a) Bitta asosga ega bo'lgan nomlarni –in yoki –ol suffikslarini qo'shish bilan hosil qilish mumkin. Misol uchun:

Streptomycinum/asos/Streptomye, -in suffiks/

Mentholum/asosMentha-/yalpiz/-ol suffiks/

b) Perefektsli- suffiksli usulda asosga perefiks/old qo'shimcha/ va suffiks qo'yiladi. Misol uchun.

Antifebrinum, Antistruminum,

anti- (qarshi)-old qo'shimcha, -in suffiks

febris, is, f –isitma ko'tarilishi

struma, ae, f –bo'qoq

II. Ikkita va undan ortiq asosga ega bo'lgan nomlar quyidagi usullar bilan hosil bo'lishi mumkin.

a) Qo'shish: bu usulda asoslar interfiks/ birlashtiruvchi unli/ yordamida yoki unsiz birlashadi.

Misol uchun:

Haematogenum –gematogen

Haemat+o+gen paydo bo'lishi, rivojlanish /

Apilacum-apilak

/apis – ari –lac-sut/

b) "Abrevatsiya" – qisqartirish so'zi lotincha "brevis" kalta so'zidan olingan. Bu usul bilan so'zlardan ajratib olingan ma'noli bo'laklarning qo'shilishidan qisqartirilgan murakkab so'zlar hosil bo'ladi. Bunday so'zlar abbreviatura deb ataladi:

Misol uchun:

Analphenum-tugmachasimon dorining nomi

Analginum dan – anal qismi, va

Phenacetinum dan – phen olingan.

v) Abbrevatsion suffiksli usulda abbrevaturaga suffiks qo'shiladi

Neriolonum/ /Nerium oleander – Sambitgul/.

Dorivor vositalarning nomlanishida abbrevatura keng qo'llaniladi.

## 2-§. I. Ma'noli so'z yasovchi qismlar va ularning ma'nolari

Ma'no beruvchi qism	Ta'rif-tavsif ma'nosi	Misollar
Aeth-	etil	Aethasolum, Aethacridium
Benz-	benzol guruni	Benzonaphtholum Benzelpencillinum
Glyc-, gluc-	shirin	Glucosum, Glocolon. Glycerinum
Hydr-	suv, vodorod	Hydrocortisonum, Hydroperitum
-Iod-	yod	Diiodthyrazinum
Mers-	simob	Mercoral, Mercurophyllinum
Meth-	metil guruhi	Methylsulfazinum
Naphtha-	qora moy/neft/	Naphthalanum Naphthizonum
Oxy-	nordon, kislorod	Oxytetracyclinum, Oxacillinum
Phen-	fenil guruhi	Phenalginum, Phenabarbitalum,
Sulfa- Thio-	oltingugurt sulfat bu tarkibida oltingugurt atomi kiradigan birikma	Norsulfasorum, Sulfapyridazinum Thiopentalum-natrium, tiaminum
-Zid-, -zin-, -zol-, -zon-	azot guruhi	Aminazinum, Norsulfazolum

### Mustaqil ishlash uchun mashqlar

1. O'qing va ma'lum chastotali bo'laklarni ajrating.

*Hexamethylentetraminum, Phenolphthaleinum, Moffeinum – natrii benzoas, Methyl salicylas, Aethylmorphini hydrochloridum, Methylsulfazinum, Benzonaphtholum, Glycophage, Glyciranium, Mercloran, Mercaphamidum, Mercazolium, Benzacillia, Benzestrolum,*

2. Lotincha yozing:

*Sulfadimezin, etilmorfin, etilmizol, benzobail, benzamil, glyutamizol, glikoran, gidroksidramin, gidrargirum, merkupurin, merkusal, metilprednizalon, tiidirin, metiluratsilum, naftanman, oksfedrin, oksolin, fentanil, fenilbutazol, sulfatiazol, sulfazin, tribuson, trimidasol.*

### 3-§. II. Davolashda foyda beradigan preparat /dori nomlari/ ning ma'noli so'z yasovchi qo'shimchalari

Bo'laklar ma'nosi	Davolashda foyda beradigan preparat ma'nosi	Misollar
1.aller- (g) -anth-, - phyll-	allergiyaga qarshi	Allergol, Strophanthus Platyphyllum
2.-vas-, -angi-	tomirning kengayishi	Divascol, Angitol
3.-somm-, -barb -dorm-	uxlatuvchi	Barbamylum, Corbamalum Somnafin, Dormital,
4.-bil-, -chol- (col)	o'tga taalluqli	Bilergenum, Cholamin, Etacol, Choleving
5.-cor-, card	yurakka oid	Vasocor, Cardiovalenum,
6.-dol-, -alg-, -aesthes-	og'riq bosuvchi	Anaesthesinum, Promedolum, Analginum
7.-flog-, - phlog -	yallig'lanishga qarshi	Floginal, Phlogex
8.-haemat-, - aemia	qonga oid	
9.lax-	surg'i	Acetolax, Laxasept
10.-press-, -tens-	gipertoniya qon bosimini tushiruvchi	Depressan, Protensin
11.-pyr-	isitma pasaytiruvchi	Amidopyrinum
12.-sed-	tinchlantiruvchi	Sedeval
13.-stress-, - tranqu-	tinchlantiradigan	Anastress, Tranquil
14.-ur-	siydik haydovchi	Diurometan, Saurin
15.-verm-, -helm (int)-	gijjaga qarshi	Univerm, Helmintin
16.-vom(it)-	qusishga qarshi	Vomital, Emetiral
17. -test-, vir-	erkak jinsiy organlaridan tayyorlangan	Agovirin, Testosteronum
18. -myco-	zamburug'larga qarshi	Mycoseptinum
19. - sept-	zararsizlantiruvchi	Enteroseptolum
20.-thyr-	qalqonsimon bez faoliyatiga ta'sir etuvchi	Thyrotropinum



## Mustaqil ishlash uchun mashqlar

**1. O'qing va ma'lum chastotali bo'lak (ma'noli so'z yasovchi)larini ajrating.**

*Promedolum, Flogodin, Amydopyrin, Tenormal, Anacardiol, Sedrol, Prodorm, Cardiotoxin, Pertranquile, Vasodilan, Tranquisan, Novalgin, Allergysin, Sedanyl, Morphocyclinum, Butaflogin, Cyslodorm, Nepressol, Anaestress, Allercur, Isotensin, Dipidolor.*

**2. Lotincha yozing.**

*Anestezin, barbamil, piranal, amidapirin, teofilin, platfilin, strofantin, angiotrafin, divaskol, stenkord, barbital, algolizin, depredol, dolatin, xolevid, morfotsiklin, lanokordal, apressin, angiotrofin, tensional, tensatrin, tetrakor, algokalmin, dipiron*

### 4-§. III. Dori nomlarini yasalishida qo'llaniladigan ma'noli so'z yasovchi qismlar

Bo'laklar	Ta'rif-tavsif/ma'nosi qism/	Misollar
1.-andr- -stan- -ster- -test-, -vir-	androgenlar erkak jinsiy garmonlarning preparatlari	Androtin, Testobolin, Testaform, Sterandril, Oraviron, Proviron-Depot
2.-apis-	ari(zahari)	Apisarthronum
3.-cain-	mahalliy og'riqni qoldiruvchi, yo'qotuvchi	Novacainum
4. -cid(lot. occidere- o'ldirmoq)	mikrobgga qarshi	Streptocidum
5. -cillin-	antibiotik penicillinlar	Penicillinum
6. -cyclin-,	tetratsiklin hosilalari	Tetracyclinum
7. -mycin-	mikrobgga qarshi	Erythromycinum
8. -cort-	buyrak usti bezi po'stlog'i garmonlari	Corticomycetinum
9. -oestr-	ayollar jinsiy gormonlarining preparatlari	Oestradiolum
10.-viper-	ilon zaharidan tayyorlanadi	Viprosalum
11.-vit-	vitaminlar	Undevit

Chastotali bo'laklar dorivor preparat nomida ko'p qo'llaniladigan so'z bo'laklari. Har bir chastotali bo'lak o'zining alohida ma'nosiga ega hamda preparatlar to'g'risida u yoki bu ma'lumotni beradi.

Chastotali bo'laklarni va ularning ahamiyatini bilish juda ko'p miqdordagi dori nomlarini tushunib olishga hamda dorivor preparatlarning nomini to'g'ri, xatosiz yozishga yordam beradi.

## Mustaqil ishlash uchun mashqlar

### 1. O'qing va ma'lum ma'noli so'z yashovchi qo'shimchalarni ajrating:

*Bilrastum, Synoestrolum, Methycillinum-natrium, Oxytetracyclinum, Testosteronum, Triiotrastum, Primotest, Androlum, Adicillin, Oestroben, Stanolon, Pantocidum, Trichomonacidum, Apilacum, Biomycinum.*

### 2. Lotincha yozuvda ifoda eting/yozing/

*Androtardil, aplakol, kartikotropin, estrogenin, testoviron, vipratoks, ampitsillin, trigidrat, atsignost, adenovit, biligrafin, sestotsid, daunomitsin, dekortin, dixisterol, eritromitsin, fosfat, fugatsillin, marevid, mastered, metitsillin-natrit, navokain, nilatsid, estramen, pantokain.*

### 3. Quyidagi o'simliklar nomidan alkaloidlar/asosiy o'simliklarda uchraydigan azotli organik moddalar gruppasi/ni hosil qiling:

*Lobelia/ia/ -lobelia*

*Papaver-ko'knori*

*Strychn/os/ -kuchala daraxti*

*Theobrom/a/ -shokaladli daraxt*

*Ephedr/a/ -Xitoycha guttapercha daraxti*

*Sphaerophys/a/ -sferofiza*

*Veatr/um/ -morolquloq/bot/*

### 4. Ma'nosiga qarab alkaloidlar/glyukozidlar/va o'simliklar guruhiga ajrating:

*Coffea, ae, f; Hyoscyamus, i, m; Ruta, ae, f; Atropinum, i, n; Papaverinum, i, n;*

*Salsola, ae, f; Ephedrinum, i, n; Strychninum, i, n; Papaver, eris, n; Lobelia, ae, f;*

*Rutinum, i, n; Ephedra, ae, f; Coffeinum, i, n; Hyoscyaminum, i, n; Lobelinum, i, n;*

*Strychros; Atropa, ae, f; Salsolinum, i, n.*

### 5. O'zbekcha yoki ruscha yozing:

*Acedinum, Phasphacolum, Polyglykinum, Quateronum, Norsulfazolum, Analginum,*

*Mentholum, Phthivazidum, Naphthizinum, Aethazolum, Penicillinum, Erythromycinum*

## 5-§. DORI NOMLARINI DORI SHAKLLARI BILAN QO'LLANILISHI

1. Agar dori (preparat) nomi dori shakli bilan kelsa, birinchi dori shakli bosh kelishik birlikda, so'ngra dori nomi qaratqich kelishigi birlikda bosh harf bilan yoziladi.

Streptotsid mazi – **Unguentum Streptocidi**

Novakain mazi – **Unguentum Novacaini**

Vazelin moyi – **Oleum Vazelini**

2. Kombinirovanni(murakkab) dori nomlari qo'shtirnoqqa olinib, bosh kelishik birlikda ifodalanadi:

«Urosal» tabletkasi – **Tabulettae «Urosalum».**

«Kalendula» mazi – **Unguentum «Calendula».**

3. Agar dori shaklini aniqlovchisi (moyli, spirtli...) bo'lsa dori nomidan so'ng kelib, dori shakli bilan moslashadi:

Sinestrolning moyli eritmasi – **Solutio Synoestrolis oleosa.**

Tetratsiklinning qobiqqa o'ralgan tabletkalari – **Tabulettae Tetracyclini obductae**

4. Agar dorivor o'simliklarning qismini bildiruvchi (barg, gul, ildiz...) aniqlovchi kelsa, dorivor o'simlik nomidan oldin qaratqich kelishigi birlik yoki ko'plikda tarjima qilinadi:

Valeriana ildizining damlasi – **Infusum radices Valerianae**

Chayono'ning barglari – **Foliorum Utricis.**

## 6-§. DORI SHAKLLARI HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

Dori moddalarini chiqarish va yozish

Dori shakllarini mumkin qadar o'qishga qulayligidir. Dori shakllarining qattiq, suyuq, yumshoq bo'lishi uning tayyorlanishga bog'liq.

Tabuletta, ae f-tabletka(tugmachasimon dori shakli)

Ichish, sirdan ishlatish yoki in'eksiya qilish (tegishli erituvchida eritilgandan so'ng) uchun mo'ljallangan, dorivor moddalarni presslab olingan, dozalangan qattiq dori turi



### **Tablettae Analgini**



Tinctura, ae, f –nastoyka

Ichishga yoki sirdan ishlatishga mo'ljallangan, dorivor o'simlik mahsulotining qizdirilmagan va spirtli, spirt-suvli, spirt-efirli tiniq ajratmasidan iborat bo'lgan suyuq dori turi



### **Tinctura Convalariae**



### **Capsula, ae, f – kapsula (qoplamali dori)**

Ichish uchun mo'ljallangan ichiga dorivor vosita solingan g'ilof(jelatin, kraxmal yoki boshqa polimerlardan tayyorlangan) dan iborat bo'lgan dozalangan dori turi



### **Pilula, ae, f hab dori**



Ichishga mo'ljallangan, tarkibida dorivor vosita va yordamchi moddalar bo'lgan bir xil plastik massadan tayyorlangan sharcha holdagi dozalangan qattiq dori turi.



### **Pilula Nitroglycerini**



### **Pasta, ae, f – pasta(xamirsimon modda)**

Tarkibida 20-25% dan ortiq kukun holdagi moddalar bo'lgan suyuq surtma



**Pasta Jodoformii**



### **Sirupus, i, m –sharbat**

Ichish uchun mo'ljallangan, qandning suvdagi konsentrlangan eritmasidagi dorivor moddalarning eritmasidan iborat suyuq dori turi.



**Sirupus Althaeae**  
**Sirupus Rhei**



### **Infusum, i, n – damlama va decoctum, i, n-qaynatma**

Ichish yoki sirtidan ishlatishga mo'ljallangan dorivor o'simlik mahsulotining suvli ajratmasi yoki shu maqsad uchun maxsus tayyorlangan konsentrat eritmasidan iborat bo'lgan suyuq dori turlari

Damlama va qaynatma bir-biridan tayyorlash usuli (olov ustida yoki suv hammomida qizdirish va keyinchalik damlash vaqti) bo'yicha farq qiladi.

Damlama-dorivor o'simlikning yumshoq qismidan tayyorlanadi.  
Qaynatma- dorivor o'simlikning dag'al qismidan tayyorlanadi.



**Infusum radices Valerianae**  
**Infusum foliorum Digitalis**



### **Extractum, i, n –ekstrakt**

Ichishga yoki sirtidan ishlatishga mo'ljallangan, dorivor o'simlik mah-

sulotining konsentrlangan ajratmasidan iborat bo'lgan quyuq dori turi.



**Extractum Crataegi fluidum**  
**Extractum foliorum Digitalis**



### **Emulsum, i, n – emulsiya**

Ichish, sirdan ishlatish yoki in'eksiya qilish uchun mo'ljallangan, o'zaro aralashmaydigan suyuqliklardan iborat dispers sistemadan tashkil topgan suyuq dori turi.



**Emulsum Synthomycini**



### **Unguentum, i, n – quyuq surtma**

Sirdan ishlatishga mo'ljallangan yopishqoq kondensatsiyali yumshoq dori turi



**Unguentum Xeroformii**  
**Unguentum Streptocidi**



### **Linimentum, i, n -suyuq surtma**

Sirdan qo'llaniladigan, tana temperaturasida eriydigan quyuq suyuqlik yoki dirildoqsimon massadan iborat dori turi



**Linimentum Synthomycini**



### **Aërosolum, i, n – aerazol**

Gaz yoki gazlar aralashmasidan iborat dispers muhitdan qattiq modda



zarrachasi yoki suyuqlikdan iborat dispers fazadan tashkil topgan, maxsus qolip yordamida olinadigan dispers sistemali dori turi.



### **Aërosolum Camitoni**



#### **Pulvis, eris, m - kukun, poroshok**

Ichish, sirdan ishlatish yoki in'eksiya qilish (tegishli erituvchida eritilgandan so'ng) uchun mo'ljallangan kukun holdagi qattiq turi.

Kukunlar yirik(pulveres grossi), mayda (pulveres subtiles) va juda mayda (pulveres subtilissimi)turga bo'linadi. Kukunlar oddiy murakkab bo'lishi mumkin. Bir dori moddasidan tashkil topgan kukun oddiy (pulvis simplex), ikki va undan ortiq dori moddasidan tashkil topgan kukun murakkab (pulvis compositus) dori deyiladi.



#### **Pulvis Ampicillini Pulvis Amidopyrini**



#### **Solutio, onis, f – eritma**

In'eksiya qilish, ichish yoki sirdan ishlatish uchun mo'ljallangan bitta yoki bir nechta dorivor moddalarni eritish yo'li bilan olingan bir xil tiniq suyuq dori turi.

Eritma suvli (solutiones aquosae), spirtli (solutiones spirituosae) yoki moyli (solutiones oleosae) bo'lishi mumkin.



#### **Solutio Synoestrolis oleosa Solutio Jodi spiritiosa**



## Species, ei, f –yig‘ma

Ichish yoki sirtidan ishlatishga mo‘ljallangan damlamalar va qaynatmalar tayyorlash uchun qo‘llaniladigan maydalangan yoki butun bir necha tur dorivor o‘simlik mahsulotining va ba‘zan dorivor vositalar qo‘shilgan aralashmasi.



Species antiasthmaticae  
Species pectoralis



## Dorivor o‘simliklarning qismini bildiruvchi so‘zlar



herba, ae, f - o‘t    folium, i, n- barg



flos, floris, m- gul    fructus, us, m- meva



radix, icis, f- ildiz    rhizoma, atis, n- ildizpoya



semen, inis, n- urug‘    gemma, ae, f-kurtak



## Mustaqil ishlash uchun mashlar

1. Dorivor moddalar va preparatlar nomini o‘qing. Sizga tanish bo‘lgan ma‘no beruvchi qo‘shimchalarni ajrating va tarjima qiling.

*Valocordinum, Cocarboxylasum, Morphinum, Testoenatum, Mycosolon, Bicillinum, Rifothyroinum, Mammophysinum, Oetronum, Erythromycinum, Valosedan, Polyoestradiolum, Pharyngosept, Adrimycinum, Mycoseptin, Chinocidum, Kanamycinum, Methicillinum, Norsulfazolum, Sulfzinum, Pyocidum, Adrenalinum, Gonodotropinum, Somatotropinum, Novocainum.*

*Haemodesum, Enterodesum, Panangin, Quadevitum, Novurit, Urodanum, Rifamycinum, Synoestrolum, Gentamycinum, Synthomycinum, Barbamylum, Leucogenum, Laevomycesinum, Glycerinum, Glucosum, Asthmatinum, Anaesthesinum, Hydrocortisonum.*

## **2. O'zbek tiliga tarjima qiling.**

*Folium Belladonnae, folia Helianthi, oleum Amygdalarum, oleum Anisi, tinctura Erysiini, aërosolum "Cametonum", extractum Strychni, extractum Convallariae, granula Amydarini, suppositoria oleum Cacao, decoctum foliorum Salviae*

## **3. Lotin tiliga tarjima qiling.**

*Arpabodiyon moyi, kanakunjit moyi, ravoch sharbati, mavrak barglarining damlamasi, gazako't ekstrakti, chayono't barglarining damlamasi, do'iana nastoykasi, shaftoli moyining emulsiyasi, tetrotsiklin mazi, daktinomitsin eritmasi, follikulinning moyli eritmasi, yodning spirtli eritmasi, "Flakarbin" granulari, "Undevit" drajesi, streptotsidning suyuq surtmasi, marvaridgul o'ti.*

## **7-§. LEKSIK MINIMUM**

- |  |                                     |
|--|-------------------------------------|
| 1. Aloë, Aloës, f – sabur, alloy       | 2. Althaea, ae, f – gulxayri        |
| 3. Belladonna, ae, f – belladonna      | 4. Chamomilla, ae, f – moychechak   |
| 5. charta, ae, f – qog'oz              | 6. Convallaria, ae, f – marvaridgul |
| 7. gutta, ae, f – tomchi               | 8. Mentha, ae, f – yalpiz           |
| 9. tinctura, ae, f – spirtli eritma    | 10. Valeriana ae, f – valeriyana    |
| 11. spirituosus, a, um – spirtli       | 12. destilatus, a, um – tozalangan  |
| 13. fluidus, a, um – suyuq             | 14. oleosus, a, um – moyli          |
| 11. comphoratus, a, um – kamforaga oid |                                     |

**O'qing va sizga tanish bo'lgan so'zlarni lotincha yozilishini esda saqlang.**

1. ampulla, ae, f – ichiga dori quyib og'zi payvandlangan naycha
2. capsula, ae, f - kapsula, qobiq
3. massa, ae, f – miqdor
4. mixtura, ae, f – aralashma
5. pasta, ae, f – xamirsimon modda (pasta)
6. pilula, ae, f – hab dori (pilyula)

7. *tabuletta*, ae, f – tugmachasimon modda (tabletk)
8. *dragee* – qattiq dori shakli (draje, fr)
9. *extractum*, i, n – so‘rim (ekstrakt / o‘simliklardan suv va suv spirt yordamida tayyorlangan konsentrlangan dori turi/)
10. *linimentum*, i, n –suyuq surtma(liniment)
11. *aërusolum*, i, n –aerozol
12. *suppositorium*, i, n –shamcha

**Nota bene!**

**Optimum medicamentum quies est** – Tinchlik eng yaxshi davodir.

**Medica mente, non medicamentis** – Dori bilan emas, aql bilan davola.

## 2-DARS

### 8-§. FE'L (VERBUM)

#### To'rt turlanish. Noaniq forma. Buyruq va shart mayli

Predmetning ish-harakatini ifodalovchi so'z turkumiga fe'l deb ataladi. Lotin tilida fe'l o'zbek tilidagidek shaxs, son va mayl bilan tuslanadi, Lotin tilida fe'llar to'rtta turlanishga ega.

Noaniq formada ularning barchasi **-re** qo'shimchasi bilan tugaydi, 1-, 2-, 4- turdagi turlanishga kiruvchi fe'llarning noaniq shaklidan **-re** va 3-turdagi turlanishga kiruvchi fe'llardan esa **-ere** qo'shimchalarini olib tashlab fe'llarning negizi hosil qilinadi

I-turlanishli fe'lning asosi – a

II turlanishli fe'lning asosi – e

III turlanishli fe'lning asosi – undosh bilan

IV turlanishli fe'lning asosi – i bilan tugaydi.

Turlanish	Noaniq forma	Asos	Buyruq mayli
I	Dare – bermoq	Da.	Da-ber
II	Miscere- aralashitirmoq	Misce	Misce –aralashtir
III	Sol vere- eritmoq	Solv	Solve - erit
IV	Audire- eshitmoq	Audi	Audi – eshit

Jadvaldan ko'rinib turibdiki buyruq maylini hosil qilish uchun barcha 4 tala turlanishdagi fe'llarning noaniq forma yasovchi qo'shimchasini olib tashlash kerak.

### Mustaqil ishlash uchun mashqlar

#### 1. Fe'llarni turlanishi va asosini aniqlang

*legere* – o'qimoq, *sterilizare* – qaynatib tozalamoq, *recipere* – olmoq, *diluere* – qo'shmoq, *valere* – sog' bo'lmoq, *munire* – himoya qilmoq, *conquere* – qaynatmoq, *laborare* – ishlamoq, *obducere* – parda bilan qoplamoq.

## 2. Buyruq maylini hosil qiling:

*conspargere – sepmoq, signare – belgilamoq, studere – o‘qimoq, extrahere – chiqarmoq, colare – suzmoq, sezmoq, solvere – eritmoq, miscere – aralashtirmoq,*

*addere – qo‘shmoq, finire – tugatmoq, vertere – ag‘darmoq.*

## 3. Lotin tilidagi qaysi fe‘llar quyidagi so‘zlar bilan talaffuz qilishini ajrating:

*Sterilizatsiya, ekstrakt, filtr, finol, preparat, laboratoriya, auditoriya, leksiya, formatsiya, filtratsiya.*

## 9-§. SHART MAYLINING RETSEPTDA QO‘LLANILISHI

Retseptda lotin tilida ko‘p ma‘no beruvchi faqat bitta shart maylining ish harakatiga undash, buyurish ma‘nolari ishlatiladi. Retseptda qo‘llaniladigan buyruq maylining na‘munalari:

<b>Da</b> – ber	<b>Misce</b> – aralashtir	<b>Signa</b> – belgila
<b>Recipe</b> – ol	<b>Adde</b> – qo‘sh	<b>Repete</b> – takrorla
<b>Verte</b> – ag‘dar	<b>Sterilisa</b> – qaynatib tozala	<b>Consperge</b> – sep

Shart maylining shakli ikki xil tarjima qilinadi:

1. Fe‘l bilan **bo‘lsin** so‘zi birgalikda

2. Fe‘lning noaniq formasi

Aralashtirilgan bo‘lsin      Aralashtirilsin.

Berilgan bo‘lsin!              Berilsin.

Faqat 3 shaxs birlik yoki ko‘plikda ishlatilib birlikda fe‘l negiziga **-tur**, ko‘plikda **-ntur** qo‘shimchalari qo‘shiladi.

**Fio, fieri** fe‘li – birlikda – **t**, ko‘plikda **-nt** qo‘shimchalariga ega bo‘ladi.

### Retseptda qo‘llaniladigan shart maylining na‘munalari

1. **Detur** – Berilsin. Berilgan bo‘lsin.

2. **Misceatur** – Aralashtirilsin. Aralashtirilgan bo‘lsin.

3. **Signetur** – Belgilansin. Belgilangan bo‘lsin.

4. **Repetatur** – Takrorlansin. Takrorlangan bo‘lsin.

5. **Sterilisetur** – Qaynatib tozalansin. Qaynatib tozalangan bo‘lsin



6. **Dentur tales doses** – Shunday doza berilsin. Shunday doza berilgan bo'lsin

Retseptda **fio, eri** fe'li bilan qo'llaniladigan shakllar:

**Misce, fiat pulvis** – Kukun hosil bo'lguncha aralashtir.

**Misce, fiat unguentum** – Maz hosil bo'lguncha aralashtir.

**Misce, fiat linimentum** – Liniment hosil bo'lguncha aralashtir.

**Misce, fiat pasta** – Pasta hosil bo'lguncha aralashtir.

**Misce, fiat emulsum** – Emulsiya hosil bo'lguncha aralashtir.

**Misce, fiat suppositorium** – Shamcha hosil bo'lguncha aralashtir.

**Misce, fiat suppositorium vaginale** – Qinli shamcha hosil bo'lguncha aralashtir.

**Misce, fiant pilulae** – Aralashtirib, hab dori tayyorlansin.

**Misce, fiant species** – Aralashtirib, yig'ma hosil qilinsin.

### Mustaqil ishlash uchun mashqlar

1. Otni kerakli sonda ishlatib to'ldirilsin.

*a/misce, fiat ...*

*misce, fiant ...*

*/ suppositoria, rectalia, pulvis, pasta, globules, emulsum, spesies, linimentum, suspensio/*

*b/ detur ... denture ...*

*/solutio, tabulettae, tales doses, unguentum, dragee/*

*c/ sterilisetur ... sterilisentur...*

*/ vitra, vitrum, solutiones, medicamentum*

2. Tarjima qiling:

1. Vazelin moydan 5 ml qo'sh

2. 20, 0 Kseraforma surtmasidan ol

3. Marvaritgul nastoykasidan 10 ml vavalerian nastoykasidan 15 ml aralashtirilsin

4. Qalampir yalpiz moyidan 3 ml qo'sh

5. 25, 0 Sintomitsin suyuq surtma dorisidan ber.

6. Adrenalin eritmasidan 10 ml ber

7. Vazelinli moydan 20 ml qaynatib tozala

8. Dibazol va papaverindan berilgan bo'lsin

9. 6 miqdordagi shamcha berilgan bo'lsin
10. Evkalipt moyidan berilgan bo'lsin
11. Amidopirin eritmasidan berilgan bo'lsin
12. Valerianaildizi damlamasidan ber
13. Novakain eritmasidan qaynatib tozala
14. Surtma dori tayyorlangan bo'lsin
15. Ekstrakt berilsin
16. Qinli shamcha berilsin

## LEKSIK MINIMUM

1. addo, ere 3-qo'shmoq
2. audio, ire 4-eshitmoq
3. curo, are 1-davolamoq
4. do, are 1-bermoq
5. finio, ire 4-tugamoq
6. misceo, ere 2-aralashtirmoq
7. recipio, ere 3-olmoq
8. signo, are 1 – belgilamoq
9. steriliso, are 1 –qaynatib tozalamoq (sterilizatsiya qilmoq)
10. verto, ere 3-aylantirmoq, ag'darmoq
11. salveo, ere 2-sog'lom bo'lmoq, salom bermoq (salomlashyvd  
ishlatiladigan fe'l)
12. valeo, ere 2 - sog'lom bo'lmoq (xayrlashuvda ishlatiladigan fe'l)

### 10-§. Dorivor o'simliklarning nomi

Eucalyptus, i, f - evkalipt	Menthe, ae, f -	yalpiz
Salvia, ae, f mavrak	Crataegus, i, f -	do'lana
Frangula, ae, f - itjumrit	Rheum, i, n -	ravocho
Urtica, ae, f - chayono't		

### Dorilarning nomlari

Adrenalinum, i, n-adrenalin	Amidopyrinum, i, n- amidopirin
Dibazolium, i, n-dibazol	Ichthyolum, i, n- ixtiol

Norsulfazolum, i, n-norsulfazol      Novacainum, i, n- novakain  
Papaverinum, i, n-papaverin      Sulfadimezinum, i, n-sulfadimezin  
Synthomycinum, i, n-sintomitsin      Xerformium, i, n- kserform  
Oleum (i, n) Ricini (us, i, m)-kanakunjit moyi  
Solutio Ammonii (um, i, n) caustici (us, a, um)-novshadil (ammoniy  
gidroksid) spirti

**Nota bene!**

**Radices litterarum amarae sunt, fructus dulces** – Fanning ildizlari  
achchiq, mevalari esa shirindir.

**Summum bonum medicinae sanitas** – Salomatlik tibbiyotning oliy  
maqsadidir.

## 3-DARS

### RETSEPT

#### 11-§. I. RETSEPT HAQIDA TUSHUNCHA

Retsept bu shifokorning dori tayyorlash, tayyorlangan dorini qabul qilish usullari ko'rsatmasi va davolash uchun bemorga berish kerakligi to'g'risidagi dorixonaga xat orqali murojaat qilishi. "Retsept" so'zi/lot. **Receptum, i, n/** lotin tilidagi recipere-olmoq fe'lidan yasalgan.

Retsept aniq va tushunarli siyoh rangda yoki ruchkada barcha ko'rsatilgan qoidaga asosan yoziladi. Retsept varaqasini to'g'rilashga yo'l qo'yilmaydi.

#### II. RETSEPT TUZILISHI

Har bir retsept 9 qismga bo'linadi:



1. **Inscriptio** – davolash muassasasini manzili va telefon raqami
2. **Datum** – retsept yozilgan kun, oy, yil
3. **Nomer aegroti** – bemorning ismi va sharifi
4. **Aestas aegroti** –bemorning yoshi
5. **Nomen medici** – shifokorning ismi va sharifi
6. **Designatio materialium** – dorining nomi va miqdori
7. **Subscriptio** – dorixona xodimiga dori tayyorlash to'g'risida ko'rsatma
8. **Signatura** – belgilansin.



Har doim lotin tilidagi Signa /Signetur/ belgilansin, belgilangan bo'lsin fe'li bilan bog'lanib, undan so'ng rus tilida yoki o'zbek tilida bemorga dorini qabul qilish usuli haqida ko'rsatma beriladi.

9. **Nomen et sigillum medici personale**-shifokorning imzosi va shaxsiy muhri

## Retsept na'munasi

Inscriptio	Sog'liqni Saqlash Vazirligi	Davolash muassasasining nomi	
Datum	Retsept ( Kattaga, bolaga – keraksizi o'chirilsin ) << >> _____ 20 ____ -yil ▪ ( retseptning sanasi )		
Nomen aegroti →	Bemorning F.I.O _____		
Aetas aegroti →	Yoshi _____		
Nomen medici →	Shifokorning F.I.O _____		
{invocation} →	So'm	Tiyin	Rp: <i>Erithromycini 0.25</i>
{designatio} →			
{matetium} →			
Subscriptio →			<i>D.t.d. N 20 in tab. S.kuniga 3 marra 1 ta tabletkadan ichilsin.</i>
Signatura →			
Nomen et sigillium personale medici →	So'm	Tiyin	Rp:  Shifokorning shaxsiy imzosi va muhri
Retseptning amal qilish muddati 10 kun, 2 oy (keraksizi o'chirilsin)			

	davolash profilaktika muassasasining nomi va rekvizitlari ko'rsatilgan shtamp o'rnini	Nodavlat davolash profilaktika muassasasi litsenziyasining raqami, berilgan sanasi, amal qilish muddati
<b>Retsept</b>		
Kattalar	Bolalar	
(kerakli o'chirilsin)		
Kun _____	Oy _____	Yil _____
Bemorning F.I.Sh. _____	Bemorning yoshi _____	
Kasallik tarbi № _____		
Rp: _____ (savdo nomi)		
(xalqaro patentlanmagan nomi)		
DS: _____		
Shifokorning F.I.Sh. _____		
Tel: _____	(Shifokorning shaxsiy muhri o'rnini)	
Retseptning amal qilish muddati: _____		

	davolash profilaktika muassasasining nomi va rekvizitlari ko'rsatilgan shtamp o'rnini	Nodavlat davolash profilaktika muassasasi litsenziyasining raqami, berilgan sanasi, amal qilish muddati
<b>Retsept</b>		
Kattalar	Bolalar	
(kerakli o'chirilsin)		
Kun _____	Oy _____	Yil _____
Bemorning F.I.Sh. _____	Bemorning yoshi _____	
Kasallik tarbi № _____		
Rp: _____ (savdo nomi)		
(xalqaro patentlanmagan nomi)		
DS: _____		
(Berilayotgan dori vositasining nomi va seriyasi) _____		
Farmabevt xodimining F.I.Sh. _____ _____ (imzo)		
		
(Dorixona shtamp o'rnini)		



## Retsept varaqasining orqa tomoni

### Shifokorga eslatma

-davolash -profilaktika muassasasining shartli belgisi bosmoxona usulida bosiladi yoki to'rtburchak muhr qo'yiladi;

- retsept lotin tilida tushunarli qilib, aniq harflar bilan siyohda yoki sharikli ruchkada yoziladi, retseptni tuzatish man etiladi;

- bir retsept varaqasida tarkibida zaharli yoki nasha moddasi bo'lgan bitta dori yoki ikkita oddiy va kuchli ta'sir etuvchi dori bo'lishi mumkin;

- faqat qabul qilingan qistqartma otlarning shartli belgisi yozilishi kerak;

- qattiq va sochiluvchan moddalar – grammlarda (0, 1; 0, 001; 1, 0), suyuqliklar - millilitrlarda, grammlarda va tomchilarda yozilishi kerak;

- dorini qabul qilish usuli bemor tushunadigan tilda yozilishi kerak, "ichki", "ma'lum" kabi umumiy ko'rsatmalar bilan cheklanish mumkin emas;

- retsept shifokorning imzosi, shaxsiy muhri bilan tasdiqlanishi lozim.

Dorini shaxsiy tayyorlash №	Dorixonanaing to'rtburchak muhri
Qabul qilindi. Tayyorlandi	Tekshirildi Berildi

## 12-§. III. RETSEPTNI YOZISH QOIDASI

Retseptni yozishdan oldin quyidagi qoidalarni bilish kerak:


1. Bitta retsept varaqasida faqat bitta dorining nomi yoziladi va ayrim holatlarda ikki dori turini yozish mumkin.

2. Dorini tezlik bilan tayyorlash yoki berish kerak bo'lsa retsept varaqasining yuqori qismiga:

**Cito - Tez!** Tezlik bilan

**Statim** – Darhol so'zlari yoziladi.

Retseptning 9 qismidan 6-7-si, 8-qismining birinchi so'zi lotin tilida yoziladi. Retseptning 6-asosiy qismi shartli belgi **Rp: /Recipe –ol/-recipere** – olmoq fe'lining buyruq mayli 3-shaxs birlik sonidagi formasi bilan boshlanadi. So'ngra bosh harf bilan dori nomi (qaratgich kelishigida) yoziladi, keyin miqdor ko'rsatiladi



### Retseptni quyidagi qoidalar yordamida yozish kerak.

1. Har bir dori moddasining nomi yangi satrdan yoziladi
2. Har bir qator bosh harf bilan boshlanadi.
3. Dori moddani yoki o'simlikning nomi ham bosh harfda yoziladi.
4. Har bir modda nomi qaratgich kelishigida yoziladi
5. Qattiq va sochiluvchan moddalar miqdori grammlarda, suyuqliklar millilitrlarda arab raqamlari bilan /5, 0; 0, 5; 0, 05/, tomchilar esa rim raqamlari bilan so'zdan so'ng "tomchi" chiqish kelishigida turadi.

1, 0 – gramm

0, 1 – detsigramm

0, 01 – santigramm

0, 001 – milligramm

0, 0001 – detsimilligramm

0, 00001 – santimilligramm

0, 000001 – mikrogramm

guttam I – bir tomchi

guttas II – ikki tomchi

Dori moddalarning biologik ta'sir birligi qisqacha **BT** shaklida, soni esa arab raqamlari bilan birliklar, mingliklar, millionlarda belgilanadi

6. Agar ikki dori moddasining miqdori teng bo'lsa, belgi **ana** teng miqdori ko'rsatiladi.

7. Agar dori moddasi /tabletk, shamcha/ standart holatda yoziladi. Bu vaqtda birinchi o'rinda dori shaklining nomi **Accusativus pluralis** / tushun kelishigi ko'plik/da so'ngra preparat nomi Nominativus yoki

**Ablativus cum** predlogi bilan va doza miqdori / numero 6;10 va boshqalar/ ko'rsatiladi.

**Recipe: Tabulettas "Besaolum" numero 6.**

**Recipe: Suppositoria cum Glycerino numero 12.**

Bu yerda doza ham ko'rsatilishi mumkin.

**Recipe: Lamellas ophthalmicas cum Neomycino sylfate numero 30**

**Recipe: Tabulettas Bromcamphorae 0, 15 numero 10**

**Designatio materiaram** ni ikki holatda yozish mumkin.

a) Barcha dori shakllarini ifoda etayotganda ularni sonini keng ma'noda yozish.

b) Aniqlovchini nomlanishi murakkab tartibga ega uning tarkiblari faqat qisqartma holatda ifoda etiladi.

Retseptning yettinchi qismida shifokor dorishunosga dori moddalariga qanday ishlov berish /aralastirib, tozalab/, dori moddasiga qanday shakl berish/kukun, maz, hab dori/, qanday miqdorda / tabletka, pilyula, ampula/da va so'ngra dorilarni qanday narsaga o'rab yoki solib/qog'ozga, qora rangli shishachada/ berishligi haqida kerakli ko'rsatmalar beradi.

Sakkizinchi qismi shartli qisqartirilgan S harfi bilan boshlanadi (**Signa** – belgila, ya'ni bu **Signare** belgilamoq fe'lining buyruq maylining 3 shaxs birlik sonidir, yoki shart maylining **Singnetur** – belgilansin). Bu qism rus tilida yoki ona tilida bemorga shifokor dori miqdori, vaqti, dorini qanday usulda qabul qilish yo'llarini ko'rsatib beradi.

**Signa:** 15 tomchidan kuniga ikki marta ovqatdan yarim soat oldin.

**Signa:** 1 tabletkadan kuniga 3 mahal

### **Mustaqil ishlash uchun mashqlar**

#### **1. Retseptni o'qing va tarjima qiling**

1. *Recipe: Tincturae Convallariae 15 ml*

*Signa: 15 tomchidan kuniga 2-3 marta*

2. *Recipe: Tabulettas Monomycini 0, 05 numero 20*

*Signa: 1tabletkadan kuniga 3-4 marta 15 min ovqatdan oldin*

3. *Recipe: Codeini 0, 05*  
*Sirupi Althaeae 10, 0*  
*Aquae destilatae 50ml*  
*Signa: sirtqi, tashqi*
4. *Recipe: Sirupi Aloës cum Ferro 100, 0*  
*Da. Signa: 1 choy qoshiqdan kuniga ¼ stakanda 3 marta*
5. *Recipe: Solutionis Jodi spirituosae 2 ml*  
*Tanini 3, 0*  
*Glycerini 10 ml*  
*Misce. Da.*  
*Signa: milkga suykash uchun*  
*(Solutio, onis, f – eritma)*
6. *Recipe: Dragee Diazolini 0, 05*  
*Da tales doses numero 20*  
*Signa: Kuniga 3 marta 1 ta donachadan ovqatdan keyin.*
7. *Recipe: Olei Ricini 30, 0*  
*Xeroformii 1, 5*  
*Misce. Da.*  
*Signa: surtmali bog'lamlar uchun.*

## **2. Lotin tiliga tarjima qiling:**

1. *Ol: Marvaridgul nastoykasidan*  
*Valeriana ekstraktidan teng miqdorda 1ml.*  
*Belladona nastoykasidan 5 ml.*  
*Aralashtir. Ber.*  
*Belgila: kuniga 3 marta*
2. *Ol: Yalpiz suvidan 200 ml*  
*Ber*  
*Belgila: osh qoshiqda kuniga 5-10 marta qabul qilinsin.*
3. *Ol: Tozalangan yoddan 0, 03*  
*Kaliy yoddan 0, 3*  
*Glitserindan 30*  
*Qala mpir yalpiz moyidan 30 tomchi*  
*Aralashtir. Ber.*

*Belgila: hiqildoqni moylash uchun*

4. *Ol: Do'lana nastoykasidan*

*Ravoch nastoykasidan teng miqdorda 10 ml.*

*Mentoldan 0, 2*

*Aralashtir. Ber.*

*Belgila: bir osh qoshiqdan kuniga 3 marta*

5. *Ol: Moychechak gullaridan 100, 0*

*Ber.*

*Belgila: Qaynoq suvni damlab qo'yib kunda og'zini 3 marta  
chayqash uchun*

6. *Ol: Dikain eritmasidan*

*Adrenalin gidrokslorid eritmasidan 0, 1 foizli 3 tomchi*

*Aralashtir. Ber.*

*Belgila: ko'zda anesteziya yuzasi uchun ko'zga 2-3  
tomchidan tomizilsin*

7. *Ol: "Anuzol" shamchalaridan 10 dona*

*Ber. Belgila: tunda 1 shamchadan*

8. *Ol: Monomitsindan 0, 25*

*Tabletkada 50 sondagi shunday dozada ber.*

*Belgila: Kunda 2 mahal 1 tabletkadan.*

9. *Ol: Barbital- natriydan 0, 5*

*Kakao moyi keragicha, shamcha hosil qilish uchun.*

*Shunday dozalarda 12 dona berilsin.*

*Belgilansin: kechqurin 1 shamchadan.*

10. *Ol: Eufillindan 0, 1*

*Dimedroldan 0, 0125*

*Shakardan 0, 2*

*Kukun hosil bo'lguncha aralashtir.*

*Shunday dozalarda 12 dona kapsulalarda ber.*

*Belgila: Kuniga 3 mahal 1 kapsuladan.*

11. *Ol: Do'lananing suyuq ekstraktidan 25 ml*

*Berilgan bo'lsin.*

*Belgilangan bo'lsin: Ovqatdan oldin kuniga 3 mahal  
20 tomchidan.*

12. *Ol: Dibazol eritmasidan 5ml*

*Ampulada 5 sondagi shunday dozada ber.*

*Belgila: kuniga mushak orasiga 4ml dan yuborilsin.*

13. *Ol: Ixtiolning glitserinli eritmasidan 50 ml*

*Berilsin.*

*Belgilansin:*

14. *Ol: 0, 5% - 55, 0 Novakain bilan 1% li Sintomitsin linimentidan*

*Berilsin.*

*Belgilansin: yuzaga surtish uchun.*

15. *Ol: 15 sonda "Novomigrofen" tabletkalaridan*

*Ber.*

*Belgila: bosh og'rigiga 1 ta tabletkadan.*

### **13-§. LEKSIK MINIMUM**

1. Emplastrum, i, n – yaraga yopishtirib qo'yiladigan malhamli mato
2. Globulus, i, n – sharcha
3. Granulum, i, n – granula
4. Iniectio, onis, f – igna orqali teri ostiga qo'yish
5. Lamella, ae, f – ko'z pardasi/pilakcha /
6. Membranula, ae, f – ko'zga qo'yiladigan plyonka dori
7. Mucilago, inis, f – shilliq modda
8. Oleum, i, n – moy
9. Succus, i, n – sharbat shirasi
10. Suspensio, onis, f - suspensiya / qattiq, dori shakli/

### **Dorilarning nomlari**

Aether, eris, m -efir

Barbitalum –natrium, i n - barbital –natriy

Cacao (turlanmaydi) -kakao

Cordigitum, i, n -kordigit

Dimedrolum, i, n -dimedrol

Diprophyllinum, i, n -diprofillin

Euphyllinum, i, n -eufillin

Furacillinum, i, n -furatsillin

Mentholum, i, n -mentol

Nitroglycerinum. i, n - nitroglitserin

Phencaetinum, i, n - fenatsetin

Saccharum, i, n -shakar

Tetracyclinum, i, n -tetratsiklin

Validolum, i, n - validol

### **Nota bene!**

**Mala herba cito crescit** – Begona o‘t tez o‘sadi.

**Ars longa vita brevis** – Hayot qisqa, san‘at esa abadiydir.



## 4-DARS

### KIMYOVIY MODDALAR

#### 14-§. Kimyoviy elementlar

Barcha lotincha kimyoviy moddalarning nomi ikkinchi turlanish sredniy roddagi otlar bo'lib, Nominativus singularis da **-um**, Genetivus singularis da **-i** qo'shimchasiga ega bo'ladi.

**Aurum, i, n** – oltin

**Ferrum, i, n** – temir

**Kalium, i, n** – kaliy

**Oxygenium, i, n** – kislorod

**Hydrogenium, i, n** – vodorod

Faqat **sulfur, uris, n** – oltingugurt(III-turlanish) va **phosphorus, i, n** – fosfor (II-turlanish) bu qoidadan mustasno.

Chet mamlakatlaridan chiqarilgan ayrim moddalar lotin tilida boshqacha nomlanadi

**Na-sodium** – natriy

**Ng-mercurium** – simob

**K-potassium** – kaliy

#### 15-§. Kislotalar

Lotin tilida kislotalar nomi **acidum, i, n** – (kislota) oti va **-icum** sifat qo'shimchasidan yasaladi

**Acidum boricum** – borat kislota

**Acidum salicylicum** – salitsilat kislota

Ayrim hollarda –moddalar ikkita kislota hosil qilishi mumkin. Bu vaqtda tarkibida kislorod miqdori ko'p bo'lgan kislotalarni – **icum** qo'shimchali sifat yordamida hosil qilinadi.

**Acidum nitricum** – ( $\text{HNO}_3$ ) azot kislota

**Acidum sulfuricum** – ( $\text{H}_2\text{SO}_4$ ) oltingugurt kislota

**Acidum nitrosum** – ( $\text{HNO}_2$ ) azotli kislota

**Acidum sulfurosum** – ( $\text{H}_2\text{SO}_3$ ) oltingugurtli kislota

Agar modda tarkibida kislorod miqdori kam bo'lgan kislotalar –**osum** (o'zbek tilida-li) qo'shimchasi yordamida tarjima qilinadi.

Tarkibida kislota moddasi bo'lmagan kislotalar nomi acidum oti, hydro old qo'shimchali sifat bilan va so'ngra – icum suffiksi qo'shilishi yordamida hosil qilinadi

**Acidum hydrochloricum** – vodorod xlorid kislota

**Acidum hydrosulfuricum** – vodorod oltingugurt kislota

### Mustaqil ishlash uchun mashqlar

#### 1. Kislotalar nomini yozing.

*Glyutamin, askarbinat, karbol, nikotin, fosfor, fosfodli, oltingugurtli, oq margumush, vodorod bromid, vodorod yodid chaqmoqtoshli.*

#### 2. Quyidagi so'zlar asosida lotincha kislotalar nomini yozing

*Borum, i, n – bor Lac, lactis, n – sut Acetum, i, n – sirka*

*Citrus, i, m – limon Formica, ae, f – chumoli Nicotinum, i, n – nikotin*

#### 3. Tarjima qiling

1. Barat kislotali surtma dori. 2. Glyutamin kislotali tabletkalar. 3. Oltingugurt kislotasining ajratmasi. 4. Toza oltingugurt kislota. 5. Tirnoqgul bilan nikotin kislotasining tabletkasi. 6. Benzoy va salitsilat kislota antiseptik moddalar / remedium, i, n – modda /. 7. Tuzli kislota aralastirib qora idishda bering

#### 4. O'qing, tarjima qiling:

1. *Recipe: Acidi salicylici*

*Acidi benzoici ana 0, 6*

*Talci ana 50, 0*

*Misce. Da. Signa:*

2. *Recipe: Acidi hydrochlorici diluti 4, 0*

*Pepsini 2, 0*

*Aquae destillatae ad 200, 0*

*Misce. Da. Signa*

3. *Recipe: Acidi salicylici*

*Acidi lactici ana 6, 0*

*Acidi acetici concentrati 3, 0*

*Collodii ad 20, 0*  
*Misce. Da. Signa:*

4. *Recipe: Tabulettas acidi lipoici 0, 025 numero 50*  
*Da.*  
*Signa: Kuniga 3 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.*

5. *Recipe: Acidi folici 0, 0008*  
*Acidi ascorbinici 0, 1*  
*Dentur tales doses numero 30 in tabulettis*  
*Signetur: kuniga 3 marta 1 tabletkadan.*

6. *Recipe: Sulfuris depurati*  
*Magnesii oxydi*  
*Sacchari ana 10, 0*  
*Misce, fiat pulvis*  
*Detur. Signetur: ½ choy qoshiqdan qabul qilinsin.*

7. *Recipe: Magnesii peroxydi 0, 25*  
*Da tales doses numero 12*  
*Signa: kuniga 3 mahal 1 kukundan.*

8. *Recipe: Sulfuris praecipitati 1, 2*  
*Glycerini 5, 0*  
*Aquae destillatae 90 ml*  
*Misce. Da.*  
*Signa: bosh terisiga surtish uchun.*

### **5. Retseptni tarjima qiling.**

1. *Ol: Salitsilat kislotadan 2, 0*  
*Glitserindan 15, 0*  
*Qo'rg'shin suvidan 180 ml*  
*Aralashtir. Ber.*  
*Belgila: kuniga 2 marta bosh terisiga surtilsin.*

2. *Ol: Skipidardan*

Lanolindan teng miqdorda 1, 0 dan  
Xloroformdan 5, 0  
Vazelindan 3, 0  
Aralashtir. Ber.  
Belgila: Surtma.

3. Ol: Dimedroldan 0, 02  
Borat kislotadan 0, 2  
Distillangan suvdan 20ml  
Aralashtirilsin. Berilsin.  
Belgilansin: Kuniga 3marta 1 tomchidan ko'zga tomizilsin.

4. Ol: Atsetilsalitsilat kislotasidan  
Fenatsetindan teng miqdorda 0, 18  
Kofeindan 0, 03  
Kakaodan 0, 020  
Shunday dozalarda 10 dona tabletkalarda berilsin.  
Belgilansin: Bosh og'rig'i uchun 1 tabletkadan.

5. Ol: Rux oksididan  
Bug'doy kraxmalidan teng miqdorda 12, 0  
Vazelindan 60, 0 gacha  
